

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI

ENERGIYA TEJAMKORLIGI VA MEM” KAFEDRASI



6071000 – Muqobil energiya manbalari
60710600-Elektr energetikasi(elektr ta’minoti)

**ELEKTR TA’MINOTI TIZIMINI MONTAJI
VA ISHLATILISHI**

fanidan


O'quv uslubiy majmua

Namangan-2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

ENERGETIKA VA MEM KAFEDRASI



**“Energetika va muqobil energiya manbalari”
kafedrasi**

**ELEKTR TA’MINOTI TIZIMINI MONTAJI
VA ISHLATILISHI**

fanidan

O’QUV USLUBIY MAJMUA

Namangan 2024

“Elektr ta’minoti tizimini montaji
va ishlatilishi”

fanidan o’quv-uslubiy majmua.

Namangan: NamMQI – 2024 y. 257 bet

Ushbu o’quv-uslubiy majmua “Elektr ta’minoti tizimini montaji va ishlatilishi” fani bo’yicha ma’ruza, tajriba, amaliy mashg’ulotlar asosida yaratilgan bo’lib, unda ma’ruza, amaliy mashg’ulotlarni o’rganish bo’yicha 6071000 – Muqobil energiya manbalari va 60710600-Elektr energetikasi ta’lim yo’nalishi uchun fanning o’quv dasturi, ishchi o’quv dasturi, ma’ruzalar matni, tajriba va amaliy mashg’ulotlariga uslubiy ko’rsatmalar, ta’lim texnologiyasi, vizual va ko’rgazmali taqdimot slaydlari, savol-javoblar, test savollari jamlangan.

Mazkur o’quv-uslubiy majmua oliy o’quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga o’quv-uslubiy majmuadan professor-o’qituvchilar, ilmiy xodimlar, tadqiqotchilar va korxonalarining mutaxassislari foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi: S.K.Vaxobova “Energetika va MEM kafedrası PhD,
dotsenti

Taqrizchi: M.X.Murodov-“Energetika va MEM” kafedrası, dotsenti

Ushbu o’quv-uslubiy majmua institut ilmiy-uslubiy kengashining 2024 yil “30” iyundagi “12”-sonli yigilishida muhokama qilingan va o’quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

1. Ma'ruzalar mavzulari (fan dasturiga muvofiq modullar tarkibida berilishi mumkin).....	4
Mavzu bo'yicha reja, tayanch so'z va iboralar, asosiy matn, illyustrativ materiallar, xorijiy adabiyotlarga xavolalar.....	4
Amaliy mashg'ulotlar mavzulari, asosiy matn, topshiriqlar. variantlari, masala va misollar, ko'rsatmalar.....	-
Laboratoriya ishlarini mavzulari, asosiy matn, zarur asbob-uskunalar, xorijiy adabiyotlarga xavolalar.....	140
Kurs ishi (loyihasi).....	
Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari, mavzulari, shakli, ko'rsatmalar, variantlar, tushuntirishlar, boshqa ma'lumotlar.....	179
2. Glossariy	187
3. Ilovalar:	189
- fan dasturi	189
- ishchi fan dasturi.....	201
- tarqatma materiallar,.....	215
- testlar	224
- baholash mezonlari.....	252
- qo'shimcha materiallar.....	-
- O'UM elektron varianti.....	-
4. Foydalanilgan adabiyotlar.....	255

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Namangan muhandislik – qurilish
instituti rektori

_____ Sh.T.Ergashev

202__ yil “__” _____

**“ ELEKTR TA‘MINOTI TIZIMINI MONTAJI VA
ISHLATISH ”**

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta‘lim sohasi:	710 000 – Muhandislik ishi
Ta‘lim yo‘nalishi:	60710600 – Elektr energetikasi

Namangan-2024 yil

Fan / modul kodi ETTMI 2705		O‘quv yili 2024-2025	Semestr 7	Kreditlar 5	
Fan / Modul turi Tanlov		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Elektr ta’minoti tizimini montaji va ishlatish	65 (26 m / 39 a)		85	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda elektr ta’minoti tizimini montaji va ishlatilishi bo‘yicha nazariy bilimlarini hamda texnik masalalarini rasional o‘zlashtirishni shakillantirishdan iborat. Bundan tashqari elektr jixozlarini o‘rnatish va sozlash, sinashni tashkiliy hamda amaliy masalalarini «Elektr qurilmalarining qurilish qoidolari» (EQQQ), elektr qurilmalarni ishlatilishida «Elektr xavfsizligi qoidolari» talablari asosida o‘rganishdan iboratdir. Fanning vazifasi - uni o'rganuvchilarga: elektr ta’minoti tizimini montaji va ishlatilishi bo‘yicha nazariy bilimlarini hamda texnik masalalarini ratsional o‘zlashtirishni shakillantirishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma`ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Elektr montaj ishlarini tashkil qilish. Kirish. Elektr montaj ishlari bajarilishining umumiy prinsiplari. Elektr montaj ishlarini tashkil qilish. Elektr montaj ishlarini rejalashtirish. Elektr montaj ishlarini bajarishga tayyorlash. Elektr montaj ishlarini mexanizasiyalashtirish va industrializasiyalashtirish. 2-mavzu. Elektr uzatish havo liniyalar montaji. Havo liniyalari xaqida ma’lumot. Havo liniyalarni vazifalanishi. Kuchlanishi bo'yicha. . Havo liniya yo'l (trassa)larini montajga tayyorlash. CHuqur, poydevor(fundament) va tayanchlarni tayyorlash. 3- mavzu. 35 kVgacha kuchlanishgacha kabel liniyalar montaji. 35 kVgacha kuchlanishgacha kabellar haqida ma’lumotlar va turlari. Kabellarni montajga tayyorlash ishlari. Kabellarni yerli trasheyalarda joylashtirish. Kabellarni transheyasiz joylashtirish. Kabellarni lotok va korobalarda joylashtirish. Kabellarni po'lat arqonlarda joylashtirish. 4-mavzu. Kuch transformatorlar montaji. Transformatorlar haqida umumiy ma’lumotlar. Tayyorlash ishlari. Montajdan oldin transformotorlarni va qismlarini saqlash. Transformotor montaji. Transformotorni sovutish tizimi va aloxida qisimlari montaji. 5-mavzu. Podstantsiya kommutatsion apparatlari montaji. Ajratgichlar. Bo'lgich va qisqa tutashtirgichlar. Yuklamani uzgichlar				

xaqida umumiy ma'lumotlar. Yuklamani uzgichlar montaji. Kam moyli uzgichlar xaqida umumiy ma'lumotlar. Kichik hajimli moyli uzgichlar montaji. Elegazli uzgichlar xaqida umumiy ma'lumotlar. Elegazli uzgichlar montaji. Kuchlanishli uzgichlarning yuritmalari xaqida malumotlar. Uzgich yuritmalariga qo'yiladigan talablar. Uzgichlar kontaktlarining bir vaqtda ulanib-ajralishini rostlash .

6-mavzu. Podstansiya himoya va o'lchov transformatorlar montaji.

O'lchov transformatorlari. Naychali razryadniklar. Vintilli razryadniklar. Nochiziqli o'ta kuchlanishni cheklagichlar. Betonli reaktorlar.

7-mavzu. Yuqori va past kuchlanishli elektr tarmoq taqsimlovchi qurilmalar montaji

Yuqori kuchlanishli taqsimlovchi qurilmalar. Berk taqsimlovchi qurilmalar. Bo'limli turdagi qurilmalar. 1000 V gacha kuchlanishli taqsimlovchi qurilmalar montaji. To'plamli taqsimlovchi qurilmalar. Taqsimlovchi shitlar. «Elektron» uzgichli taqsimlovchi shkaflar. Kuchlanishli qutilari. Kuchlanishli shkaflari.

8-mavzu. Yuqori va past kuchlanishli saqlagichlar montaji

Yuqori kuchlanishli saqlagichlar montaji. To'ldirgichli saqlagichlar. Otuvchi saqlagichlar. Avtogazli yoini so'ndurish saqlagichlar. Zarbiy tokni chegaralagich. Past kuchlanishli saqlagichlar xaqida ma'lumotlar. To'ldirilmaydigan PR-2 saqlagichlar montaji. Past kuchlanishli PN-2 to'ldirgichli saqlagichlar montaji. NPN-2 va blokli to'ldirgichli saqlagichlar montaji. Saqlagichni kerakli chegaraviy ishlashini xisoblash. Ximoya jixozlarini tanlash. Saqlagichlarni tanlash.

9-mavzu. 1kVgacha bo'lgan kommutatsion apparatlar montaji.

Ayirgich, qayta ulagich va yig'ma uzgichlar xaqida umumiy malumotlar. Yig'ma uzgichlar montaji. Yig'ma ulagichlarga qo'yiladigan talablar. 1000 V gacha kuchlanishli avtomatamatik uzgichlar montaji . Tayyorlash ishlari. AVM avtomatik uzgichlar montaji. A-3100 avtomatik uzgichlar montaji. AP-50 avtomatik uzgichlar montaji.

10-mavzu. Elektr motorlar montaji.

Elektr matorlar xaqida o'mumiy ma'lumotlar. Elektr matorlarni tashish. Tayyorlov ishlari. Elektr matorlar montajini bajarilish.

11-mavzu. Elektr jihozlarni ishlatish.

Havo liniyalar ishini nazorat qilish. Texnikaviy xizmat ko'rsatish. O'ta kuchlanishdan himoyalash. Liniyalarni tashqi o'lchovini tekshirish. Liniyalar ishlash jarayonida ortiqcha yuklanishi. Havo liniyalaridagi isroflarni paydo bo'lishiga olib keluvchi sabablar. O'zgaruvchan tokli elektr uzatish liniyalardagi (EUL) isroflar.

12-mavzu. Elektr uzatish kabel liniyalarni ishlatish

Kuchlanish kabel liniyalari. Kabel liniya jarohatlari. Kabel liniyalarning nuqsonlarini aniqlashi. Kabel nuqsonlarining turlari. Saqlash va tashishdagi kabel nuqsonlari. Montaj nosozliklari xilma-xilligi. Ishlatishdagi nosozliklar. Ishlatishda ruxsat etilgan yuklanish chegaralari.

13-mavzu. Kuch transformatorlarni ishlatish.

Transformatorlarni ishlatishga qabul qilish bosqichlari. Transformatorlarni qarab chiqishning vazifalanishi. Transformatorlar ishni davriy ravishda nazratdan o'tkazib turish. Transformatorlarning ish rejimini tekshirish. Transformatorlar ishonchli ishlashini ta'minlash.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Elektr iste'molchilarning turlari, quvvati va ishlash sharoitiga ko'ra havo liniyalari parametrlarini hisoblash.
2. Kabel liniya elementlarini montajidan oldin texnik tekshirish va sinovini hisoblash
3. Saqlagichning eruvchan o'rnatmasi me'yoriy tokini hisoblash
4. O'lchov transformatorlar parametrlari va izolyatsiya qarshiligini hisoblash
5. Elektr iste'molchilarning turlari, quvvati va ishlash sharoitiga ko'ra kabellar parametrlarini hisoblash
6. 6-10 kv kuchlanishli 250 kva to'plamli transformator podstantsiyasi(ttp) motaji, ishlatish va parametrlarini hisoblash
7. 6-10 kv kuchlanishli uzgichlar konstruktiv tuzilishini o'rganish va texnik parametrlarini hisoblash
8. Elektr iste'molchilarning turlari ko'ra havo liniyalari parametrlarini xisoblash
9. Elektr iste'molchilarning quvvatiga ko'ra havo liniyalari parametrlarini hisoblash
10. Elektr iste'molchilarning ishlash sharoitiga ko'ra havo liniyalari parametrlarin hisoblash
11. Elektr iste'molchilarning turlari ko'ra kabellar kesimini,turini va parametrlarini hisoblash
12. Elektr iste'molchilarning quvvati va ko'ra kabellar kesimini,turini va parametrlarini hisoblash
13. Elektr iste'molchilarning ishlash sharoitiga ko'ra kabellar kesimini,turini va parametrlarini hisoblash
14. Zaminlash qurilmasining qarshiligini hisoblash
15. Elektr energiya hisoblagichlarini tarmoqga to'g'ridan-to'g'ri tarmoqga ulash orqali istemol qilingan EEni hisoblash.
16. Yuqori va past kuchlanishli elektr tarmoq taqsimlovchi qurilmalarni parametrlarini hisoblash
17. Turar joy binolarida taqsimlash punkti montajini yig'ish va parametrlarini hisoblash
18. Yerga zaminlagichlar montaji va parametrlarini hisoblash
19. Uzgichlar kontaktlarining bir vaqtda ulanib- ajralishini rostlash
20. Kuch kabel turlari va kabellarni montajga tayyorlash ishlari

Amaliy mashg'ulotlar har xil o'lchash asboblari va laboratoriya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-

	oqituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar interfaol usullardan foydalanib ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq. IV. Laboratoriya ishlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar. O'quv rejasida laboratoriya mashg'ulotlari kiritilmagan. V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar. Mustaqil ta'limini tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalami rivojlantirish axborotlar bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, fan professor-o'qituvchilari bilan verbal va noverbal holatda ishlash orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Talabaning mustaqil ishi uchun tavsiya etilgan topshiriqlar: ➤ Kabel va simlarni montaji va ekspluatatsiyasi. ➤ 1000 V gacha bo'lgan sex elektr tarmoqlari. ➤ 1000 V gacha bo'lgan sex elektr tarmoqlari. ➤ 1000 V dan yuqori sex elektr tarmoqlari. SHina o'tkazgichlar. ➤ Komplekt taqsimlash qurilmalarining (KTq) va podstansiyalarning montaji. ➤ KTK (komplekt taqsimlovchi qurilmalar) va podstansiya montaji. ➤ Kuch transformatorlari: Umumiy ma'lumotlar. Transformatorlarni montajga tayerlash ishlari. Mustaqil o'zlashtiriladigan topshiriqlarga amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish kiradi, bunda talabalar tomonidan taqdimotlar, ishlanmalar, slaydlar, maketlar, modellar va tezislar tayyorlanadi.
1.	V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari Talaba bilishi kerak: ➤ energetika tizimida elektr ta'minoti tizimining tutgan o'rni, elektr energiyani ishlab chiqarish, uni iste'molchilarga uzatish va taqsimlash to'g'risida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; ➤ sohaga doir asosiy tushunchalar va ularning mohiyati, iste'molchilar elektr ta'minoti tizimini loyihalashtirish bo'yicha dastlabki ma'lumotlar

	hamda an'anaviy va noan'anaviy energiya manbalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi; ➤ iste'molchilarni uzluksiz va sifatli elektr energiya bilan ta'minlash sohasidagi mavjud muammolarni o'rganib, tahlil qilish va bu muammolar bo'yicha dastlabki yechimlar qabul qilish malakasiga ega bo'lishi kerak.
2.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: ➤ ma'ruzalar; ➤ interfaol ta'lim metodlari; ➤ guruhlarda ishlash; ➤ savol-javoblar; ➤ taqdimotlar tayyorlash; ➤ test topshiriqlarini bajarish.
3.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
4.	Asosiy adabiyotlar 1. S.Majidov. Elektr mashinalari va elektr yuritma. "O'qituvchi" nashriyoti T. 2002 yil 2. L.D.Rojkova V.S.Kozulin. Stansiya va podstansiyalarning elektr asbob uskunalari. "O'qituvchi" nashriyoti T.2005 yil. 3. Atabekov V. B. Elektr tarmoqlari va kuch elektr qurilmalarini montaj qilish: darslik. 4-nashri.-T.: O'qituvchi, 1995. 4. Правила технической эксплуатации электроустановок потребителей. – Спб.: АНО ОУ УМИТТС, 2003. 5. Правила устройства электроустановок: - Ташкент.: 2011. 6. Сибикин Ю.Д., Сибикин М.Ю. Справочник по эксплуатации электроустановок промышленных предприятий: 5-е изд., испр. и доп.- М.: Высш. шк., 2002.

	7. Кутсенко Г.Ф. Монтаж, эксплуатация и ремонт электроустановок: Учеб. пособие. –М.: Высш.шк., 2009. Qo‘shimcha adabiyotlar: 1. Electric power System basics. Steven W.Blume. 2007 Canada 237. 2. Electrical Energy Systems. Muhamed E.El Hawary USA 2000. 369 3. Introduction to Electrical power systems. Muhamed E.El Hawary USA 2008. 397 4. Power system Analyses and Design. J.Duncan Glover. USA 2012. 853 Axborot manbaalari: 1. www.catback.ru – xalqaro ilmiy maqola va materiallar sayti. 2. www.google.ru – xalqaro o‘quv materiallarini qidiruv sayti. 3. www.ziynet.uz – milliy o‘quv materiallarini qidiruv sayti.
5.	Fanning o‘quv dasturi Namangan muhandislik-qurilish instituti Kengashining “_____” _____ 2024 yildagi №_____ - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
6.	Fan / modul uchun mas’ullar: To‘ychiyeva M.O – NamMQI Elektr energetika kafedrasida dosenti.
7.	Taqrizchilar: Otamirzayev O.U. – NamMQI, Elektr energetika kafedrasida dotsenti. Mullajanov T.T. – Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi AJ, Rele himoya va avtomatika bo‘limi boshlig‘i.

MA'RUZALAR MAVZULARI

1- Ma'ruza

Elektr ta'minoti tizimi uskunalari va havo liniyalar montaji

Reja

1. Elektr montaj ishlarini bajarishning umumiy prinsiplari
2. Elektrmontaj ishlarini mexanizatsiyalashtirish va industrizatsiyalashtirish
3. Elektrmontaj ishlarini bajarishda texnika xavfsizligi
4. Elektr uzatish havo liniyalar montaji
5. Tayanchlarni yig'ish va urnatish
6. Sim va troslar montaji
7. Havo liniya simlarini ulash
8. Havo liniyalarni ishlatilishiga qabul qilish

1.1. Elektrmontaj ishlarini bajarishning umumiy prinsiplari

Elektrmontaj ishlar qurilish ishlari tizimining bir qismi hisoblanadi va qurilish shartnomasi tarkibi chegarasiga mos ravishda (kontrakt) asosida qurilish shartnomasida bajarilishi o'rnatilgan muddatda ishni bajarish bo'yicha pudratchi shartnomada belgilangan muddatda ishni bajarish tashkil qilinadi. Ish bajaruvchi ishni bajarishni o'z zimmasiga oladi, buyurtmachi esa pudratchi ishni bajarishi uchun kerakli shart-sharoit yaratib beradi, bajarilgan ishlarni qabul qiladi va haqto'laydi.

Buyurtmachi bo'lib yuridik shaxs (korxona, tashkilot), moliya vositaasiga ega bo'lgan (investorlar) tashkilotlar hisoblanadi. Elektrmontaj ishlarini moliyalashtirish, kengaytirish, qayta qurish va elektrtermik ob'ektlarini qayta texnik jihozlash yangi qurilishga mo'ljallangan kapital harajatlar bo'limi hisobidan olib boriladi. Elektrmontaj ishlarini bajarishda pudratchi bo'lib, odatda elektrmontaj tashkilotlari va shaxsiy shaklidan qat'iy nazar, o'rnatilgan tartibda soliq tashkilotlari va elektrmontaj ishlarini bajarish litsenziyasiga ega va boshqa hujjatlari, tashkilotning mutaxassisligini tasdiqlovchi va sifatini kafolatlovchi hujjatlar bo'lishi etarli hisoblanadi.

Yirik hajmli elektrmontaj ishlarida ishni bajarishni xohlaganlar ko'p va bir necha talabgorlar raqobatli bo'lganida ularni tanlashda buyurtmachi raqobat (konkursli) tender savdo tashkil qiladi.

Elektrmontaj tashkilotlari ish faoliyati davrida qurilish-montaj maxsulotlari, iste'molchilari qiziqishini va ularning ho'qo'qini himoya qilish maqsadida litsenziyalanadi. Kafolatlar buyurtmachi tomonidan bajaruvchiga shikoyat muddati bajarish shartnomasida aniqlanadi va elektrmontaj ishlari bo'yicha odatda 1...2 yilni tashkil qiladi.

Bajarish shartnomasi asosiy qonuniy hujjat bo'lib xizmat qiladi, pudratchi va buyurtmachi orasida munosabatlarni rostlovchi hisoblanadi.

Bunday shartnoma ayrim hollarda ish bajarilishi inshootni to'la tayyorlanganligi bilan tugaydi. Bu erda to'la investitsiyali to'la bajariladigan davrli

loyihalashga (ulash) kiritilishi, qurilish, elektrmontaj, ishlarini rostdash ishlari va ob'ektni ishlatishga topshirish ko'zda to'tilgan.

Tizimli yoki alohida qurilish ish to'rlari bajarilishi uchun, misol: ishga tushirish rostdash ishlari, bajaruvchi boshqa-maxsus mutaxassis yollanma ishbajaruvchi tashkilotlarni (subnaryadchilarni) jalb qilishi mumkin. Bu holatda pudratchi general bajaruvchi lavozimini egalaydi. Asosiy elektrmontaj ishlari bajarilish bosqichlari 1.1. rasmda ko'rsatilgan.

Elektr montaj ishlarini olibborishga tayyorlash, ko'pincha ob'ekt qurilish bo'lim jihozlari montaj ishlarini bajarishga qabulqilishda, buyurtmachi qarshisida barcha ishlar to'rlari o'z vaqtida bajarilishi, shartnomada ko'zda to'tilgan, va kerakli sifatda bajarilishi general pudratchiga yuklanadi.



1.1 rasm. Elektr montaj ishlari bajarilishining asosiy bosqichlari

Pudratchi, ishlarni loyiha-smetasiga mosravishda rejalashtiradi va shartlanilgan narxda va ishlarning bajarilish, hajmini aniqlovchi, ish tartibi va narxida olib boriladi. Loyiha hujjatlari elektrmontaj ishlarini bajarilishini belgilovchi me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishi kerak:

Qurilish me'yorlari va qoidalari (QMvaQ);

Qurilish sohasiga oid Davlat standartlari (GOST);

Elektr qurilmalar o'rnatilish qoidalari (EQO'Q);

Iste'molchi elektr qurilmalarini texnikaviy ishlatilishi qoidalari (IEQTIQ).

Bundan tashqari, bajaruvchi vazifasiga tabiiy, atrof muhit himoyalari qonunlariga rioya qilishi va ishni bajarishda mexnat muhofazasini tashkil qilish kiradi.

Ish bajarish davrida buyurtmachi va ish bajaruvchi, loyihalash tashkiloti bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan holda ish bajarilishi shartnomada ko‘rsatilgan tartibi o‘zgartirilmasligi inobatga olinib texnik hujjatlarga, yoki shartnomada ko‘rsatilgan talablarga o‘zgartirish kiritish mumkin va yana ishga tushirish to‘plamini umumiy loyiha hajmi ishlaridan ajratish mumkin.

Asbob-anjomlar to‘plami bilan elektrmontaj ishlarini ta‘minlash, to‘plamli uskunalarni, materallarni va konstruksiyalarni olib kelinish vazifasi va ma‘suliyati, odatda, pudratchiga yuklanadi.

Buning uchun pudratchi loyihalash tashkilotidan kerakli asosiy jihozlar va asbob-anjomlar to‘rlari, materiallar, konstruksiyalar haqidagi hisob-kitoblar, maxsuslashtirilgan hujjatlarni (spetsifikatsiyasini) oladi.

Montaj maydonchasiga ta‘minlovchidan keltirilgan jihozlar sifatini texnik nazoratdan o‘tkazadi, montajga kiritish akti to‘zilib qabul qilinadi yoki talabga javob bermaydigan jihozlar sifatiga, uni tashishda shikastlangan nuqsonlari qayd qilinib ta‘minlovchiga murojaat aktlari hujjatlashtiriladi.

Elektrmontaj ishlarini bajarish davrida nazoratdan o‘tkazib to‘riladi. Ularning o‘rnatilish muddatida bajarilishi, ta‘minlangan jihozlar sifati, uni ishga tushirish sinov, sozlash ishlari olib borilishida buyurtmachi ish sifati texnik nazoratini, loyihalash tashkiloti xodimini taklif qilib mualliflik nazorati olib borishi mumkin. Yirik hajmli montaj ishlarida nazorat, har bir loyiha bo‘limi bo‘yicha: qurilish, elektrmontaji, santexniklik, ishga tushirish, sozlash va boshqa ishlar uchun alohida olib boriladi.

SHartnoma bo‘yicha buyurtmachi va bajaruvchi majbo‘riyatlarini bajarilgach ish bajarilganligini qabul qilish ishlari olib boriladi. SHartnomada bajarilish muddati pudratchi va buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi, ob‘ektni qabul qilishga tayyorligini qabul qilish muddati va bajarish davrida aniqlangan kamchiliklarini bartaraf qilingani tekshiriladi.

Yirik ob‘ektlarni qabul qilishda ishchi va davlat qabul qilish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi va standart (KS-11 va KS-12) shaklga to‘g‘ri keladigan aktlar to‘zilib imzo chekiladi. Kichik hajmli ob‘ektlar ishlarida (o‘chirgichlarni, kichik quvvatli kuch transformatorlarni, amaldagi fundamentlarni saqlab qolgan holda almashtirish) bajarilgan ishlarni qabul qilish bitta qabul qilish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Ob‘ektni akt bo‘yicha qabul qilingan daqiqadan boshlab ob‘ekt buyurtmachining to‘la qo‘l ostiga o‘tadi va inshootni boshqarish xo‘qo‘qiga ega bo‘ladi.

1.1.2. Elektrmontaj ishlarini mexanizatsiyalashtirish va industrializatsiyalashtirish

Ob‘ektlarning ishga tushirilish muddatini qisqartirish maqsadida va elektrmontaj ishlarining bajarilish sifatini oshirish uchun bu ishlarni maksimal mexanizatsiyalashtirish va industrializatsiyalashtirishga intilinadi, va ishlab chiqarish korxonalarining yuqori klassifikatsiyali mutaxassislarni murakkab elektr uskunalari montajiga jalb qilinadi.

Industrializatsiya deganda montajga tayyorgarlikni oshirish maqsadida, avvalo elektr uskunani to‘plamlash va yig‘ish tushiniladi. Bu mumkin qadar ko‘proq

operatsiyalarni elektr uskunarlar elementlari montajini montaj mintaqasidan, yuqori ishlab chiqarish mexanizmlar bilan jihozlangan montaj korxonalarida va ustaxonalarida bajarilishiga o'tkazish yo'li bilan erishiladi. Industriyalizatsiya darajasi elektrmontaj ishlar sig'iminining, mintaqasidan tashqarida bajarilgan ishlar nisbatining umumiy elktromontaj ishlar sig'imi bilan aniqlanadi.

Yirik montaj tashkilotlari industriyalizatsiya darajasini oshirish uchun, odatdagidek, o'z qaramog'idagi bo'linmalarda, sanoat korxonalarida seriyali ishlab chiqarilmaydigan maxsulotlar, konstruksiya va mexnizmlarni ishlab chiqarish bilan shug'illanuvchilarga ega.

Industriyaalli montaj qilish ikki bosqichdan tashkil topgan:

birinchi bosqich o'z zimmasiga dastlab elektr uskunalarni to'plamlash, zavodlarda va montaj ustaxonalarida keltirilgan harxil uskunalarning to'plamli bloklarini va to'la montaj qilish holatiga keltirilgan yirik qismlarni yig'ish;

ikkinchi bosqichda to'plamli bloklar va uskunalarning yirik qismlari o'rnatiladi, kuch va yoritgichlar tarmoqlari va erlash tarmoqlari joylashtiriladi, montaj to'g'ri bajarilganligi tekshiriladi, sozlab ishga tushirish va elektr uskunalarni topshirish-qabul qilish sinash ishlari.

Eng yuqori industriyalizatsiyalashgan ishlar taqsimlovchi qurilmalar montajida, ularni to'plamli yacheykalar va bloklar ko'rinishida respublikamiz sanoat korxonalarida tayyorlanadi: TTQ-6/10, TTQB-35, TTQB-110, TTQE-110 kV va yuqori kuchlanishlarga yaratiladi.

Elektrmontaj ishlari bajarilishida industriyalizatsiya usullarining yuksalib borishi ularning mexanizatsiyalashtirilishi yuqori darajaga ko'tarilishi bilan chambarchas bog'liq. Elektrmontaj ishlarini mexanizatsiyalashtirish ikki asosiy yo'nalishga ega:

og'ir mexnat talab qiluvchi jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish uchun, ko'tarish-tashish mexanizmlar va universal mexanizmlardan foydalanish;

parmalovchi-kranli dvigatellar, teleskopli ko'targichlar va gidravlik ko'targichlar; alohida operatsiyalarni bajarishda umumiy qurilish asboblarni qo'llash, yaratish va harxil moslamalarni qo'llanishi; harxil elektr asboblarni, qurilish-montaj to'ponchalari, kuchma bosimlagichlar simlarni va kabel tolalarini ulash, birlashtirish uchun, bo'lar ayirim hollarda qo'llaniladi.

Ob'ektlarni o'z vaqtida ishga topshirish bajarilishi elektrmontaj ishlarini texnikaviy-materiallar bilan ta'minlanishiga sezilarli darajada bog'liq.

Yirik montaj tashkilotlari tizimida maxsus ta'minlovchi-boshqarma (bo'lim), texnik materiallar bilan ta'minlash va ishlab-chiqarishni-texnik materiallarni to'plamlash ishlarini olib boradi.

Bu boshqarma o'z kuchi va vositalari bilan montaj mintaqasiga zaro'riy uskunalarni, materiyallarni va mexanizmlarni yitkazib beradi. Bo'limning muvafiqiyatli ishlatilishi ombor xujaligini mexanizatsiyalashtirilishini talab qiladi, mexanizatsiyalashtirilgan usulda materiallarni to'plamlash va keyin materiallarni maxsus konteynerlarda montaj mintaqalariga yitkazish uchun zarur.

1.1.3. Elektrmontaj ishlarini bajarishda texnika xavfsizligi.

Texnika xavfsizligini va mexnatni himoyalash bo'yicha tashkiliy ishlarni EMB olib borishi amaldagi Davlat standartlari QMvaQ maxsus va hududiy qoidalariga itoat qilgan holda bajariladi.

Qurilishlarda texnika xavfsizligi bajarish tartibi olib borilishi tashkil qilinishi va mexnat muhofazasi umumiy holati montaj tashkilotlari boshlig'i va bosh muxandisi trest yoki boshqarma bir xil javobgarlikka ma'suldir, (1.2-bo'lim)[30].

EMB da xavf oshib borsa, barcha montaj ishlari bajarilishi ta'qiqlanadi, elektr uskunalar va elektr o'zatish, ish bajarilish loyihasi-(IBL) bo'lmaganida, Elektrmontaj tashkiloti IBLni talabini qoniqtirishi kerak.

Elektrmontaj tashkilot ishchi va xizmatchilari ishni bajarishiga, faqat kiritish (umumiy) ko'rsatma va qo'llanma texnik xavfsizligi bo'yicha ish joyida (ishlab chiqarishga) ko'rsatmalardan o'tkazilgach ish joyiga kiritilishi mumkin.

Barcha ishchilar texnika xavfsizligi va maxsus texnik o'rganish kurslardan o'tishi shart. Trest boshlig'i, boshqarma, montaj bo'lim boshliqlari texnika xavfsizligiga ishchilarning, o'z vaqtida to'la o'rganishiga ma'suldirlar.

Texnika xavfsizligini o'rganish hamma uchun tashkil qilinadi va barcha ishlar shu joyida ko'rsatma va qo'llanmadan o'tganlar, 3 oydan kam bo'lmagan muddatda bilimi qabul qilishdan o'tkazilgan bo'lishi kerak. O'qitish ma'mo'riyat tomonidan odatdagi dasto'r bo'yicha olib boriladi.

1.2. Elektr o'zatish havo liniyalar montaji

1.2.1. Tayyorlov ishlari

Elektr o'zatish havo liniyalarni (HL) qurishdan oldin qo'yidagi ishlar bajarilgan bo'lishi kerak:

HL trassalaridagi qishloq xujalik ekinzorlari va urmon maydonlarida ish olib borishga ruxsat olingan bo'lishi kerak;

montaj brigadalarini va bo'lim ishboshqaruvchilarni joylashtirish uchun vaqtinchalik xonalar tayyorlanishi lozim;

materiallarni taxlash uchun vaqtinchalik bazani tashkil qilish;

yo'llar, kupriklar va HL trassalariga keladigan er osti yo'llar holati tekshiriladi, zarur bo'lganda vaqtinchalik er osti yo'llarini qurish;

trassa bo'ylab er yuzasi tozalash, va urmon joylarda o'tish yo'llarni qurish;

loyixada ko'rsatilgan HL trassasidagi yoki unga yaqin va ish bajarilishida kesishadigan qurilishlarni bartaraf qilish;

ishlab chiqarish piket joyini bajarish-HL trassasi bo'ylab keyinchalik tayanchlarni urnatish joylarini belgilovchi belgilarni urnatish.


Materiallarni saqlashga vaqtinchalik baza joylashtirilgach HL trassasi o'tadigan tumanga kerakli materiallarni tashish bajariladi. HL trassalariga tayanchlarni maxsus ustun tashigichlarda tashish amalga oshiriladi. Simli barabanlarni vertikal holatda, avtotransport ko'zovida pulat simlar bilan tortgichlarda totib mahkamlangan holatda tashiladi. Osmo farforli va shishali izolyatorlar, dastlab tekshirilib zaro'riny uzunlikda shodalar tuziladi va HL trassasiga izolyatorlarni mexanik shikastlanishlardan himoyalovchi maxsus yog'och konteynerlarda tashiladi.

Tayanchlarni va simli barabanlarni qoidaga muvofiq ko'tarish kranlarida yuksizlantriladi.

HL trssasiga qurilish texnikalari o'z yurishida yoki maxsus avtomobil platformalarida keltiriladi.

1.2.2. Tayanchlarni yig'ish va o'rnatish

CHO'qurlarni qazish. HL lar qurilishida eng ko'p mexnat talab qiladigan ish, er ishlari hisoblanadi: yog'och yoki temir beton tayanchlar montaji uchun cho'qurlarni qazish, metall tayanchlar uchun oyoq osti va fundamentlar tagiga CHO'qurlar qazish. CHO'qurlarni tayyorlash tuzilishida [32] ga amal qilinadi.



1.2 - rasm. Harxil shaklli cho'qurlarda me'yoriy to'proqli erlarda tayanchlarni mahkamlash: a) – tayanchni rigelsiz mahkamlash; b) – rigellar bilan tayanchni mahkamlash

Bu ishlarni bajarishda ish vaqtini tejash uchun, yakka to'rdagi temir beton va yog'och tayanchlarni qazilgan cho'qurlarga o'rnatiladi. Parmalovchi MPK to'rdagi yuritma diametri 750 mm, cho'qurligi 4000 mm li cho'qurlarni qaziydi; BM to'ridagi diametri 800mm, cho'qurligi 3000mm va diametri 650mm, cho'qurligi 8000mm; BMTP to'rdagi – diametri 650mm, cho'qurligi 3000mm qaziydi. Parmalovchi BM-802C to'rdagi yuritma (cho'qur diametri 650mm, cho'qurligi 8000mm) tayanchlar tagiga cho'qurlar qazishdan tashqari, qoqqichlarni o'rnatish va ular tagiga cho'qur qazish uchun ham foydalaniladi. 35kV gacha bo'lgan HL ni qo'rinshda odatdagidek engilroq parmalovchi BKM to'rdagi yuritmalar qo'llaniladi, bu yuritmalar diametri 350, 400, 500mm, cho'qurligi 2000 va 2500 mm qazishga mo'ljallangan va I-IV to'rkumli erlarda cho'qurlarga tayanchlarni o'rnatish uchun ishlatiladi.


Tayanchlar montaji. Tayanchlarni yig'ish texnologiyasi [7] da hamma talablari keltirilgan.

Tayanchlarni yig'ish, montaj o'lchov maydonlarida texnologik usullar qo'llanilishi lozim. Tayanchlarning tortgich troslari chirishga qarshi qoplamaga ega bo'lishi kerak.

Tayanchlarni fundamentlarga montaj qilish, qurilish tugallanmagan va to'proq bilan to'la, ko'milmagan hollarda ta'qiqlanadi. Tayanchlarni montajdan oldin sharnir yordamida bo'rash usulida fundamentlarning so'rilish kuchidan saqlashni ko'zda to'tish kerak. Teskari tomonga aylantirib ko'tarishdan to'xtatish jihoz qo'llanishi lozim. Tayanchlarni mahkamlash gaykalari oxirigacha mahkamlanishi va o'z-o'zidan bo'shab ketishga bolt rezbasini o'yib yo'lini bo'zish (kernolash) boltni 3mm cho'qurlikkacha o'yiladi. Tayanchning erga ishonchli mahkamlanishi qazilgan yoki

ochiq cho'qurlarga, tayanchlarni loyihadagi yopish cho'qurligi ko'rsatilishiga ko'ra bajarilishi, ankerli plitalar bilan va sinchiklab qatlam-qatlam to'proqni cho'qurlarga (sepib) to'kib cho'qo'rni to'ldirib zichlanadi.

Tayyor va yig'ish maydonlarida yig'ilgan tayanchlarni yo'l bo'yiga tashib, cho'qurlarga bevosita o'rnatiladi va fundamentlarga parmalash-kranli yuritmalar yordamida yoki maxsus mexanizmlar KVL-8 to'rtli o'rnatuv kranlar bilan tayanchlar o'rnatiladi. 1.3- rasm. Yakka to'ruvchi yog'och va temir beton og'irligi 3-4 tonnalik tayanchlar, cho'qurlarga avtokranlar yordamida o'rnatiladi.



1.3-rasm. Tayanchlarni o'rnatish: a) – trassa bo'ylab tayyor tashilgan yoki maydonchalarda yig'ilgan tayanchlar trassalarda bevositaa cho'qurlarga yoki fundamentlarga kranli-parmalash yoki maxsus KVL-8 tayanch o'rnatuvchi-kranlarda o'rnatiladi; b) – avtokran yordamida 3-4 t massali yog'och va temir beton yakka o'rnatiladigan tayanchlar o'rnatilishi mumkin.

Ko'tarish balandligini oshirish uchun BM-104 parmalovchi-kranli yuritmalar qo'llaniladi. Energiya qurilishmontajida teleskopli gidravlik uzaytirgich, yuqorigi truba o'rniga yuritmaga o'rnatiladi.


Hozirgi davrda 22 va 26m li yakka to'ruvchi temir beton tayanchlarni MRK-750 yuritmada parmalangan cho'qurlarga ko'tarish va montaj og'irligi 8 t ga mukammallashtirilgan o'rnatgich kran KVL-8M qo'llaniladi. 26,4 m va og'irligi 7,47 t bitta tayanchni parmalangan cho'qurga montaj vaqti – 35 min ni tashkil qiladi (to'rgan joyidan etib kelish vaqti hisobga olinmagan).

Erda yig'ilgan og'ir va murakkab tayanchlar montajida sharnirlarda osma holda aylantirib (yiqiluvchi) montaj usulida tayanchlar va fundamentlarga mahkamlangan holda bajariladi.

Tog'larda juda kesishgan va botqoqli joylarda tayanchlarni urnatish vertolyotlar yordamida bajariladi.

1.2.3. Sim va troslar montaji.

Sim va troslar montaji texnik tashkiliy murakkab jarayonlardan bo'lib texnologik ko'rsatmalar, montaj ishlarini bajarish qoidalari (MIBQ) da keltirilgan aynan shu HL MIBQ ga rioya qilgan holda bajarilishi kerak.



1,4 - rasm. Muvofiqlashtiruvchi blok orqali moslashtirib uchta simni tortish: 1 – chuvatish roliki; 2 – montaj qisqichi; 3 – sim; 4 – yordamchi (takelajnyy) tros; 5 – uchala simni birgalikda tortish uchun moslama; 6 – to‘xtatgich.

HL larini qo‘rinsh oqimli usulda, sim va troslarni montajida quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: sim va troslarni ulash, shodalarni ulash va ularni simlar bilan oraliq tayanchlarga ko‘tarish; sim va troslarni tortish va ularni ankerli tayanchlarga mahkamlash; sim va troslarni oraliq tayanchlarga mahkamlash.

Simlarni taqsimlash. HL lari uchun izolyasiyalanmagan simlar yog‘och barabanlarda keltiriladi. Barabanlarni simlar bilan maxsus aravachalarga o‘rnatiladi, ular yordamida bir vaqtning o‘zida bir nechta sim va troslar taqsimlash bajariladi. Simlarni barabanlardan taqsimlash traktor va avto yuritmalari yordamida odatda bitta ankerli tayanchdan boshqasiga olib boriladi. Bu holatda quyidagi talablar bajarilishi kerak.

Simlarni (arqonlarni) er bo‘ylab taqsimlash, odatdagidek harakatlanuvchi aravachalarda olib boriladi.

Simlarni taqsimlash va tortish, arqonlarni bevositaa po‘lat traverslarda va ilgaklarda bajarishga ruhsat berilmaydi.


Osma izolyatorli HL larida simlarni har bir oraliq tayanchlariga aylanuvchi roliklarga (o‘rnatgichlarga) oldindan izolyator shodalarga o‘rnatib chiqiladi; keyin simlarni joyiga shoda va roliklar bilan tayanchga ko‘tariladi; bir vaqtning o‘zida troslarni ham tayanchga ko‘tariladi, ular ham roliklarga o‘rnatiladi.

SHundan keyin sim va troslar keyingi oraliq tayanchlarga tarqatiladi. Qoziq izolyatorli HL larida simlarni tayanchlarga ko‘tarishdan oldin, ularni erda yoki roliklarda simlarni ilgaklarga osilgan holda tarqatiladi, roliklar ilgaklarga (traverslarga) osilgan bo‘ladi.

HLlarini ko‘p qirqib o‘tishlardagi o‘rnatishlarda teleskopik qurilmalar qo‘llaniladi. Qurilmalarni metall quvurlardan har xil diametrli bir-biriga kiradigan qilib tayyorlanadi. Quvurlarda to‘g‘ri o‘qli boltlarda mahkamlash uchun teshiklarga ega, qurilma balandligini o‘zgartirishda boltlarda ulanadi.

HL o‘tish joyida teleskopik qurilma kerakli uzunlikka (chiqariladi) o‘zaytiriladi va boltlar bilan yig‘iladi. SHundan keyin avtokran bilan parmalangan dumaloq, cho‘qurligi – 2,5-3m cho‘qurga o‘rnatadi. O‘tish o‘rnatilishi tugatilgach, qurilma tarqatib olib tashlanadi va boshqa o‘rnatish joyiga tashiladi.


Simlarni va trosarlarni tortish ankerli tayanchlar orasida bajariladi. 35 kV va yuqorilarida bir necha simlarni (ikkita va undan ko'pini) ko'rsatilgan, moslama bir vaqtda uchta simni torta oladi.




1.5-rasm. a) – Montaj roliki: 1 – disk; 2 – simlarni joylashtirish uchun qayriluvchi buyincha; 3 – mahkamlash uchun ilgich; b)- simni chuvitishholati: 1 – ankerli tayanch; 2, 3 – oraliq tayanchlar; 4 – simli baraban; 5 – sim; 6 – tortuvchi mexanizm(traktor); 7 – montaj roliki; v) –simlarni tortish: 1, 4 – ankerli tayanchlar, 2, 3, – oraliq tayanch, f – simning pastki osilish nuqtasi va tayanchlardagi sim osilish nuqtalarini biriktiruvchi, to'g'ri chiziqli oraliqidagi masofa, g) -montaj grafigi.

1.2.4. Havo liniya simlarini ulash.


20-35 kV bo'lgan kuchlanishlarda quyidagicha bajariladi: a) ankerli burchak to'rdagi tugundagi tayanch; qisqichlari bilan ankerli va ponali shoxobilanishli; aylanma ulanishli, siqish usulida o'rnatilgan; ustma-ust termitpatronlarda tugunli, har xil ko'ndalang kesimli va to'rtli simlar – siqqich apparatda zichlash; b) osma simlarda ulanuvchi cho'zinchoqli (ovalli) qisqichlar bilan, o'rab o'rnatish usuli bilan. 20 kV dan yuqori HL larida bajarilishi kerak: a) ankerli burchak to'rdagi shleyfli tayanchlar, 240mm² po'lat alyuminli simlar va yuqorilarini termitli patronlar yordamida va energiya portlash bilan zichlash; 500mm² po'lat alyuminli va yuqorilarini ulab zichlovchilar yordamida; alyumin qorishma simlarini – ustma-ust tugunli siqib yoki cho'zinchoqli ajratgichlar bilan o'rab olib o'rnatilish usulida; b) osma simlarda: 185mm² po'lat alyuminli va po'lat arqonlar 50mm² gacha cho'zinchoqli ulanishli; o'rab o'rnatilish usulida; po'lattalyuminli 240-400mm² simlarni bosimli ulab siqish bilan, bo'ylamasiga o'rnatib zichlash usulida va energiya portlash bilan zichlash yordamida; 500mm² po'lat alyuminli simlarni ulab siqish bilan, bo'ylamasiga o'rnatib zichlash usulida. 1.6-rasm.tortish qisqichlar, 1.7-rasm. ushlab to'ruvchi qisqichlar, 1.8-rasm. biriktiruvchi qismlar keltirilgan.



1.6. Rasm. Tortish qisqichlar: a – ponali NK; b – troslar va po‘lat simlar uchun NKK pona-kovish; v – boltli; g – bosimlangan; d – simlarni qirqish talab qilinmaydigan bosimlangan; e – po‘lat troslar uchun bosimlangan; 1 – tana; 2 – po‘latli anker



1.7-rasm. Ushlab to'ruvchi: a) – berk; b) – biriktiruvchi qisqichlar; v) – tebranib chiqaruvchi.




1.8-rasm. Biriktiruvchi qisimlar: a) – siqib montaj qilinadigan, cho‘zinchoqli; b) – bo‘rab montaj qilinadigan, cho‘zinchoqli; v) – momentli simlar uchun bosimlanadigan, cho‘zinchoqli; g) – bu ham po‘lattalyuminli simlar uchun.

Bosimli siqishdan keyin, ulanish siqilishda yoriq yo‘qligi tekshiriladi, agar yoriq bo‘lsa siqilgan er kesib tashlanadi va yangitdan ulanadi.


Yoriq yo‘q bo‘lsa siqilish o‘lchami tekshiriladi, bu siqilish M, omburlarda cho‘ziq yuzali qilib bosimlab biriktirishga ruxsat etilgani 13.1-jadvalda [7] dagi belgi bilan, qisqichda aniqlanadi. Og‘ishi belgilangan $\pm 10\text{mm}$ dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Xuddi shuningdek zichlab ulash bajariladi, po‘lat alyuminli simlarni cho‘zinchoqli siqib ulashda 1.9 – rasm, uchun chuzinchoqli biriktirishlarni bosimlagichda bosimlashga ruxsat etilgan 13.2-jadvalda [7] keltirilgan. Zichlab ulash tugatilgach zichlanish sifati, xuddi o‘rab siqishdagidek tekshiriladi.



1.9-rasm. a) - po‘lattalyuminli simlarni montaj qilishda o‘rab cho‘zinchoq siqib ulash: I- simlar; II – kiritgich, b) – po‘latmisli simlarni montaj qilishda cho‘zinchoq bosimli ulash: I – simlar; II –kiritgich v –MI-1B ruso‘mli ko‘chma gidravlik Hllarni montaj qilishda qo‘laniladigan montaj zichlagich: 1 – bosimlagich qisqichlari; 2 – zoldirli va qo‘lda dvigatelli nasos; 3 – ishchi suyuqlik uchun vanna; 4 – bosimlagichdan ishchi suyuqlikni bakka tukish vintili; 5 – bosimlagich bilan nasosni bog‘lovchi quvur; 6 – bosimlagich; 7 – tiqin; 8 – yuqorigi matritsa; 9 – pastki matritsa; 10 – asbob qo‘tisi.


13.3-jadvalda [7], simlarning siqib ulangan yoki zichlangan joylari uchlarinipayvandlash termit patronlar yordamida payvandlash bajarilish ma’lumotlari keltirilgan.



1.10-rasm. Osmo yo‘nalishidagi simlar ulanish sxemalari: a) – mis va po‘lattalyuminli simlar uchun; b) – po‘lattalyuminli simlar uchun; 1 – kaltartirilgan cho‘zinchoqli qisqich; 2 – ulanadigan sim; 3 – yordamchi sim (shunt); 4 – cho‘zinchoqli qisqich


Simlarni termitli payvandlash texnologiyasi quyidagicha: simlar turiga qarab termit turi tanlanadi PAS –po‘latliga (A va AS) va misli M ga M to‘rli trubka olinadi. Payvandlanadigan simlar maxsus siqqich moslamalarga, (1.11-rasm) siqiladi va

termit gurgo't bilan termit patron yoqiladi; keyin termit tarkibi yonib bo'lgach ulanish joyi sovo'tiladi trubkaning qoldig'i ulangan joyida metalli cho'tka yordamida tozalanadi, benzin bilan yuviladi va lattada quro'q surtiladi; chuziqli (ovalnyy) ulanish yuqorida keltirilgani kabi zichlanadi.



1.11-rasm. HL simlarini payvandlash uchun moslama: a) – Mosenergiya payvandlash qisqichlari; b)– payvandlash to'pponchasi; 1 – qisuvchi jihoz; 2 – payvandlanadigan simlar uchlari; 3 – termitli patron; 4 –ag'dariladigan himoya ustitoki; 5 – prujinalar; 6 – tayanch ilgagi.

Soha energiya qurilishida portlatib simlarni ulash jarayonini yaratgan va bu jarayon texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda bajarilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.



1.12-rasm.HL simlarini portlatish energiyasida ulash: a) – portlatishga tayyorlangan zaminlagich; b) – simlarni noto'g'ri tutashtirilish sababli ulanish yaroqsizligiga misol; 1,4 – ulanadigan simlar; 2 – portlagich zaryadi; 3 – biriktiruvchining tanasi; 5 – detonatorga detonatsiyalovchi shnur; 6 – izolyasiyal lenta.

Tayanch va traversalarni erga ulash. HL kuchlanishlariga ko'ra, HL tayanchlari qanday materialdan yaratilishiga, va qanday xududdan trassa o'tishiga ko'ra traversalarni erga ulash talablari amalga oshirilishi aniqlangan.

1 kV dan yuqori kuchlanishli HL larida erga ulash. Erga ulash kerak: a)– 6-35 kV temir beton va metalli HL tayanchlari. Tushirish erga zaminlagich sifatida temir beton tayanchlarning barcha ko'ndalang armato'ra elementlaridan foydalanish zarur, ular o'zaro metalli va erga ulangan bo'lishi kerak; b) – temir beton, metalli va yog'och tayanchlarning barcha to'rlaridagi liniya kuchlanishlarida, o'rnatilgan yashindan himoyalagich yoki osma tros; v) – barcha to'rdagi tayanchlarda, o'rnatilgan kuch va o'lchov transformatorlari, ajratgichlar, saqlagichlar yoki boshqa apparatlar travers va troslarga mahkamlanadi.

Erga zaminlagich jihozlar qarshiligi 0,05 Om, - qabul qilingan. Temir betonli tayanchlar liniyalarda, tayanchlarga erlangan armato‘ralar yoki tushayotgan erga zaminlagichlar mahkamlanadigan izolyatorlar detallariga mahkamlanadi.

Biriktirish payvandlash yoki boltli zich siqish bilan bajariladi.

Tayanchlardagi har bir tushirilgan erga zaminlagichlar ko‘ndalang kesimi harqanday holatlarda 35mm² dan kichik bo‘lmasligi kerak, bitta simli tushirishlarda diametri 10mm dan kam bo‘lmaydi. Ruhlangan po‘lat bir simli po‘lat tushirgichlar 6 mm lilarini qo‘llashga ruhsat beriladi.

1 kV gacha bo‘lgan HL ni erlash. Neytrali erlangan tarmoklarda metallli tayanchlar va temirbeton tayanchlar armato‘ralari nolli erlangan izolyasiyalanmagan o‘tkazgich tutashtirgich sim bilan, maxsus nolli simga shoxoblovchi boltli qisqichlarga biriktiriladi. Qisqichlar shu liniya simi (alyumin, mis, po‘lat) tayyorlangan materialdan tayyorlanadi. Tutashtirgichlarni tayanchlarga ulash – maxsus chiqishlar bevositaa metallli tayanchlarda yoki traverslarda o‘rnatilgan boltli qisqichlarda bajariladi, temirbeton tayanchlarda esa – maxsus chiqishlar, tayanch armato‘rasiga biriktirilgan. Tutashtirgichlar kontaktli ulanishlari oldin sinchiklab tozalanadi va vazelinli qobiq so‘rib qoplanadi.

Neytrali izolyasiyalangan tarmoklarda metallli tayanchlar va temirbeton tayanchlar armato‘ralari va yana erga zaminlagich jihozlarga ulash yo‘li bilan biriktiriladi, tayanchlarga mahkamlangan, yoki metallli tayanchlar asoslari erga zaminlagich sifatida foydalaniladi, kabellarning metallli qobiqlari, tayanchlarga biriktirilgan va boshqalar. Erga zaminlagich jihozlar qarshiligi 50 Om dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Tashqi yoritgichlar kabellarda ta‘minlanganida kabel metallli qobiqlari orqali neytrali izolyasiyalangan tarmoqlarda va unga kabelning nolli tolasi orqali neytrali erlangan tarmoqlarda kabel qobig‘iga biriktiriladi.

Neytrali erga berk biriktirilgan metallli tortgichli tayanchlarda nolli erlangan simlarga biriktiriladi.

1.2.5. Havo liniyalarni ishlatilishiga qabul qilish

HLlarda qurilish ishlari oxiriga yitkazilgach pudratchi yozma shaklda buyurtmachiga HL ishga topshirishga tayyorligi va kuchlanishga ulanishi mumkinligi haqida xabar beradi. Buyurtmachi ishchi komissiya to‘zadi, bu komissiya buyurtmachi vakili (rais), pudratchi, loyiha tashkiloti, davlat nazorat tashkiloti vakillaridan tashkil topgan bo‘ladi.

Ishchi komissiya:

ko‘pincha HL erga zaminlagich qurilmalar qarshiliklarini ulchagan protokollari, o‘lchash protokllari tuziladi;

HL niqarab chiqishdagi aniqlangan nuqsonlar va kamchiliklarga ro‘yxat tuziladi;

Pudratchi ishchi komissiyaga quyidagi hujjatlarni tag‘dim etadi:

qurilish-montaj ishlari bajarilishida qatnashgan yollanma tashkilotlar (subpodryadchiklar) ro‘yxati;

to‘plamli ishchi chizmalar bilan HL loyihasi;

HL pasporti;

barcha tayanchlar nomerlari va HL ning uch liniyali chizmasi bilan fazalar raglanishi; simlar va trosalar montaji va HL qurilishbo‘limi ishchi jurnallari;

HL kesishgan va o'tishlar o'lchamlari va qarab chiqishga, aloqadar tashkilotlar vakillari bilan pudratchi birga to'zgan protokollar;

HL erga zaminlagich qurilmalari o'lchov protokollari;

Ishchi komissiya HLni ishlatishga qobo'l qilish, aniqlangan nuqsonlar va kamchiliklarni pudratchi tomonidan bartaraf qilgani xaqida akt tayyorlaydi:

HL ni ishlatishga qabul qilish uchun qabul komissiyasini tayinlanadi, bo'larga pudratchi qo'shimcha taqdim etadi:

tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari;

Agar HL to'la tayyor bo'lsa qabul komissiya yozma ravishda HL ni ulashga rxsat beradi. Pudratchi tomonidan ob'ektdan odamlar chetlashtirilgani, erga zaminlagichlar olingani, HL ulashga tayyorligi haqida yozma xabar berilganidan keyin, bu ulanish ishlatuvchi xodimi tomonidan bajariladi.

HL so'tka davomida o'zluksiz yuklama ostida ishlatishga qabul qilish komissiya HL ni ishlatishga akt to'zadi. Qabul komissiya tomonidan imzo chekilgan kundan boshlab HL ishga tushirilgan hisoblanadi. Liniya buyurtmachi boshqarishiga o'tadi, ishlatuvchi tashkilot balansiga qabul qilinadi, va u barcha texnikaviy hujjatlarni va liniyaning keyingi ma'suliyatini o'z zimmasiga oladi.

Nazorat savollari

1. Elektrmontaj ishlarida buyurtmachining huquqi va vazifasi nimadan iborat ?
2. Kimlar pudratchi bo'lish huquqi va vazifasi nimadan iborat ?
3. Elektrmontaj ishlarining bajarilish bosqichlari.
4. Elektrmontaj ishlarini mexanizatsiyalashtirish va industrializatsiyalashtirish omillari nimalardan iborat.
5. Havo liniyalarini qurish oldi ishlariga qanday ishlar kiradi.
6. Tayanchlari turlari va ularga qo'yiladigan talablar.
7. YOg'och tayanchlar qo'llaniladigan kuchlanishlar va ularning kamchiliklari.
8. Temir beton tayanchlarning qo'llanilishi va afzalliklari.
9. Metall konstruksiyali tayanchlar turlari va ularning kamchiliklari.
10. Havo liniyalarida simlar osilish balandligining chegaralari.

2 - Ma'ruza

Kabel liniya va kuch transformatorlar montaji

Reja:

1. Kabellarni joylashtirishga tayyorlash.
2. Kabellarni transsheyalarda joylashtirish.
3. YUqori texnologik muftalar montaji.
4. Kabel liniyalarini belgilash va ishlatishga qabul qilish.
5. Kuch transformatorlar montaji.
6. Transformatorlarni montajga tayorlash.
7. Transformatorlar sovutish tizim montaji.
8. Transformatorlarni ishlatishga topshirish va qabul qilishni texnikaviy hujjatlari.

2.1. Kabellarni joylashtirishga tayyorlash

Asosiy talablar. Kabellarni joylashtirishda [1,31] talablariga rioya qilinishi kerak. Eng kam bukilish radiusga ruxsatetilgan chegarasi,(2.1-jadval). Ruxsat berilganidan ortiqchakuch paydo bo'lganida o'chirilishi uchun lebyodkalar va tortuvchi vositalar tortish kuchini rostlab chegaralovchi qurilmalar bilan jihozlanishi zarur. Tortuvchi qurilma kabelni siqib to'ruvchi (dvigatelli rolklar) va bo'rilish qurilmalari kabelning shakl o'zgarishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Kabellarning eng kam ruxsat etilgan bukilish radiusi 2.1-jadval

Kuch kabellar tavsifi	Tashqi diametriga nisbatan eng kam martali ruxsat etilgan kabel bukilish egri chiziq ichki radiusi
Kuchlilar, bo'ktirilgan qog'oz izolyasiyal bir tolali qo'rg'oshin va alyumin qobiqli zirhlangan va zirhlanmagan 35 kV gacha	25
Ko'p tolali kuchlilarbo'ktirilgan qog'oz izolyasiyal zirhlangan va zirhlanmagan 35 kV gacha qo'rg'oshin qobiqli	15
alyumin qobiqli	25
Kuchlilar, rezina izolyasiyal, rezinli yoki polivinilxloridli qobiqli 0,66* kV gacha:	
Zirhlangan	15
Zirhlanmagan	10
Kuchlilar, plastmassa izolyasiyal 3 kV gacha, alyumin qobiqli, zirhlangan va zixirlanmagan	15
Kuchlilar, plastmassa izolyasiyal 3 kV* gacha, plastmassali yoki po'lat gorfrirlangan qobiqda yoki zirhlangan	10
Kuchlilar, plastmassa izolyasiyal 3 kV* gacha, plasmassali qobiqda zirhlanmagan	6

*o'zgaruvchan tokda.

Kabelni joylashtirishda 1-2% zahira bilan yotqizilishi kerak. Transheyada bino ichida va ob'ektda yalpi yuzaga yotqizilganda kabel g'amlamasi ilon izi (zmeykoy)

joylashtirishda, kabeltizimalari (kronshteynlarda) bu zahira osilish o'qini tashkil qilish uchun qo'llaniladi.

Kabellarni devorlar orqali to'siqlardan va ishlab chiqarish kameralarida qoplamalaridan o'tkazishda kabelqurilmalari nometalll truba bo'laklari (tayanchsiz asbestli, plastmassali va boshqa) tayyorlangan teshiklardan temir beton tizimlaridan yoki ochiq kamarlardan o'tkazilishi tashkil topgan bo'lishi kerak.


Asosiy va umumiy talablar [3], kabellarni yotqizilishida rioya qilinishi kerak, bu talablar [2] talablariga to'g'ri keladi.

Quvurlar bo'laklaridagi ochiq joylar, teshik va kamarlar kabellarni joylashtirish tugatilgach bo'tun devor qalinligi bo'yicha yoki yonmaydigan to'siqlar bilan, misol sement qum 1:10 hajmda, to'proq qum bilan -1:3, to'proq-sement va qum bilan-1:5:1:11, perlit bilan, ko'pirtirilgan qo'rinmli gipsi bilan-1:2 bilan yamab suvalishi lozim. Devordan o'tishdagi oraliqlar yamalmaydi, agar bu devorlar olovbardosh to'siq hisoblanmasa [2].

Kabel mahsulotlarini tashish. Barabandagi kabellar, ularning soniga, og'irligi, o'lchamlariga ko'ra va shu joy sharoitiga ko'ra joylashtirish joyiga tarqatgichda yoki yuk dvigatellarida, avtoyuklagichlarda, kabel transportyorlarida, platforma va maxsus kabel tashish avtoulavlarida yuklovchi va yuksizlantiruvchi, kabelni dumalatib tarqatgich bilan jihozlangan jihozlarda bevositaa kabelni yotqiziladigan erga keltiriladi.

Tashiladigan barabanlar transport vositaasida tros yoki simda mahkamlanib tashiladi.

YUksizlantirish (yuklash) barabanlar kabeli bilan temir yo'l platformalarida, avtomobillarda va boshqa ulovlarda, ko'tarish mexanizmlar: o'ziyurar kranlar, maxsus lebedkali avtomobillar va boshqa kabel ulovlari yordamida bajariladi. YUklash (yuksizlantirish) lebedkali avtomobillar yordamida yuzadanog'ishi 1:3 dan oshirilmagan holatda olib boriladi.



2.1-rasm. Lebyodka bilan barabanlarni atomobilga yuklash.

Barabanlarni erga tashlab yuborish qat'iy manqilinadi. Ayvonlarda saqlanayotgan barabanlarni tushirish (yuklash) quyidagicha, agar transportko'zovi ayvon (poli) yuzasi bilan bir xil sathda bo'lsa, barabanlarni dumalatib, ko'zovga yuklash bajariladi.

Dumalatish. Barabanlarni dumalatishdan oldin tashqi tekshirishdan o'tkaziladi. Tekshirish davomida asosan barabanlar to'qilishi bo'tunligi, baraban bo'yinchasidan chiqarilgan kabel uchlarini himoya qiluvchi kameracha nuqsonsizligi tekshiriladi. Barabankabeli bilan yotqizib qo'yish (bo'yigacha) tavsiya qilinmaydi. Qoplagichlari

olingan barabanlar kabeli bilan yopib qo'yilishiga ruhsat beriladi, agar kabel o'ramlari baraban bo'yinchasidan 100 mm dan ko'p chiqqan bo'lsa.

Eri bo'sh joylarda baraban kabeli bilan doskalar ustidan yotqizilayotgan tomonga tarqatilishi bo'yicha dumalatiladi.

2.1.2. Kabellarni trasheyalarda joylashtirish

Transheyalarni qazish. Mustahkamlash qoplamalari bo'lmagan bo'limlarda (asfaltlangan, ko'priqli va shunga o'xshashlar), daraxtzorlar ekilmagan va har xil er osti ob'ekt va qurilmalar (kabellar, truba o'tkazgichlar va boshqalar) yuqorida qayd qilingan joylarda bo'ldozlar va transheya ekskavatorlarini qo'llab mexanizatsiyalashtirilgan usullar bilan bajariladi.

SHahar cheti bo'limlarida bir donali kabellarni joylashtirish maxsus kabel joylashtirish dvigatellari yordamida bajariladi, U pichoq ponasi bilan to'proqni qirqadi va siljitadi va bu hosil bo'lgan yoriqqa kabel yotqiziladi.


Kabellarni transheya ichida ulanish muftalariga ulash ishlarini bajarish uchun, transheya bu erlarda 2 m uzunlikda ikki kabel yotqizilayotganida 1,5 m gacha har bir yonida yotgan mufta uchun 350 mm kenglikda bo'ladi. Muftalarni transheya ichida shaxmat ko'rinishda joylashtiriladi.

Kabellarni joylashtirishdan oldin transheya nazoratdan o'tkaziladi, yo'l joylarida harakatlantiruvchi narsalar, kabelning metall qoplamalarini emiruvchi (sho'r joylar, ohak, suv, to'kilma to'proqli, shlak yoki qurilish chiqindilaridan tashkil topgan, 2 m dan yaqin joylashgan bo'limlar, so'rinslangan va chiqindi cho'qurlari va h. k.) aniqlanadi.

Bu joylarni ko'zatish imkoniyati bo'lmagan holatlarda kabel boshqa toza to'proqli, bosimsiz asbotsementli quvurlarda, tashqi va ichki qismi bitum birikmasi bilan yopilgan bo'lishi kerak.


Kabel yotqizilgan transheyani ya'ni neytral to'proq bilan sepilishda qo'shimcha ikki tomonlama 0,5-0,6 m ga kengaytirilishi va 0,3-0,4 m ga cho'qurlashtirilishi kerak.

Transheyalarda joylashtirish moslama va mexanizmlar. Kabellarni joylashtirish maxsus mexanizmlar, avtomobil, traktor, lebedkalar yordamida, barabanlarni aylantirib chuvalatuvchi va kabellar harakatlantiruvchi roliklar qo'llanilib bajariladi.



2.2-rasm. Kabel transportorida kabelni chuvatish.

Transheya bo‘rilishlarida burchak roliklar o‘rnatiladi. Barabandagi kabelni chuvatish uchun odatdagi kabi maxsus o‘qsiz yoki vintili domkratlarga o‘rnatiladi. Kabellarni chuvitishda kabel barabanini, baraban yon devoridagi strelkaga qarama-qarshi aylantiriladi. Kabellarni transheyaga joylashtirishda maxsus ZIL-130, ZIL-131 yoki ZIL-317 ruso‘mli avtomobillar qo‘llaniladi. Bunga kabel barabani bilan o‘rnatiladi, joylashtirish joyiga olib boriladi, keyinchalik, bevositaa dvigatel kabelni chuvatadi.




2.3-rasm. Domkratlarda ko‘tarib qo‘yilgan barabandan kabelni chig‘ir yordamida chuvatish.

Bu to‘rdagi dvigatellarda: kabelni barabanda isitish uchun generator, transheyadan suvni sug‘urib chiqarish uchun nasos, cho‘qurlarni shamollatish uchun ventilyator, kabellarni tortish uchun lebedka va bloklar o‘rnatilgan.

Kabellarni chuvatib joylashtirish baraban ko‘targich yordamida (baraban og‘irligi 3 tonnagacha), bu harakatlanuvchi kabel transportorida yoki quvur yotqizgichlarda bajarilishi mumkin.

SHuni esdan chiqarmaslik kerakki kabelni barabandan chuvitishda to‘xtatish (tormoznoy) moslamasiz ruhsat berilmaydi.


Ko‘mish. Talablarda [32,11] qayd qilinishicha, transheyaga yotqizilgan kabel birinchi qatlam to‘proq sepiladi, mexanik himoyali yoki ishora(signalnaya)tasma o‘rnatiladi, bundan keyin Elektr montaj va qurilish tashkiloti buyurtmachi vakili bilan birgalikda kabel yotqizilish yo‘lini ko‘zatib chiqishi va ochib ko‘rinsh ishlariga akt tuzilishi lozim.




2.4-rasm. Mexanik shikastlanishlardan g‘isht terib himoyalangan kabel transheyalarning o‘lchamlari va ularda kabellarni joylashtirish: a) – kabel bitta bo‘lganda; b) – kabel ikkita bo‘lganda; v) – kabel uchta bo‘lganda; g) – kabelto‘rtta bo‘lganda.

Transheyalar yuqori kuchlanish ostida sinov, ulanish muftalari o‘rnatilib zichlangach to‘la ko‘miladi. Transheyani mo‘zli toshli to‘proq, toshli to‘proq, metall bo‘laklariga o‘xshash narsalar bilan ko‘mishga ruhsat berilmaydi.


Kabellar mexanik harakatlardan himoyalaniishi uchun 35 kV va undan past kuchlanishlarda plita va oddiy g'isht bilan ko'ndalangiga bostiriladi. Silikatli, loy g'isht va teshikli g'ishtlarga ruhsat berilmaydi. Kabellarni 1-1,2 m cho'qurlikda shahar elektr tarmoqlarida yotqizilganida mexanik jarohatlardan himoya qilinmaydi. Kabel transheyalarini ko'mishda bo'ldozlar, surgichlar va zichlagichlar qo'llaniladi.




2.5-rasm. Kabellarni er osti transheyada (a) va beton bloklarida (b) joylashtirish



2.6-rasm. Kabellarni kanal to'rdagi estakadada joylashtirish.




2.7-rasm. Kabellarni joylashtirish: a) tonnelida; b) kanalda joylashtirish.




2.8-rasm. Tayanch konstruksiyalarda kabellarni jolashtirilishi.

2.1.3. Yuqori texnologik muftalar montaji

Termik kirishishli kabel muftalar. Kabel uchlarini trassada davomli yotqizilayotgan kabel uchlarini o'zaro, qurilma va uskunalarga ulash maqsadida termik kirishishli muftalar yordamida kabel uchlarini ajratib bajariladi. Kabellarning alohida bo'laklarini bir-biriga ulash, kabellarni ulash muftalari yordamida amalga oshiriladi. So'ngi muftalar KL boshlanishi va oxirida o'rnatiladi. 1 km. ga kabel liniyalari muftalarining soni, kabelning yaratilish uzunligi bilan aniqlanadi.



2.9-rasm. Qog'oz izolyasiyalı uch tolalı himoya qobig'ıdan ajratilgan kabelning umumiy ko'rinishi: 1-tok o'tkazgichli tolalar; 2-faza izolyasiyasi; 3-umumiy (belbog'li) izolyasiya; 4-zich pustlak; 5-zirh (bronya) osti; 6-po'lat tasmadan zirh; 7-tashqi himoya qoplama; 8-simli kamar; 9-iplardan kamar.



2.10-rasm. Bir tolalı himoya qobig'ıdan ajratilgan SPEkabelning umumiy ko'rinishi: 1- tok o'tkazuvchi tola; 2-yarim o'tkazgichli plastmassali ekran; 3-SPE izolyasiyalı; 4-yarim o'tkazgichli plastmassali ekran; 5-suvda bo'kadigan qatlam; 6-misli simlardan ekran; 7-tashqi himoya plastmassa qobiq; 8-simli belbog'.

Termikkirishishli muftalar afzalliklari. Kabellarni barcha xildagi joylashtirishlarida qo'llanilishi mumkin, (ishlatilish muddati 30 yildan kam emas)

ishlatilishida ishonchli, montajning oddiyligi ($\sim 6 - 10\text{kV}$ kuchlanishli kabellarni ulash uchun $\approx 2\text{s}$ va so'ngi muftalar uchun $\approx 1\text{s}$) bilan tavsiflanadi. Kabel liniyalarida muftalar montaji tugashi bilan, birdan kuchlanish uzatilishi mumkin.

Keng ko'lamli termik kirishishli muftalar bir nav o'lchamli muftalar xar xil navli va tola kesimlilari har xil bo'lgan kabellar uchun qo'llash imkonini beradi, bu esa omborda bir qancha navdagi zahira muftalarni saqlanish sonini sezilarli darajada kamaytiradi. Misol, faqat ikki navo'lchamli bo'tun keng ko'lamli kabellar tolasini kesimini qoplay oladi. $6-10\text{ kV}$ kuchlanishli taqsimot tarmoqlarida qo'llanilayotgan, (bir navo'lchamlisi $70-120\text{ mm}^2$ kesimlilar uchun qo'llanilishi mumkin, ikkinchisi- $150-240\text{ mm}^2$ kesimlilar uchun).

Termik kirishishli muftalar armato'rasi amaliy jihatdan eskirishga moyilligi yo'q va chegarasiz o'zoq muddat saqlanishi mumkin.

Termik kirishishli texnologik tayyorlanish prinsipi plastik xotira shaklli ko'ndalang tikilgan polimerlar asosida tayyorlanadi.


Termik kirishishli muftalar to'plamiga quyidagi elementlar (naychalar, englar (manjety), qopqoqlar, shlanglar va boshkalar) kiradi, cho'zilgan holatga keltirilgan, bu esa ularni ajratilgan kabel uchlariga (elementlarga) oson o'rnatish imkonini beradi. Propan-bo'tanli yondirgichda yoki qurilish fenida qizdirilganida bu detallarni va kabel elementlarini zich qoplaydi va ularning tashqi yuzalarini siqib kirishishadi va bu bilan berk zichlanish va mexanik mustahkam konstruksiyaga erishiladi. Kirishishi harorati $120-150^\circ\text{S}$ tashkil qiladi va bu kabel izolyasiyasiga havf tug'dirmaydi.

Muftaning ichki elementlari yuzalariga so'rinlgan maxsus elimlar va mastikali zichlagichlar ishonchli berk zichlanishini ta'minlaydi. Termik kirishishli elementlarni qizdirish bilan bir vaqtda erish yuzaga keladi va barcha bo'shliqlarni zichlagich materiallar oqib to'ldirilishi sodir bo'ladi.

Zichlagichli materiallar maxsus (ZnO) qo'shilma yarim o'tkazgichli xususiyatga ega va, shunday qilib elektr maydon muvozanatni to'g'rilaydi. SHu sababli yuqori kuchlanishli mintaqa elektr maydonnida (tolalar ulanish kontaktlarida, ekran qirqilgan joylarida) razryadlar sodir bo'lish imkoni yo'q.

2.11-rasmda bir tolali kabel termik kirishishli so'ngi uch muftalar montajining asosiy operatsiyalari keltirilgan.

Uch fazali so'ngi termik kirishishli muftalar montaji bir tolali kabellar muftalar montajidan farqqilmaydi. Uch tolali kabellar muftalarida termik kirishishli qo'lqoplar, ajratilgan uchchala faza kabel tolalariga kiritilib qo'llaniladi.




2.11-rasm. So'ngi termik kirishishli muftalar o'rnatilishi: a) - taqali ajratilgan (s nakonichnikom) kabel; b) - elektr maydonnini to'g'rilovchini, rostlagich naychalarni kirishishi; v) - tola englarini kirishishi; g) - shlang

kirishishini va erga zaminlagich o'tkazgichni o'rnatish; d) - so'ngi englar kirishishi; e) - belbog' englari kirishishi.

2.12-rasmda uch tolali kabelning termik kirishishli so'ngi muftasi keltirilgan;


2.13-rasmda uch tolali kabellarni ulash uchun termik kirishishli mufta ko'rsatilgan.

2.14-rasmda Uch tolali kabellarni termik kirishishli muftalarda ulash uchun asosiy operatsiyalar keltirilgan.



2.12-rasm. So'ngi termik kirishishli mufta: 1 - taqa; 2 - so'ngi eng; 3 - barmoq eng va tola naychasi; 4 - qo'lqop; 5 - elektr maydonni tekislash uchun rostlagich tasma; 6 - belbog' engi; 7 - erga zaminlagich o'tkazgichi.

2.13-rasm. Termik kirishishli ulash mufta: 1 - himoya qobig'i; 2 - tolalar boltli kontakt zulanishi; 3 - ulanish kontaktlarini izolyasiyalovchi eng; 4 - qo'lqop; 5 - faza naychasi; 6 - muftalar tanasini zichlash uchun eng; 7 - erga ulanish zanjir o'zlikisizligini ta'minlovchi, o'tkazgich.



2.14-rasm. Termik kirishishli ulash muftalar montaji: a) - tolalar naychalaaring kirishtirish; b) - rostlagich tasmasini o'ralishi; v) - qo'lqoplar kirishtirish; g) -tolalarni boltli zaminlagichlarda biriktirib va ularni plastinali rostlagichlar bilan o'rab biriktirish; d) - qoplama engini kirishtirish; s) - izolyasiyalovchi englarni kirishtirish; j) - shlangni kirishtirish; z) - erga zaminlagich o'tkazgichni mahkamlash va ekranli tasma bilan o'rash; i) - germetik tasmalarnio'rash; k) - himoya qobig'ini kirishtirish.

So'ngi muftalar erga zaminlagich o'tkazgichi va o'tkazgich muftalar to'plami bilan kiritilgan ulash muftalarida kavsharlanmagan erga zaminlagich tizimlari yordamida mahkamlanadi, va erga zaminlagich zanjiri o'zlikisizligini ta'minlaydi. Erga zaminlagich sim metalli kabelning qobig'i ekran bilan ulanishini zichlovchi tasma bilan yopiladi, bu ulanishni emirilishidan himoya qiladi.

Muftaning erga zaminlagich simlari qayishqoq mis simlardan tayyorlanadi. Bu simlar kesimi quyidagicha bo'lishi kerak:

- kabel tolalari kesimi 120 mm^2 gacha bo'lganida - 16 mm^2 ;
- kabel tolalari kesimi 240 mm^2 gacha bo'lganida - 25 mm^2 .

Termik kirishishli muftalarni montaj qilishda qo'rg'oshinli muftalarni kavsharlash, muftani bitum bilan to'ldirishlardagi ekologik zaharli operatsiyalardan xalos bo'lish imkoniyati yaratiladi. Termik kirishishda ekologik xavfli zaxar ajralish gazlari yo'q.


Sovo'q kirishishli muftalar montaji. Bu muftalar termik kirishishli muftalar barcha afzalliklariga ega. Bundan tashqari, sovo'q kirishishli muftalar montajida qizitish operatsiyasi zarurati yo'q, bu esa termik kirishishli muftalar montajiga nisbatan, sovo'q kirishishli mufta montaj vaqtini taxminan ikki martaga qisqartirish imkonini beradi.

Sovo‘q kirishishli mufta dastlab montaj bajarilishi davrida chiqarib tashlanadigan spiral ustiga tortib qo‘yilgan EPDM-rezinalardan tashkil topgan. Spiral ko‘rinishidagi ipni (kordani) chiqarib tashlashda muftalarning ikki tomonida maxsus qoldirilgan muftaning bo‘sh ipi osongina kirishishadi va bu kabelni to‘la berk zichlanishini ta‘minlaydi.

Mexanik ta‘sirlardan muftaning qalin devorlari qo‘shimcha himoya yaratadi. Bundan tashqari EPDM - rezina namlik ta‘siriga, kislotaga, ishqorga va ultrafioletli nurlanishiga bardoshli.

2.15-rasm. bir tolali kabel uchun sovo‘q kirishishli ulash mufta ko‘rsatilgan.

2.16-rasm. bunday ulanish muftalarining asosiy operatsiyalari ko‘rsatilgan.



2.15-rasm. Sovo‘q kirishishli ulash mufta: 1- ekstrudirlangan ikki qatlamli silikonli tana; 2- yarim o‘tqazgichli plastina; 3- EPDM -rezinali umumiy himoya qobiq; 4- elektr maydonni to‘g‘rilash uchun mastika; 5- zich berkishli mastika; 6- ulanish ekrani va mis simli to‘r; 7- biriktiruvchi gilza.



2.16-rasm. Sovo‘q kirishishli ulash muftalar montaji: a)-ulanadigan kabellar ekranini tayyorlash; b)- tolalarni bosimlab ulash; g)-kabel tolalari ulanish joylarni mufta bilan yopilishi; d)-muftaning ikkala tomonidan ham spiralli ipni sug‘o‘rinb olish; e)- kabelga kuchlanish o‘zatish uchun tayyor, mufta.

Termik kirishishli muftalar va sovo‘q kirishishli muftalar kabelning egiluvchanligini saqlaydi, davriy haroratlar o‘zgarishlarida shikastlanmaydi va aralash to‘proqli erlarda vaqt o‘tishi bilan yillar davomida bo‘zilmaydi. Muftalarning ko‘ndalang uzilish kuchi, o‘zish kuchining 60% ni tashkil qiladi. Bunday muftalarning to‘xtatgichli xususiyati shimdirilgan kog‘oz izolyasiyalikabellarning trassalarda qo‘shimcha sath balandligini oshirish ko‘lamini oshirish imkonini beradi.

2.1.4. Kabel liniyalarini belgilash va ishlatilishiga qabul qilish

Kabel tarmoqlari yo‘lida montaj ishlari tugatilgach ularni rejaga asosan ular koordinatalarini ishlatilayotganlari bilan biriktirish ishlari bajariladi. Agar yo‘l rejaga kiritilmagan bo‘lsa, uning ustidan aniqlovchi belgilari qo‘yiladi va ularga liniya bog‘lanadi. Agar kabel liniya bir necha parallel kabellardan iborat bo‘lsa, ularning har biri, shu raqamda bo‘ladi va qo‘shimcha harflar qo‘shiladi A,B, V va h. k. Ochiq yotqizilgan kabel liniyalari va ularning kabel muftalari belgilanishi cho‘p xat (berka) bilan ta‘minlanadi: kabel va uch muftalar cho‘p xatlarida- navi, kuchlanishi, ko‘ndalang kesimi, tartib raqami yoki liniya nomi; ulanish muftalar berkalarida – mufta tartib raqami va o‘rnatilish oyi, kuni, yilida o‘rnatilgani. Cho‘p xatlar atrof

muhit ta'siriga chidamli bo'lishi kerak. Tanib olish belgilarida yig'ma (paket) raqami ko'rsatiladi (misol PK-17) va kuchlanish belgisi – qizil rangda; qolganlari qora. Belgilarni plastmassalarda bajarilishi, qo'rg'oshin va alyuminli cho'p xatlarda mexanik qalam qo'llaniladi. Uni qo'llanilishi mexnik egovlash yo'li bilan mustahkam va aniq belgilanadi. Bu usul mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi (1 soatda 26-30 birka).

- o'lchash;
- so'ngi muftalarlar erga zaminlagich qurilmalar qarshiligini o'lchash;
- KL larni ishlatishga topshirishda qo'yidagilar tuzilishi va ishlatuvchi tashkilotga taqdimetilishi kerak;
- ishchi chizmalar to'plami bilan KL loyihasi;
- KL pasporti;
- ulanish muftalar o'rnatilgan joylari ko'rsatilgan va qo'zg'almas yo'nalishga bog'lab bajarilgan trassalar chizmasi;
- muxandislik inshootlari bilan kesishish joylari ko'rsatilgan KL yon tomon ko'rinishli chizmasi;
- montaj mintaqasida kabel keltirilganida barabandagi kabel holati haqidagi aktlar;
- kabel jurnali;
- KL ning barcha elementlari inventar hisob ro'yxati;
- er osti inshootlari bilan KL kesishishi ko'rsatilgan berk ishlar aktlari;
- kabel inshootlarida, bloklarda va transheyalarda kabellar montaj aktlari;
- kabel muftalar aktlari;
- izolyasiya qarshiligini o'lchash protokollari;
- kabel joylashtirilgandan keyin yuqori kuchlanishda KL izolyasiyasini sinash protokoli;
- transheya va kanallarda joylashtirilganda yopishdan oldin, kabellarni qarab chiqish aktlari;
- past haroratlarda kabellarni yotqizishdan oldin barabanlarda qizitish protokoli.

2.2. Kuch transformatorlar montaji

2.2.1. Tayyorlov ishlari

O'mumiy qurilish ishlari bajarilishida transformatorni o'rnatish joyiga, olibboruvchi er osti yo'llari, transformator tag fundamenti va moy qabul qiluvchi shag'al sepilib tayyorlanadi.

Transformator tag fundamentlarini qabul qilishda tortib mahkamlash qurilmalari uchun ankerlar borligi va ularning to'g'ri urnatilganligi va burush uchun surgichlar, domkratlar va tag fundamentlar borligi tekshirilishi kerak.

Tayyorlov ishlari bajarilish davomida etarli miqdordagi transformator moyi, uni saqlash uchun idish, termosifonli filtrlarni va havo qo'ritgichlar uchun indikatorli silikagen tayyorlab qo'yishi lozim.

1600 kV.A gacha quvvatli transformatorlar moy tuldirilgan va yig'ilgan holatda keltiriladi. Yirik quvvatli transformatorlar tashqi o'lchamlari va og'irligiga ko'ra qismlarga ajratilib, moy qo'yilgan yoki moysiz keltiriladi. Umumiy vazifali kuch transformatorlari tashqi ulchamlari quvvati va birlamchi kuchlanishiga ko'ra


etti turli gruxga taqsimlanishi (4.1-jadval) va 35-110 kuchlanishli sinfli bazi kuch transformatorlar xaqida ma'lumotlar(4.4-jadval) [7].

Junatilish og'irligi 90 t gacha bo'lgan transformator bo'laklari aloxida echilgan (kiritgichlar, kengaytirgichlar, radiatorlar, filtrlar va bosh.) holatda tashiladi. Yirik quvvatli transformatorlar tashqi o'lchamlari va og'irligiga ko'ra ajratilgan bo'laklarda, moysiz tashiladi, bundan tashqari transformator baki qo'rinq havo yoki inetrli gaz bilan tuldiriladi $0,1 \text{ kgs/sm}^2$ bosim ostida avtomatik ushlab turuvchi va etarlicha sonli siqilgan gazli ballonlar bilan jixozlanib to'plamlanadi, bu moslamalar 10 kun tashishga va keyingi saqlashda bosimni ushlab to'rinshga muljallanadi.

To'plamlangan ajraladigan bo'lak va detallar (rele, termometrlar va termosignal beruvchilar, qistirmalar va bosh.) idishda uralgan holda tashiladi. Katta ulchamli bo'laklar (radiatorlar, filtrlar, kengaytirgichlar va bosh.) uralmasdan lekin montaj boshlanishiga qadar, tashish va saqlashda ichiga nam tushishidan himoya choralari ko'riladi. Barcha ranglanmagan transformator detallarini uzoq vaqtga saqlab qo'yish uchun solidol yoki texnik vazelin bilan qoplanadi (konservatsiyalanadi).

Transformatorlarni temir yo'l transportida yoki etarli yuk ko'tarishli avtotransport platformalarida tashiladi. Transformatorlarni tashishda transformatorning katta o'qi harakat yo'nalishiga to'g'ri kelishi kerak. Tashishda transformatorlarni mahkamlash ishlab chiqaruvchi chizmalariga mos kelishi kerak.

Montaj maydonchasida transformatorlarni yuksizlantirish yuk ko'tarishi mos keladigan ko'tarish kranlarda va gidravlik domkratlar yordamida bajariladi. Transformator montaj maydochasiga qabulqilinganida transformator va



2.17- rasm. Transformatorning chiqarib olinadigan qismi:

- 1- YuK chiqishlari;
- 2 – yarmo to'sini;
- 3 – chulg'amlar;
- 4–chulg'amlar shaxobilanishini qayta zaminlagich;
- 5 – PK chiqishlari.

uning aloxida bo'laklari montaj qilishga qadar saqlash talab qilinadigan sharoit yaratiladi, dastlab laboratoriyalarda transformator rele himoyasi va uning ulchov asboblari tekshiriladi.

Tashishga oid barcha operatsiyalar, transformatorni yuksizlantirish va saqlashga mos keladigan aktlar bilan xujjatlashtiriladi.

2.2.2. Transformatorlarni montajga tayyorlash

35 kV va undan yuqori kuchlanishli nimstatsiyalarda, odatda, transformatorlar ochiq urnatilishi qo'llaniladi. Transformatorni berk urnatilishi faqat yuqori darajali iflosli tumanlarda qo'llaniladi, va yana, bazan shovqun darajisini

pasaytirish uchun aholi istiqomat qiladigan qurilish tumanlarida.

Odatda transformatorlarni, bevosita fundamentga aravachasiz va relssiz urnatiladi. Ko'chmas qurilmaga ega bo'lgan transformatorli nimstansiyalarda, transformatorlarni ta'mirlash uchun(ko'targichli) va tusiqli relesyo'lli, va yana nimstansiyada berk xonalarda transformatorlarni joylashtirishda, aravchalarga (so'rilgichlarga) urnatilishi kerak.

Transformotorni fundamentga urnatishda uning qopqog'i kengaytirgich tomon yo'nalishiga 1% ga ko'tarilgan bo'lishi lozim. Bu gazlarning tusiqsiz bakdan, moy o'zatgich bilan bak oralig'ida urnatilgan kengaytirgichdan gaz relesiga o'tishini ta'minlaydi.

Transformatorlarning aktiv bo'lagi namlanishini oldini olish uchun tekshirilayotganda ochiq havoda o'rnatilgan vaqtdan ortiqcha qolib ketmasligi kerak, ma'lum solishtirma havo namligidan aktiv bo'limlarini qo'rintmasdan tekshirganda, transformotorni ochishdan oldin, aktiv bo'laklar haroratini atrof muhitharorati bilan tenglashtirish uchun ma'lum muddatga saqlab to'rish kerak. Transformotorni gorizonta tekislik bo'yicha o'rnatiladi, ochishdan oldin zichlagichlar yopiqqligi tekshiriladi. (2.2-jadval).

Transformator chulg'amlari $\Delta S/S$ ning eng yuqori ruhsat etilgan ko'rsatgichlari

2.2-jadval

№ n/n	YUK kuchlanish chulg'ami	$\Delta S/S$ o'lchash	$\Delta S/S$, % da izolyasiya harorati, °S				
			10	20	30	40	50
1	63000 kV·A gacha quvvatli va 35kV gacha	Ish oxirida	13	20	30	45	75
2	Bu ham	Qiymatlar ko'rsatgichlari farqi ish oxiri va boshida	4	6	9	13,5	22
3	Quvvati 10000 kV·A va undan ko'p va 110 kV dan yuqori quvvatiga bog'liq emas	Ish oxirida	8	12	18	29	44
4	Bu ham	Qiymatlar ko'rsatgichlari farqi ish boshida va oxirida	3	4	5	8.5	13

Eslatma. $\Delta S/S$ qiymati transformatorning barcha chulg'amlariga qaraydi; ularni o'lchanish, 2.2 -jadvalda keltirilgan sxemaga ko'ra o'lchanadi.

Aktiv qismlarni chiqarishdan oldin quyidagilar bajariladi: moy sifatini sinash uchun olinadi; moyni idishga quyish boshlanadi; ko'rsatgichda (indikator)da silikogelholati tekshiriladi va idish tagida qolgan moyni elektr mustahkamlikka sinaladi; qog'oz – bakelitli silindrlar olib tashlanadi, 110 kV kiritgichlar uchun

transformatorbakida olib kelinganlarini tashishda mahkamlagichlar yig'iladi; dvigatel va qayta zaminlagich o'qlari chiqariladi; kontaktorlar chiqish uchlari o'chiriladi, kiritgich qisqichlar kontaktorlarning chulg'amulamalaridan, erlash aktiv bo'limlari idishga – hammao'chirgichlar uchlari bog'lab qo'yiladi, qopqoq yig'iladi, aktiv bo'lim ko'tariladi va maxsus maydonga o'rnatib quyilgan shpallar ustiga joylashtiriladi.

$\Delta S/S$ qiymati o'lchanadi tekshirish oxirida va bu ko'rsatgichlarni olish tekshirishning boshida va oxirida o'lchangan ko'rsatgich qiymatlari (4.3-jdval) ko'rsatilganidan oshmasligi kerak.


K₃ koeffitsent ko'rsatgichlar 2.3-jadval

$t_2-t_1, ^\circ S$	5	10	15	20	25	30	35	40	45	50
Koeffitsent, K ₃	1,25	1,55	1,95	2,4	3,0	3,7	4,6	5,7	7,0	8,8

2.2.3. Transformatorlar sovo'tish tizimi montaji

Transformatorlar sovitish tizimi $\pm 40^\circ S$ haroratda ochiq havoda ishlatishga mo'ljallangan.

Moyli erkin sovo'tiladigan - M, quvvati 1600 kVA gacha bo'lgan transformatorlar sovo'tish radiatorlari bilan birga tashiladi, quvvati 2500 kVA va yirik quvvatlilari - radiatorlari yig'ilgan holatda.




Majburiy havo aylanadigan D va havo va moy majbo'riy aylanadigan DS transformatorlar sovo'tish tizimlari tashilayotganda qismlarga ajratilgan holda tashiladi va transformatorni montaj qilish joyida o'rnatiladi (2.18-rasm).

D rusumli sovitish tizimlarini montaj (2.18-rasm,a) bakning 1yontomon tomoniga kronshteylarda 3 tortkichlar 4 bilan mahkamlanadi. Kronshteynlarga dvigatellar ventilyatorlar 2 bilan o'rnatiladi, ularning ta'minoti

sxemasi kabelda yig'iladi. Radiatorlar 6 o'rnatilgach radiatorlarga moy quyish uchun radiatorlar jo'mraklari ochiladi.

2.18-rasm. transformatro sovitish tizimi: a) – D to'rdagi sovo'tish; b)– DS to'rli sovo'tish: a) kronshteyn-3 bak-1yon tomoniga tortqich-4 lar bilan mahkamlanadi. Kronshteyn - 2 larga ventilyatorlar bilan dvigatellar o'rnatiladi, kabel-5 bilan ularning ta'minoti sxemasi montaj qilinadi. Radiator-6 lar o'rnatilib bo'lingach keyinchalik radiatorlarga moy quyish uchun jo'mraklari ochiladi. DS sovo'tish tizimi osma

holatda yoki ajratib yaratilgan holatda etqazilishi mumkin. Osmo sovo'tish tizimli bajarilgani (4.2-rasm, b) elektrnasos - 2, ventilyator dvigatellari - 4, diffo'zor - 5larga mahkamlangan, moy – 3 uchun kamera - 6 lardan iborat. Bunday tizim to'la yig'ilgan ko'rinishda etqaziladi. Montaj qilishda bu tizim transformotor baki – 1 bilan



gardishlar – 9 yordamida ulanadi. Moyning majbo'riy oqimi va havo oqimi transformotor ishlatilganida yo'nalishi 7 va 8 strelkalarda mos ravishda ko'rsatilgan.

DS rusumli sovo'tish tizimi osilgan va chiqarilgan ko'rinishda bajarilib etkazilishi mumkin. Sovo'tish tizimi osilgan qilib bajarilgani (2.18-rasm,b) elektr

2.19-rasm. Transformotor alohida bo'laklarini montaj:

kengaytirgich - 3 moyni ko'rsatgich-6 bilan transformotor qopqog'iga maxsus kronshteyn - 2 lar yordamida mahkamlanadi o'tkazgich quvur – 7 transformotor bakiga kyog'aytirgich bilan mahkamlanadi. Bu quvur o'zatgichning o'rta qismiga gaz relesi – 5 o'rnatiladi, bu quvur o'tqazgichning yuqori qismiga esa kengaytirgich tag gardishi ustiga moy sathi relesi o'rnatiladi.

nasos 2, dvigatellar bilan ventilyatorlar 4, diffo'zorlarda 5, mahkamlangan kaloriferlar 6, moy 3 uchun kameralar bilan mahkamlanganlardan iborat.

Bunday tizim to'la yig'ilgan ko'rinishda etkazib beriladi. Bu tizimni montaj qilishda transformotor baki 1 bilan gardishlar 9 yordamida ulanadi. Moyning majbo'riny oqimi va havoning oqimi transformotor ishlatilishiganda strelkalar 7 va 8ga mos keladi.

Ajratilib bajarilgan sovo'tish tizim bloklari alohida transformotor perimetri bo'ylab alohida fundametlarda o'rnatiladi va quvurlar bilan transformotor bakiga ulanadi.

Bir vaqtning o'zida sovo'tish tizimi va qolgan transformotordan alohida keltirilgan bo'laklar o'rnatiladi: chulg'amga kiritgichlar, kengaytirgich moy sathini ko'rsatgich va havoni qo'rintgich bilan, chiqarib yuborish quvo'rin, gaz relesi, moy sathi relesi, termosifonli filtr, uchov asboblari.

Agar montaj qilish shartiga ko'ra ayrim bo'laklarni o'rnatishda transformotorni zich berkilishi bo'zish talab qilinsa, izolyasiyani namlanishdan saqlashga rioya qilinishi zarur. Bu shartlar transformotorning aktiv qismlarini taftishi masalalarida yuqirida qayd etilgan.

Kiritgichlarni o'rnatishda asosiy diqqatni zichlagich qistirmalar sifatiga kiritgichlar transformotor qopqog'iga to'g'ri joylashishiga va chulg'amlar chiqishi bilan ishonchli kontaktli ulanishi ta'minlashi kerak.

Kengaytirgich 3 (2.19-rasm) moy ko'rsatgich 6 bilan transformotor baki qopqog'iga 1 maxsus kronshteynlar 2 bilan mahkamldanadi. Quvur 7 transformotor

bakini kengaytirgich bilan ulaydi. Quvo‘rning o‘rta qismiga gaz relesi 5, quvo‘rning yuqori qismiga esa kengaytirgich tubiga gardishlardagi moy sathini ko‘rsatgich relesi o‘rnatiladi.

Barcha qismlar montaji bajarib bo‘lingach transformatorbakiga qo‘riq moy sovo‘tishtizimi va termosifonli filtrlar tulganicha quyiladi. Bakka quyilayotgan moy harorati 10⁰S dan past bo‘lmasligi kerak. Moy bosim ostida transformator bakining past qismida o‘rnatilgan vintil orqali uzatiladi.

2.2.4. Transformatorlarni ishlatilishiga topshirish va qabul qilish texnikaviy hujjatlari

Kuch transformatorni ulashdan oldin [1,34] da keltirilgani kabi uni sinash, tekshirish va o‘lchash hajmda ko‘rsatilgandek olibboriladi.

Transformatorlarni topshirishda quyidagi texnikaviy hujjatlar qayd qilinadi:

1. Tayorlagan korxona texnik hujjatlar to‘plami, shu hujjatlar asosida Montaj ishlari bajarilgan;

2. Fundamentni montaj ishlariga qabul qilish akti;

3. Kuch transformatorlarini montajga qabul qilinish akti;

4. Transformatorni aktiv qismini tekshirmasdan ishga tushirishni aniqlash protokoli;

5. Transformatorni tekshirilgani haqida protokol (agar shunaqa ish bajarilgan bo‘lsa);

6. Izolyasiya tavsifini o‘lchash protokoli;

7. Transformatorni qo‘ritish protokoli (agar shunaqa ish bajarilgan bo‘lsa);

8. Transformator sovo‘tgichlari qurilmalarini yuvish va sinash protokoli (ATS, S radiatorlari, sovo‘tish tizimi);

9. Transformator moyini fizik – kimyoviy xossasini taxlili protokoli;

10. Gaz rele, moy sathi rele, RS-1000 rele, harorat ishoralari relesi va barcha o‘lchov asboblari laboratoriya tekshiruvi protokoli;

11. Ximiya jihozlari va transformatorlarni sinov protokoli;

12. Moy bosimi ustuni ostida transformatorga zich mahkamlangan zichligi sinov protokoli. Ko‘rsatilgan hujjatlarni: a) o‘rnatuvchi tashkilot pp. 1,2,7,8,12; b) sozlab-ishga to‘shirish boshqarma SITB (PNU) p 11; v) o‘rnatuvchi va rostlovchi tashkilotlar pp. 3,6) korxona (buyurtmachi) pp 9, 10.

Quro‘q va sovtolli transformatorlar o‘rnatilishi [18] da keltirilgan.

Nazorat savollari

1. Kabellar joylashtirilishidagi qo‘yiladigan talablar.

2. Kabellarni joylashtirishga tayyorlash.

3. Kabellarni joylashtirish turlari.

4. Kabellar uchlarini ulash mufta turlari.

5. Kabel liniyalarni ishlatishga qabul qilish hujjatlari nimalardan iborat.

6. Transformatorlarni montajga tayyorlash ishlari nimalardan iborat.

7. Kuch transformatorlarni montaj oldi tekshirish ishlarining bajarilishi.

8. Transformator qismlarini montaj qilish.

9. Transformatorlarni ishga topshirishga qabul qilish texnikaviy xujjatlari nimalardan iborat.

3- Ma'ruza


Nimstansiya kommutatsion apparatlari va uskunalari montaji

Reja:

1. Ajratgichlar montaji.
2. Bo'lgich va qisqa tutashtirgichlar montaji.
3. YUklamani o'chirgichlar montaji
4. Kam moyli o'chirgichlar montaji
5. Kam moyli o'chirgichlar kontaktlarining bir vaqtda ulanib – ajralishini rostlash.
6. O'lchov transformatorlar montaji.
7. Nochiziqli o'ta kuchlanishni cheklagichlar montaji.
8. Reaktivlar montaji.

3.1. Ajratgichlar montaji

YOpiq transformator nimstasiyalarida qo'llaniladigan (3.1-rasm) bir vauch qutbli ajratgichlar keltirilgan. Ularni boshqarishda qo'l bilan boshqariladigan elkali mexanizmlari ajratgicho'qi bilan po'lat quvur orqali, tortgichga ulanadigan PR-3 ruso'mli dvigatel qo'llanilishi ko'rsatilgan.




3.1-rasm. 6-10 kV kuchlanishli ajratgichlar: a – bir qutbli; b – uch qutbli; 1 – harakatlanuvchi pichoqlar; 2 – tayanch izolyatorlari; 4 – asos (rama); 5 – oshiqmoshiqli izolyatorlar; 6 – bo'rinluvchi o'q.

Ajratgichni montajdan oldin usta kamera ko'zatuvidan va tekshiruvdan o'tkaziladi. Farfor qismlarining holati (yoriq, siniq yo'qligi, sir, armirovka bo'tunligi, kontakt tizimi yaxshiligi, zanglash bor, yo'qligi) tekshiriladi. Aniqlangan nuqsonlar bartaraf qilinadi.

Ajratgichlarni montaj qilishda avtomobil ko'targichlar yoki boshqa ko'tarish mexanizmlar yordamida ustunlar tepa qismiga mahkamlangan ramaga uchchalaqutbtayanch izolyatorlari bilan o'rnatilib, og'masdan bir o'qda yotishi vertikal va gorizontol holatlari tekshirib rostlanadi.

10 kV kuchlanishlarga oraliq 3 mm dan ko'p bo'lmasligi kerak, 35 kV - 5 mm va 110 kV – 10 mm. Rostlash zarur bo'lganda pichoq harakati o'zatgich bo'limlari uzunligini dvigatelga nisbatan o'zgartirish kiritish bilan to'g'rilanadi. Kontaktlar zich

kirishi kalibrovkalangan 0,05 mm qalinlikdagi sinov qalamcha (shup) bilan tekshiriladi.




3.2-rasm. Ajratgichlarni boshqarish uchun dastakli dvigatel: a – PR-3 ruso‘mli bino ichida o‘rnatiladigan ajratgichlar uchun; b – PRN – 10M ruso‘mli tashqarida o‘rnatiladigan 6 – 10 kV kuchlanishli ajratgichlar uchun.

Tok keltiruvchi shinalarni ajratkichlar kontaktlariga ulanadi, shinalashdagi siqilishi o‘zgarishi, harorat o‘zgarishidan sodir bo‘ladi, shu tufayli bekiluvchi kuch izolyatorlarga uzatiladi.

Tashqarida ishlatiladigan RLND-35 ruso‘mli ajratgichlar (3.3-rasm) qutblari alohida yig‘ilgan holda korxonadan keltiriladi.

Ajratgich qutblari po‘lat quvurlar bilan tortgichlarga ulanadi, boshqaruvchi qutbo‘qiga payvandlash usuli bilan quvo‘rni dvigatelga ulanadi.




3.3-rasm. RLND-35 ruso‘mli ajratgich umumiy ko‘rinishi: 1 – asosi; 2 – o‘q; 3 – podshipnik; 4 – yerga zaminlagich pichoq; 5 – bo‘rinluvchi izolyator; 6 – egiluvchan aloqa; 7 – kontaktlari bilan yassi plastik kontaktli yarim pichoq; 8 – kontakt qobig‘i; 9 – yassi plastik kontaktsiz yarim pichoq; 10 – o‘q pishangi (richagi).


Har bir qutb kontakt bosimi quyidagicha tekshiriladi: o‘chirilgan ajratgich harakatsiz kontaktga pichoq bilan bir xil qalinlikka ega bo‘lgan mis shina kiritiladi, oraliqdan chiqishdagi tortilishi, kontakt kuchi dinamometr bilan o‘lchanadime‘yorli toki $I_n = 600A$ lilar uchun 160-180 N (16-18 kN) va me‘yorli toki $I_n = 1000A$ 180-200 N (18-20 kN). Erga zaminlagich pichoqlari bo‘lganida ularni rostlash kerak, qutbni erlash pichog‘i, dvigateldan eng o‘zoqda joylashgan, uharakatsiz kontaktiga ozgina ertaroq yaqinlashsin, cho‘nki o‘zatgichda doimo lyuftlar mavjud, shu sababli eng o‘zoqda joylashgan pichoq ulanmay qolishi mumkin.

Pichoqlarning bo‘rilish burchagi va chegaralovchi jihoz ta’siri tortgich uzunligini o‘zgartirish va chegaralovchi to‘siqni joyini o‘zgartirib rostlanadi.


Ajratgich to‘la ulanganida, pichoq bilan asosi orasida 5 - 6 mm oraliq qolishi kerak. Ajratgichlarning barcha qutblarining bir vaqtda ulanishi oraliq tortgichlar yoki qutblar tortgichlari uzunligini to‘g‘ri tanlash bilan ta‘minlanadi. Ajratgichning harakatlanuvchi kontaktning harakatsiz kontaktga nisbatan to‘g‘ri va noto‘g‘ri joylashish holatlari (3.4-rasm) ko‘rsatilgan. Ajratgich kontaktlari siqilib chiqish kuchini o‘lchash(3.5-rasmda) ko‘rsatilgan. Ajratgich dvigatellarining qo‘l bilan ishlatiladigan dvigatel-3 (PRZ) dastasining ulagan va ajratilgan holati (3.6-rasm).




3.4-rasm. Ajratgichning pichoqlari holatini harakatsiz pichoqlarga nisbatan tekshirish: a – noto‘g‘ri; b – to‘g‘ri; 1 – pichoq; 2 – harakatlanuvchi kontakt; 3 – o‘q simmetrikligi



3.5-rasm. Ajratgich pichoqlari sug‘irilish kuchini o‘lchash: 1 – pichoq; 2 – moslama; 3 – dinamometr; 4 – asos.



3.6-rasm. PR-3 dvigatel ajratgich ulangan va ajratilganida dastak holati: 1 – ajratgich ulangandagi dastak holatda; 2 – ajratgich ajralgan holatida dastak o‘qi; 3 – ajratgichga o‘zatgich



3.7-rasm. Ajratgichning sug‘irilib chiqadigan kontakti: 1 – egiluvchan aloqa; 2 – prujina; 3 – taxtacha (lamel); 4 – ko‘rak (lopatka)

Pichoqlar harakatini chegaralovchi to‘siqlarni o‘rnatilish joyini aniqlash uchun o‘zatgich oraliq bo‘laklarini «vklyucheno» va «otklyucheno» holatida rostlash zarur (sektordagi elka teshiklar va boshqa usullarda). Elkali dvigatel uchun dvigatel dastasi vertikal yuqorigi holatida 20-30° ga teng, va pastki holatida 5-10° bo‘lishi kerak.


Elkalarni dvigatellar o'qlariga va ajratgichlarga konussimon shtiftlarni teshiklariga kiritib mahkamlash bilan tugatiladi. Me'yori roslangan dvigatel engil, kam kuch bilan ulanishi va ajratilishi lozim.

3.1.2. Bo'lgich va qisqa tutashtirgichlar montaji

Bo'lgich va qisqa tutashtirgichlar montaji ko'p jixatdan tashqarida ishlatiladigan bo'lgich jihozlarini korxona ko'rsatmalariga muvofiq holda bajariladi 3.1-jadval.

Elegazli

Qisqa tutashtirgich KE-110 va bo'lgich OE-110/1000, (5.10,5.11-rasm).




3.8-rasm. Bo'lgich va qisqa tutashtirgich: a) – OD-110M ruso'mli bo'lgich yig'ilgan ko'rinishda; b) – KZ-220M ruso'mli qisqa tutashtirgich; 1 – izolyator; 2 – kontakt pichoqlari; 3 – oraliq o'zatgichi; 4 - ulab tortgich; 5 – richag; 6 – dvigatel; 7 – harakatsiz kontakt; 8 – ekran; 9 – ustun izolyatorlari; 10 – pichoq; 11 – izolyasiyalovchi ulama; 12 - tok transformatori; 13 - IKO izolyator; 14 – asos.

Harakatlanuvchi kontakt ulash mexanizmi bilan ulanadi.

Erga zaminlagich zanjiriga tok transformatorlari o'rnatiladi; ularning ikkilamchi chulg'amlari bo'lgichlarning dvigatelining relesiga ulangan. Ulanishdan oldin qisqa tutashtirgichning hamma qismlari tekshiriladi va tozalanadi.

Ishlab chiqaruvchi ko'rsatmasiga mos ravishda qisqa tutashtirgichning hamma qismlari oldin fundament yonida tekis yuzada yig'iladi. To'la yig'ilgan qisqa tutashtirgich avtoko'targichlar yordamida ko'tarilib fundament tayanchi ustiga mahkamlanadi. Keyin rostlash va qisqa tutashtirgichning barcha oshiqmoshiqli ulanadigan qismlari ko'rsatmaga ko'ra moylanadi. Bu ishlar tugatilgach tok transformatorlari erga zaminlagich shinasiga o'tkaziladi (o'rnatiladi).



3.10-rasm.OE-110/1000 yopiq elegaz to'ldirilgan bo'lgich: 1 – yuqorigi gardish; 2 – harakatsiz kontakt; 3 –ekran; 4 – kontakt prujinasi; 5 – harakatlanuvchi kontakt; 6 – izolyasiyalovchi ustun; 7 – moyli tug'on eshigi (gidrozatvor); 8 – asos; 9 – dvigatelga tortgich; 10 – bufer; 11 – manovakuummetr; 12 – harakatsiz kontaktga tortgich.

Ajratgich, qisqa tutashtirgich va bo'lgichlarning texnik ko'rsatgichlari (3.15-jadval) [7] ko'rsatilgan.

Ajratgich, bo'lgich va qisqa tutashtirgichlarning umumiy montaj texnologiyasi (3.1-jadval), keltirilgan. Harakatlanuvchi kontaktlarni harakatsiz kontaktlardan me'yoriy, tortilish kuchi (3.18-jadval) [7] keltirilgan.

Ajratgich, bo'lgich va qisqa tutashtirgichlar montaj texnologiyasi 3.1. Jadval


Operatsiya	Bajarilishi
1	2
Hamma qismlarni qarab chiqish	Pichoqlar taxtachasi(plastinalari) tekshiriladi, bukilgan erlar to'g'rilanadi. Izolyatorlar yuzalari bo'tunligi, armirovka choklarida va ularning himoya qoplamalari zarb emaganligi teshiriladi.
Pichoqning markazlash-gani tekshiriladi	Pichoqni harakatlantirib yoki harakatsiz kontaktli izolyator ustidagi lyutlar hisobiga pichoqning bir o'qda harakatsiz kirishi (yon devorga o'rinishsiz).
Kontaktlar prujinasini tekshirish	Prujinalar siqilgan va bo'sh holatida, qarab chiqiladi. Prujinani pichoqning ikki tomonida ham bir xilligi ta'minlanadi. Siqilgan holatda o'ramalar oralig'i 0,5 mm dan kam bo'lmasligi kerak.
Kontaktlar siqilishini tekshirish	Harakatsiz kontaktdan tortilish kuchi o'lchanadi. (3.2- jadval).
Kontaktlar yuzasini tekshirish	Pichoqlarning harakatsiz kontaktlarga zich kirishi tekshiriladi. Kontakt yuzalarito'g'rilanadi, qo'polnuqsonlar natfelda tekislanadi, tozalanadi va yog' so'rinladi.
Apparatni to'g'rilash	Boshqa apparatlarTQ (RU) bilan sathi va vertikal holati, bir o'qda yotishi va har bir qutbo'zaro va dvigatel bilan birga to'g'rilanadi. Ikki ustunli ajratgichlarda yarim pichoqning kontaktlarga kirishi asosida shaklo'zgarishi yo'qligi ko'rsatgich hisoblanadi.
Elkalarni apparat o'qlariga va dvigatelga Montaj	Rostlash davrida elkalarni to'xtashi boltlari bilan vaqtinchaga mahkamlanadi, tortgichlar yordamida dvigatel bilan apparat tutashtiriladi. Ishlab chiqaruvchi korxona ma'lumotlariga asoslangan holda elkalar uzunligi va ularning burchaklari o'rnatiladi.
Apparat qutblarning bir vaqtida ulanishini tekshirish	Apparatning har bir qutbining oraliq ajratgichlari yoki tortgichlar uzunligini o'zgartirish yo'li bilan rostlanadi; ajratgichlarda vaqt farqlari 10kV-3mm, 35kV-5mm, va 110kV-10mm dan ko'p bo'lmasligi kerak
Pichoqlar bo'rilishi burchagini tekshirish	Ishlab chiqargan korxona ma'lumotlariga ko'ra, chegaralovchi to'siqlar siljutilib va tortgichlar uzunligini kerak bo'lsa o'zgartirib rostlanadi. Ruhsat etilgan og'ish +3%
Ikki ustunli ajratgichda kontaktlar kirishini tekshirish	YArim pichoqlardagi va ular asosidagi izolyatorlar podshipniklaridagi lyuftlar hisobiga rostlanadi, o'rta holatdan yarim pichoqlar o'tishi 5mm, uchlari oralig'i 3mm dan ko'p bo'lmasligi lozim.
Apparat va dvigatel o'qlari elkalari	Dvigateldan apparatni o'lchovchi oralik oralik kismlarini rostlanishi. Dvigatel chegaralovchi "vklyucheno" va "otklyucheno" apparat holatiga to'g'ri kelishi kerak natijaviy maxkamlanish. Konusli shtif tagidagi teshigi silindrik bilan shtif tagidagi teshiladi. Tortgich shakl o'zgarishini cheklanishini, tizimlar titrashini, kirishinib kyotishini va natijada plita kiyshayib ketmasligini ta'minlaydi; ulash va ajratish bir kin bilan engil bajarish imkonini beradi.

3.1.3. Yuklamani o'chirgichlar montaji

YUklamani o'chirgichlar ishlab chiqarish korxonalidan yig'ilgan va rostlangan holatda keltiriladi, montaj maydonchasida tashqi bo'tligi sinchiklab tekshiriladi. O'chirgichni dvigatel bilan ulanishi (po'lat quvur ichki diametri $d=19$ mm)ga erishiladi, bu o'chirgich ulanganda harakatdagi elka «v» tortgich dvigatelo'qiga nisbatan tasir qiluvchi «a» elkadan katta bo'lishi dvigatelga nisbatan 2,5 marta katta bo'lishi kerak, (3.11-rasm). Dvigatelga ulangandan keyin barcha o'chirib ulashlar faqat dvigatel orqali bajariladi. YUritmao'qi 70^0 ga aylanganida pichoqlar bo'rilishi 50^0 ni tashkil qiladi va yoy so'ndirish kontaktlar kamera ichida 160 mm ga siljishi kerak.

O'chirgichlar kontaktlari bilan metall ramaga mahkamlanadi, pastki qismiga elektrmagnitli dvigatel joylashtiriladi. YUqoridagi o'tuvchi izolyatorlarga harakatlanmaydigan asosiy va yordamchi kontaktlar va magnitli purkagich yoyni so'ndirish kameralari mahkamlanadi. Pastki izolyatorlarda harakatlanuvchi kontaktlar dvigatel va o'chirgich o'qiga izolyasiyalangan tortqichlar vositaasida o'rnatiladi.

YUklamani o'chirgich, ajratgich kabi, faqat tok yuklamasini o'chirish uchun 6kV da 400A gacha, 10kV kuchlanishlarda 200A gacha tokni o'chirishga moslashtirilgan. YUklamani o'chirish qurilmalarini avtogazli o'chirgichlar - ataladi, chunki so'ndirish bo'lma o'zi avtomat ravishda gazlarni generatsiyalaydi va elektr yoyi so'nish imkonini yaratadi.



3.11-rasm. YUklamani o'chirgichlar: a – VN-16; b – VNP-16; v – yoy sindirish jihozi; 1 – rama; 2 – izolyatorlar; 3 – yoy sindirish kameralari; 4 – harakatlanuvchi kontaktlar pichoqlari; 5 – izolyasiyalangan tortgichlar; 6 – o'q; 7 – harakatsiz kontaktlar; 8 – yoy sindirish kameraning buyinchalari; 9 – joylashtirgichlar; 10 – kontaktlar ustunlari


Barcha yuklamani o'chirgichlar tayanch ramada yig'iladi. Tok o'tkazuvchi tayanch izolyatorlarga o'rnatiladi. VNz va VNPz o'chirgichlar to'plamli erga zaminlagich pichoqlar bilan ta'minlangan va ularni qo'shishga yontomon plastinalar yordamida o'chirgich ramaga o'rnatiladi. VNP va VNPz o'chirgichlar saqlagichlari yarim rama (qisqich) ga o'rnatilgan. YArim ramani o'chirgich ramasiga boltlar yordamida erga zaminlagich pichoqlarga qarama qarshi tomondan mahkamlanadi. Bu o'chirgich yuqori qismiga yoki shunday ko'yinishda pastiga o'rnatilishi mumkin. O'chirgichning knematik tizim pishanglari asosiy pichoqlar ulanganda erga zaminlagich pichoqlar ulanishiga yo'l qo'ymaydi va teskarisi, ya'ni asosiylari o'chgandagina erga zaminlagich pichoqlar ulanadi.

YUklama o'chirgichlari o'chirilishi PR-17 dvigatelda qo'lda yoki PRA-17 da qo'lda yoki avtomatik ravishda dvigatel orqali erkin ajratgich mexanizmni boshqarish rele himoyasida masofadan yoki tugmacha orqali joyida o'chirish amalga oshiriladi.

YUklamani o'chirgichlar qat'iy vertikal o'rnatilishi kerak. Vertikallikdan og'ishi va engashishiga yo'l qo'yilmaydi. Ramaga o'rnatib va mahkamlab bo'lingach pichoqlarning yoy so'ndirish bo'lmal oraliqlarga kirishi va ishqalanmasdan ulanishi, mexanizmning ishlatilishini tekirishga kirishiladi.

Ishga tushirishdan oldin hamma mexanik tavsiflar ma'lumotlari o'chirgichni harakatga keltirish yo'li bilan sinaladi. Buning uchun yuritmada masofasiz 25 marta qo'lda o'chirib va 25 marta masofadan ulab -o'chirish operatsiyalari bajarilib tekshiriladi (qo'lda va avtomatli dvigatelda masofadan o'chirib qo'lda ulash). Bunday rostlashdan keyin izdan chiqish sodir bo'lishi mumkin emas.

YUklamani o'chirgichlar o'rnatilishi ajratgichlarniki bilan bir xil.



3.12-rasm.6 va 10 kV kuchlanishli VNP-17 ruso'mli yuklamani o'chirgich: 1 – tayanch izolyatorlar; 2 – pichoq; 3 – yoyni sindirish moslama; 4 – farforli tortgich; 5 – saqlagich patroni; 6 – o'chirish prujinasi; 7 – dvigatelga ulanish richagi; 8 – tayanch rama; 9 – xoxlagan uch qutbning birortasida saqlagich ko'rganida o'chirgichni o'chirish moslamasi; 10 – o'chirish elektrmagniti.

Kontaktlar va yuritmani tekshirish:

-yuritma bilan apparat ulovchi qism oraliqlari rostlanadi. YUritma harakatini chegaralovchi natijaviy mahkamlanishi “vklyucheno” va “otklyucheno” apparat holatiga to'g'ri kelishi kerak.

Apparat va yuritma o'qlari pishanglarini tekshirish:

-konusli shtift tagidagi rozetka keyingi teshigi silindrik burg'ichda teshik teshiladi. Tortgich shaklo'zgarishi cheklanishi, egilib ketmasligi ta'minlanadi; ulash va ajratish bir qo'lda engil bajarilish imkonini berishi kerak.

3.1.4. Kam moyli o'chirgichlar montaji

Kam moyli o'chirgichlar montajida quyidagilar amalga oshirilishi kerak: o'chirgichlarni sinchiklab qarab chiqish, chang va ifloslardan tozalash, dvigatellarni tekshirib chiqish, zich berkligini, zichlama qopqog'ini, jo'mrakdan moy oqmasligini, o'chirgichning sirpanib ishlovchi qismlarining moylanishini va dvigatelni yuqorida qayd etilgan qismlari qarab chiqiladi va topilgan nuqsonlar ketma-ket bartaraf etiladi. O'chirgich qismlari va metall tizimlari bo'yalgan sirtlarini zarur bo'lsa, qayta bo'yoq beriladi, o'chirgichning ulanishnuqtalari zichligini tekshirish kerak bo'lsa yanada maxkamroq tortib qo'yish va ishlash joylarini ham ulanganligini tekshirish va ikkilamchi zanjir komo'tatsiyasini; xarakat ishorasi berilishini tekshirish sinab ko'rish kerak. Uchchala qutb silindr va xarakatlanuvchi kontaktlar ramaga bir o'qda o'rnatiladi, silindr oraliqlari tekshirib chiqiladi. Hamma qismlar o'rnatib maxkamlangach, harakatlanuvchi o'zakni kontakt harakati tekshiriladi, uning xarakati to'siqsiz va qarshiliksiz qo'zg'almas kontaktningo'rtasiga, o'zak to'g'ri kirishi kerak. Bu operatsiyalar bajarilgach (ulanganda), harakatlanuvchi kontakt qancha siqilib kirishi va bosimi tekshiriladi. Keyingi operatsiya kontaktlar ajralgandagi masofa o'lchanadi, bu o'lchamlar, korxona ko'rsatmasidagidan ± 2 mm ga farq qilishi mumkin.

Dvigatel tortgichlariga ulanib elektr dvigatel orqali tekshiriladi va barcha o'lchamlar oldingilaridan farq qilmasligi kerak. Kam moyli o'chirgich so'rib chiqariladigan aravachaga o'rnatilgan bo'lsa chiqarishda silliq so'rib chiqishini va xonachaga kiritilganida kamerada o'rnatilgan kontaktlarga o'chirgich silindrlarida o'rnatilgan tashqi yuqori va pastki shinadagi labli kontaktlar bir chiziqli o'qda joylashgan bo'lishi kerak, agar boshqacha bo'lsa u holda rostlash ishlari bajariladi.

3.1.5. Kam moyli o'chirgichlar kontaktlarining bir vaqtda ulanib-ajralishini rostlash

Montaj ko'rsatmalarida kontaktlar ulanib-ajralishi bir vaqtda bajarilishini tekshirish qayd qilib o'tilgan.

Ko'rsatmada kontaktlarning bir vaqtda ulanib-ajralishi quyidagicha ko'rsatmaga ega :

- a) VM ruso'mli idishli o'chirgichlar uchun o'tkazilishi kerak;
- b) MGG ruso'mli o'chirgichlar uchun, bunaqangi rostlash ta'qiqlanadi.

SHunga asosan, o'chirgichlar kontaktlarning bir vaqtda ulanib-ajralishi faqat VM ruso'mli o'chirgichlar uchun qo'llanilishi ko'zda to'tilgan. SHunga ko'ra o'chirgichlarning kontaktlari bir vaqtda ulanib-ajralishi na faqat har bir faza uchun emas balki har bir faza alohida bir-biriga nisbatan ham rostlash ishlari olib borilishi zarur.


Barmoqsimon kontaktlar tugunida, barmoqlardagi bosim dinamometr yoki yuk osish yordamida o'lchanadi, (3.13,a- rasm). Dinamometr tortish kursagich hisobi

harakatsiz va xarakatlanuvchi kontaktlar oralig'iga o'rnatilgan yupqa qog'oz tushib kyotishi bilan aniqlanadi.

Rozetkasimon kontaktlar tugunidagi bosimni rozetka sigmentini, xarakatlanuvchi kontakt o'zagi diametriga to'g'ri keladigan holatga keltiriladi va harakatsiz kontaktlar oralig'iga o'rnatib bosim o'lchanadi. Oraliq esa quyidagicha tekshiriladi: o'chirgich ulanadi, keyin harakatlanuvchi kontakt o'zak tortgichdan yig'iladi va uni harakatsizkontakttubiga tekkuncha tushiriladi, va shu holatga to'g'ri keluvchi o'zak yuzasiga belgi chiziladi, o'zak ko'tarilib, tortgich bilan ulanadi, va bu holat ham belgilanadi. Belgilar orasidagi masofa to'g'ri keladigan oraliqqa to'g'ri keladi.

CHO'tkali kontaktlar va o'qlari bosimi, kontaktlarning ikki uchiga o'rnatilgan dinamometrlar bilan o'lchanadi. 3.13,v,g- rasm.

Kontaktlar zich o'rinishi 0,05x10mm qalinlikdagi shup bilan nazorat qilinadi. U 4mm.dan ko'p bo'lmagan cho'qurlilikka kirishi kerak. YUzalar tegishi maydoni bo'tun kontaktlar maydonining 70% dankam bo'lmasligi kerak.



3.13-rasm. I - kontakt tugunlarida bosimni aniqlash va II - o'chirgich kontaktlari qarshiliklarini ampermetr-voltmetr usulida o'lchash usuli: I. a) – barmoqsimonlarda; b) – rozetkalilarda; v) – yontomonlilarda; g) – cho'tkalilarda; 1 – harakatsiz kontakt; 2 – harakatlanuvchi kontakt; 3 – dinamometr; 4 – kontakt bosimini o'lchash uchunmoslama; 5 – yordamchi pona; II. 1 – akkumulyator; 2 – reostat; 3 – asbobni qayta zaminlagich; 4 – rezistor; 5 – asbob shunti; 6 – moyli o'chirgich.

Kontaktlarning o'chiruvchi qarshiliklari o'chirgichlarning zaro'riy tavsifi hisoblanadi, shuning asosida kam moyli moyli o'chirgichlar ishga yaroqli yoki yaroqsizligi aniqlanadi, va ko'p hollarda montajda bir necha bor qutblarni tarqatib qayta-qayta nazorat ishlarini bajarishga to'g'ri keladi.


O'chirgichlar kontaktlari bilan metall ramaga mahkamlangan, pastki qismiga elektrmagnitli dvigatel joylashtirilgan. YUqoridagi o'tuvchi izolyatorlarga

harakatlanmaydigan asosiy va yordamchi kontaktlar va magnitli purkagich yoyni so'ndirish bo'lmalari mahkamlangan. Pastki izolyatorlarda harakatlanuvchi kontaktlar dvigatel va o'chirgich o'qiga izolyasiyalangan tortqichlar vositasida joylashtirilgan.

3.2. Nimstansiya uskunialar montaji

3.2.1. O'lchov transformatorlar montaji

O'lchov asboblari, apparatlarni, rele himoyasi va avtomatikasini yuqori kuchlanish zanjiriga to'g'ridan-to'g'ri va 1kV gacha kuchlanishli katta toklarga ulash texnik sabablarga ko'ra va texnika xavfsizligi bo'yicha ulash mumkin emas. SHu talablarga ko'ra tok va kuchlanish ko'rsatkichlarini o'lchashda o'lchov transformatorlarini qo'llash mo'ljallangan. Bundan tashqari o'lchov transformatorlar orqali, o'lchov asboblari va himoya apparatlarini va avtomatlashtirish, o'lchash, taqsimlash qurilmalarini va nimstansiyalarni masofadan boshqarish imkonini yaratadi, va bundan tashqari, o'lchov va himoya asboblarning arzon bo'lishiga, kichik 5 A tokka va 1 kV danpast kuchlanishga tayyorlash imkonini beradi. O'lchov asboblari katta toklarga yaratilishi va yuqori kuchlanishlarga tayyorlash maqsadga muvofiq emas, bu konstruktiv tuzilish tomonidan bunday asboblari qo'pol, katta, noqo'lay va qimmatga tushadi. YUqorida qayd qilinganlar asosida o'lchov transformatorlari etektr tarmoqlarida ularning qo'llanishi birqancha maqsadlarda: o'lchov, hmoya, nimstansiya uskunalarini, kabel liniyalarini, havo liniyalarini masofadan boshqarish va boshqa vazifalarni muvafaqiyatli amalga oshirda qo'llaniladi.



3.14-rasm. Kup uramli tok transformatori: 1 –to'g'ri burchakli shixtalangan magnit o'tkazgich; 2- ikkilachi chulg'am; 3 – birlamchi chulg'am; 4 – TT ning barcha qimslalri epoksidli kompaund qo'ymasida; 5 – birlamchi chulg'am uchlari kotaktlarga chiqarilgan; 6 – ikkilamchi chulg'am uchlari kontaktlarda.

Montajdan oldin o'lchov transformatorlarida, montaj oldi tekshiruv ishlari olib boriladi. Pasport ko'rsatkichlariga to'g'ri kelishi, farforli izolyatorlarning va ularning armirovkalari darz ketmagan bo'tunligi, nafas olish qurilmalarnuqsonlari hisobga olinadi; moyning balandlik sathi va oqmayotgani tekshiriladi; chulg'amlarning elektr qarshilik izolyasiyalari yuqori va pastki kuchlanishdagilarini o'zaro va tanaga nisbatan o'lchanadi; chulg'amlar bo'tunligi va transformatorlar koeffitsenti


tekshiriladi. Tok transformatorlarining qutblari va ikkilamchi chulgʻamlar uchlarining markalanganiga toʻgʻri kelishi tekshiriladi.

Oʻlchov transformatorlarining 6 kV va undan yuqori kuchlanishlilari atrof muhit harorati 25^oS boʻlganida 6 MOm past kuchlanishlilari chulgʻamlari oʻzaro va tanaga nisbatan, 50 MOm dan yuqori va past kuchlanish chulgʻamlar oraligʻida, va yuqori kuchlanish chulgʻam va tanaga nisbatan kam boʻlmasligi kerak. Keltirilgan maʼlumotlar tavsiya qilinadigan - hisoblanadi, amaliyotda esa EQOʻQ daoʻlchov transformatorlarning chulgʻamlarining izolyasiyasi qarshiligi miqdori meʼyorlashtirilmagan.

Oʻlchov transformatorlarni montaj qilishda ular tayanch konstruksiyalarustida vertikal va gorizontaal urnatilishi taʼminlangan bulishi kerak.

Oʻlchov transformatorlarni qoʻritmasdan ishga tushirish mumkinligi quyidagi maʼlumotlar bilan aniqlanadi:

Oraliqdan oʻtuvchi (perexodnoy) qarshilik toʻrli transformatorlar uchun, 1,5 kA va undan yuqori hisoblangan meʼyorli toklarda, temir-beton plitalari ichida poʻlat tayanch konstruksiyada yopiq zanjir hosil qilishini tekshirilishi kerak. Burchaklarda bir faza atrofida oʻlchamli nomagnit materialdan ulanishli boʻlishi kerak (yoki ularsiz-shu joyning oʻzida).




3.15. Rasm. 6 - 10 kV kuchlanish transformatori: a – bir fazali, b – uchfazali; 1 – bak; 2 – YUK chulgʻamlar chiqishlari; 3 – YUK izolyatori; 4 – PK chulgʻamlarchiqishlari; 5 – erga zaminlagich bolti; 6 – moy qoʻyish uchun tiqin; 7 – moyni tukish uchun tiqin

Kuchlanish transformatorlar montajida, xavsizlikni hisobga olgan holda birlamchi va ikkilamchi chulgʻamlaroʻzaro bir-biri bilan qisqa tutashtirib mahkamlab qoʻyiladi, chunki vaqtinchalik simlar bexosdan chulgʻamlarga tegib ketishida, yoritgichlar, payvandlash apparatlari, ajratgichlar, uchashlarda teskari transformatsiya hosil qilishi mumkin, va bu inson xayotiga xavfli kuchlanish paydoboʻlishiga olib keladi.

3.2.2. Nochiziqli oʻta kuchlanishni cheklagichlar (UKCH) montaji

Nochiziqli oʻta kuchlanishlarni cheklagichlar (UKCH) oʻzgaruvchan 50 Gs chastotali neytrali izolyasiyalangan elektr qurilmalarni atmosferali va kommutatsiya oʻta kuchlanishdan himoya qilishga moʻljallangan. Neytrali erlanmagan kuch transformatorlarning neytraliga, himoyalash sifatli bajarilishi uchun maxsus holatda UKCH ajratgich bilan birga erga parallel ulanib yashin chaqnashida oʻta

kuchlanishidan himoya qiladi. 3.16-rasmda. Nochiziqli o'ta kuchlanishdan cheklagich qurilmaning qirqimi keltirilgan;



3.16-rasm. a) Dervasil firmasi ishlab chiqarayotgan polimer belbog'li UKCH konstruksiyasi: 1-silikogen rezinali izolyasiya; 2-silikogenli naycha; 3-UF-nurlanishga, ishlab chiqarish, atrof muhit ifloslari va yog'ingarchilikka chidamli silikogenli rezina; 4-qayishqoq qistirma varistorlar atrofida kontakti ta'minlaydi; 5- UKCH tamg'alanish joyi. b) UKCH ning qirqimli ko'rinishi: 1 – chezaralagichning po'lat qisqichi, 2- alyumin qalpoqcha, 3- chezaralagich bloki, 4- shishali inkapsulyasiya, 5- polimerli tana, 6- metalli elementlar oksidi (sink oksididan varistorli blok), 7- issiqlik siljishi (chezaralagichning issiqlikdan tezlanish hodisasi).

UKCH razryadniklarga nisbatan bir qarat himoya tavsif afzalliklariga ega: yuqori nochiziqli rezistorli, shaklli yoki berk zich shisha plastika qobiqli apparatdan iborat. Ular izolyasiyal ustun sifatida qo'llanilishi mumkin. 6-10-35-110-220-500 kV HL larni o'ta kuchlanishdan chezaralagichlar, agar apparat ichki bosimi nuqsonlari sababli kuchlanish oshganida, bosimni chezaralagichdan chiqarib yuborish uchun moslamalar bilan jihozlanadi.

Kuchlanish, o'ta kuchlanganida UKCH ishlatilishiganini qayd qilish va tok o'tkazuvchanligini o'lchash uchun, neytrali erdan izolyasiyalangan tarmoqlarda hisoblagich moslamalar bilan birga qo'llaniladi.

UKCH ni motajga tayyorlash. UKCH to'rli chezaragichlar montaji chezaralagichlar ishlab chiqarish korxonalarida kameralarga joylashtirilgan holda jo'natiladi, ularni gorizontal joylashtirilgan holda tashilishi kerak, chezaralagichning uchqunli elementlari vertikal holatda bo'lishi zarur. Tashish davrida yuklash va yuksizlantirishda kameralar yuzasidagi belgilariga binoan, extiyotkorlik bilan farforli qobiqlarni shikastlantirmasdan tashish ishilarini bajariladi. UKCH ni elektr qurilmaga montajda (birinchi o'rinda) EQO'Q talablariga ko'ra izolyasiya oralig'i va ularning umumiy yuqori kuchlanishli elementlari ruhsat berilgan masofada bo'lishi zarur.

35 kV dan yuqori kuchlanishli elektr qurilmalarda UKCH ni maxsus supalarga va ulanishi maxsus shinadan tushirilgan ko'prikkaga yoki yuqori kuchlanishli himoyalovchi apparatga kommutatsion apparatlarsiz ulanadi.

UKCH ning asosiy Montajidagi elementi-erga zaminlagich jihozga ulash (UKCH ni faza-er ulanganida). Faqat ishonchli erga kam qarshilikli kontakt ulanish me'yorli himoya darajasini ta'minlaydi.

UKCH ni erga zaminlagich jihozga ulash uchun maxsus chiqishga ega bo'lishi kerak.

UKCH ning metalli mahkamlanish armato'rasi, UKCH asosi erga zaminlagich o'tko'zgidlar o'rnini bosaolmaydi.

Zamonaviy nochiziqli o'ta kuchlanishdan cheklovchi jihoz UKCH lar, UKCH ichki jarohatlanish holatida, chiqarib yuborish elementlari bilan jihozlangan, UKCH lar ishlatilishida o'rnatilishi, chiqarib yuborish va shiddatli gaz oqimlari boshqa elektr qurilmalar elementlariga o'tib ketmasligi kerak.

3.3. Reaktorlar montaji

Reaktorlarni montajdan oldin tekshirishdan o'tkaziladi. Izolyasiya va ustunlarida nuqsonlar (yoriq va singan erlari) laklangan ustun yuzalarida buzilish bo'lmasligi kerak; atrof-muhit harorati 15-20 °S da izolyasiya qarshiligi 50 MOm RB-6 va 100 MOm RB-10 ruso'mli reaktorlar uchun ko'satilganidan kam bo'lmasligi kerak. Agar o'lchangan izolyasiya qarshiliklari ko'rsatilganidan kam bo'lsa, u holda ularni ishlab chiqargan korxona pasport malumotlari bilan taqqoslash zarur; o'lchangan izolyasiya qarshiligi ishlab chiqargan korxona o'lchagan haroratdagi izolyasiya qarshiligini 70% dan kam bo'lmasligi talab qilinadi.

Reaktor kuchli magnit maydonni tashkil qilishi mumkin, shu sababli bir necha to'rdagi himoya usullari qo'llaniladi:

Reaktorning eng chetki bo'linmasi ichidagi po'lat tuzilishgacha bo'lgan oraliq (konstruksiya) reaktor diametrining yarmidan kam bo'lmasligi kerak; po'lat tizimi va o'tkazgidlar yopiq zanjir qilmasligini ko'zatish zarur; tayanch izolyatorlari nomagnit materiallar bilan suvoq qilinadi (armirovkalanadi), kontaktlar bolti nomagnit po'lat va latundan tayyorlanadi va mahkamlanadi.

Reaktor izolyasiya qarshiligi qiymati kam bo'lganida issiq havo purkovich yordamida olovbardosh kamerada qo'rinitilishi kerak.

Kabel qog'ozi matoqog'ozli tasma bilan o'rab qoplanadi. CHulg'am o'ramlarini maxsus ustunlarda yuqori sifatli beton qo'yib mahkamlanadi. Beton qo'ringach ustunlarni namga chidamli izolyasiyalovchi laklarga shimitib to'la qo'ritiladi.

Betonli reaktorlarning ishlatishi ishonchli va barqoror, lekin doimo ko'zatuv ostida bo'lishini talab qilinadi, chunki nosozlik, halokat (halokatli) reaktorlarni tiklab bo'lmaydigan og'ir oqibatlarga olib keladi.


Qo'ritish jarayonida issiq havoni to'g'ridan-to'g'ri beton ustunlarga yo'naltirilmasligi kerak, qizdirish harorati 90 °S dan ko'p bo'lmasligi zarur.

Reaktor I_n tokining 75% me'yorli tok ostida samaradorli qo'ritish ishlari bajariladi. Kameraga kiruvchi havo harorati 110-120 °S bo'lganida chulg'amlari zolyasiya qarshiligi 6 MOm dan kam bo'lmasa 6-8 soat oralig'ida bir tekis bo'lsa, qo'ritish tamomlangan deyiladi.

Avvalo fundamentga yuqori fazasi ko'tarib o'rnatiladi, uni yuqoriga ko'taradi. Keyin fundamentga o'rta faza o'rnatiladi, yuqorigini tushirib, uni o'rta fazaga tushirib, o'rta faza izolyatoriga mahkamlanadi, ikkala faza yuqoriga ko'tariladi va pastki faza ustiga o'rnatib mahkamlanadi. Faza reaktorlari ustma-ust joylashishini to'g'rilaganda qattiq kartondan qistirmalar qo'yiladi. Ustma-ust (vertikal) Montajda


korxona fazalar tamg'alariga oid bajariladi (V- yuqorigi; C-o'rta va N- pastki), gorizontali yoki pog'onali montajdagi 6.3.1,6.3.2-rasmlardagi, kabi bajariladi, oraliq masofalar ruhsat etilgan, loyihadagi kabi minimal bo'lishi kerak.

Korxona tamg'alariga rioya qilib yig'ilganda o'rta fazaning chulg'amlar o'ramlari yo'nalishi yuqori va pastki fazalar o'ramlari yo'nalishiga qarama-qarshi bo'lishi kerak, bu holat elektrdinamik kuchlarni tenglashtirib to'radi va bu kuchlar ta'siridan himoya qiladi. Chunki qisqa to'tashuv paytida reaktorning qo'shni fazalar orasida kuchli elektrdinamik kuch sodir bo'ladi.



3.17 – rasm. Reaktorni o'rnatilish ko'rinishi: a) – vertikal; b) – pog'anali; v) – gorizontali; A_1, V_1, S_1 – chulg'amlar uchi; A_2, V_2, S_2 – chulg'amlar oxirgi uchlari; V, N, S, SG, G – fazalar belgilanishi (ustki, pastki, o'rtadagi va bosh.).

Po'lat tizimlar kamera ichida ishonchli mahkamlanishi kerak, va ular to'tashgan zanjirga ega bo'lmasligi zarur va ishonchli mahkamlanishini ta'minlashi lozim.



3.18 – rasm. Reaktorni ko'tarish va o'rnatish: a) - shveller yordamida; b) – maxsus po'lat ilgich yordamida; 1 – shveller; 2 va 3 – yog'och qistirmalar; 4 – tros; 5 – tayanch izolyator; 6 – o'zak; 7 – yuldo'zcha; 8 – ilgakka mahkamlash uchun qalpoqcha.

Nazorat savollari

1. Ajratgichlar turlari va ularni montajga tayyorlash.
2. Bulgich va qisqa tutashtirishlar turlari va montaj oldi bajariladigan ishlar.
3. YUklamani o'chirgichlar montaji.
4. Kam moyli uchirgichlar turlari va vazifalari.

5. Kam moyli uchirgichlar kontaktlarining bir vaqtda ulanib – ajralishini rostlash nima uchun zarur va bajarilishi.
6. O'lchov transformator turlari.
7. Tok transformatorlar montaji.
8. Kuchlanish transformatorlarda montaj oldi bajariladigan ishlar.
9. Nochiziqli o'ta kuchlanishda chegaralagichlar o'rnatilishi joylari.
10. Reaktorlar turlari va ularni montajga tayyorlash.

4 - Ma'ruza


1 kV gacha kuchlanishli kommutatsion apparatlar montaji

Reja:

1. Ayirgich va qayta zaminlagichlar montaji.
2. Yig'ma o'chirgichlar montaji.
3. AVM rusumli avtomatlar montaji.
4. Kontaktorlar montaji.
5. Magnitli ishga tushirgichlar montaji.
6. Tiristorli ishga tushirgichlar montaji.

4.1. Ayirgich va qayta zaminlagichlar montaji


Ayrim hollarda, ayirgich yoki qayta zaminlagichni o'rnatish montaj joyining o'zida, ayirgich o'rnatiladigan izolyasiyalı plitaga o'rnatishda og'ishmay o'rnatilayotgani tekshirilishi kerak. Ramaga mahkamlanish oralig'i 1mm dan oshmasligi kerak. Panelni ramaga maxkamlash boltlari oraliqlarini me'yorli darajaga keltirib mahkamlanadi. Orliqni me'yoriga keltirish ramani titratish yoki rostlovchi shaybalar qistirmalar montaj bilan nuqsonlar bartaraf qilingach boltlar tortib qo'yiladi.




4.1-rasm. Uch qutbli ayirgich: a) – uch fazali qo'tisiz yaratilgan; b) – yopiq qobiqda; v) – mexanik dvigatelyordamida boshqariladigan; 1 – pichoqlari; 2 – labli kontaktlar; 3 – dastak; 4 – qobiq; 5 - tortgich

Ayirich va qayta zaminlagichlar me'yorli montaj holati qat'iy vertikal holatdir. Kontakt pichoqlari tayanchga to'g'ri bir o'qiga kirib ularning o'qi bilan engil va siqilgan oraliqsiz qiynalmasdan va qarshiliksiz barcha liniyalarda ishonchli kontakt hosil qilishi zarur, 4.2 va 4.3 – rasm.

Pichoqlarni ulaganda kontakt tortgichlarning ikkala tomoniga ham bo'tun chiziq bo'ylab etarli kontaktli bosim hosil qiladi, bu kontakt tortgichning labli kontaktlarning prujinali qaydishi bilan aniqlanadi. Kontakt pichog'ining tortgichga tegishi 0,05 mm shup bilan tekshiriladi, agar shup kontakt yuzasining 1/3 dan ko'piga kirsa, kontaktni tiklash zarur. Dvigatelva ayirgich oralig'i (qayta zaminlagich bilan) gaykani tortish yoki bo'shatib tortgichorqali rostlanadi. Dvigatelning barcha ishqalanib ishlovchi qismlari SIATIM-201 yog' yoki tovat, solidol, texnikaviy vazelin bilan yog'lanadi.



4.2-rasm. Uchqutbli ayirgichning umumiy ko‘rinishi: 1 – o‘q; 2 – mahkamlagichlar; 3 – harakatsiz kontaktlar; 4 – tana; 5 – harakatlanuvchi kontaktlar; 6 – to‘tgichlar; 7 – prujina; 8 – dvigatel dastagi.



4.3 -rasm. Pishangli dvigatelli ayirgich: harakatsiz kontaktlar; 2 – yoy sindirgich kamera; 3 – harakatlanuvchi kontaktlar; 4 –oshiqmasliqli ustunlar; 5 – tortgich

Ayirgichlarni elkali dvigatellar bilan montajda, plitava ayirgich va shchitningolditomon yuzasi bilan yoki shkaf oraliq masofasi 250 mm dan kam bo‘lmasligi zarur. YOn dastakli ayirgichni o‘rnatganda shkafning yon devoridan oxirgi qutb vertikal o‘qigacha(dastakkaeng yaqini) 130 mm atrofida bo‘lishi lozim. Ayirgich va qayta zaminlagichlarda kontaktlar mahkamlanadiganlari bilan plitalar karkas burchagidan chiqib to‘rishi kerak, va bu 4 mm. dan kam bo‘lmasligi lozim. Ayirgich va qayta zaminlagichlar ajragich kontaktlar shunday o‘rnatilishi, byog‘ona erga zaminlagichlar yoki tok o‘zatuvchi qismlar kommutatsiya qiluvchi tayanchlardan 2.5-jadvada [7] ko‘rsatilganidan kam bo‘lmasligi kerak.

SHundan sung ajratgichga shkala va maxovik o‘rnatiladi. Montaj ishlari bajarib bo‘lingach, apparatni sinab ko‘rishdan oldin, ishqalanadigan bo‘laklarida yog‘langan yog‘lar etarligi tekshirishdan o‘tkazilishi zarur. Agar ayirgichlar montaj maydonniga tarqatilgan holatda keltirilsa (izolyasiyali plitasiz), u holda ularni yig‘ishdan oldin qo‘ruq salfetka bilan toza artib, yupqa qatlamli qilib texnik vazelinda yog‘lash kerak.


Yig‘ma (paketli) o‘chirgich. Yig‘ma o‘chirgich va qayta zaminlagichlar quyidagi to‘rlarga ajratiladi: PV, PVM, PP va PPM ruso‘mlilarga, 4.1-rasm, yig‘ma o‘chirgichlarning umumiy tarqatilgan ko‘rinishi keltirilgan.

O'chirgichlar Kattaligi	Me'yorli toki	CHegaralangan toklarni o'chiriladigan, A		Bir soatda o'chirilish maksimal davri
		220V o'zuvchan va o'zgarmas tokda	380V o'zgaruvchan tokda	
I	10	10	6	300
II	15	15	10	300
III	25	25	15	300
IV	40	40	25	300
V	60	60	40	300
VI	100	100	60	300
VII	150	150	100	300
VIII	250	250	150	300
IX	400	400	250	300

a) 4.2-jadval bo'yicha me'yorli tokiga ko'ra to'qqizta kattalikli; b) qutblar soniga ko'ra: bir qutbli-faqat I-kattalikli, ikki qutblilar-hamma kattaliklarda; v) tashqi muhit ta'siridan himoyalangan to'riga qarab: ochiq yaratilgan-hamma kattaliklarda; tomchi singmaydigan himoyalangan qilib yaratilgan- I va III kattaliklar; zich yopiq yaratilgan- I, III, IV va IX kattaliklarda; g) montaj usuliga qarab: I orqa tomonidan simlarni ulab mahkamlash uchun panel qalinligi 4 mm. gacha qilib yasalgan, 2- orqa tomondan simlarni ulab mahkamlash uchun panel qalinligi 25 mm.gacha qilib tayyorlanadi, 3- simlarni oldi tomonidan ulab mahkamlanadigan panel asosga mahkamlab yaratiladi.


4.2. Yig'ma o'chirgichlar montaji

O'ranatishga kirishishdan oldin o'chirgichlarni asrab to'ruvchi moylaridan tozalash, harakatsiz kontaktlarni toza lattalarda benzin yoki spirtda namlab artiladi. O'chirgichlarni yig'ib bo'lgach harakatsiz kontaktlarning simlar mahkamlanadigan yuzalari, yupqa qilib texnik vazelin bilan surkaladi.



4.4 – rasm. Yig'ma o'chirgich: a) – umumiy ko'rinishi, b) – kontakt tizimi, v) – qayta ulash mexanizmi, e) – paket elementlari.

Apparatlarni belgilash: P-yig‘ma; (пакетный); ikkinchi harfi V yoki P – o‘chirgich yoki qayta zaminlagich, uchunchi harf M-mukammallash tirilgan. 8.1.5 – rasm, mushtchali yig‘ma qayta zaminlagich.



4.5. Rasm. Mushtchali yig‘ma o‘chirgich va qayta zaminlagich: a – PKU3 mushtchali qayta zaminlagich; b – yig‘ma mushtchali o‘chirgich; 1 – chiqish; 2 – ayladigan o‘q; 3 – mushtcha; 4 – zichlangan berk tana; 5 – kirgich; 6 – ta’sir qiluvchi prujina; 7, 8 – kontaktlar; 9 – aylanuvchi dastak,

O‘chirgich dastaki panel ichidan o‘tganida panel ustiga o‘chirgich mahkamlangan, o‘q bilan panel ichki teshik yuzasi bilan dastak va panel oldi tomonida 1-2 mm etarli oraliq ta’minlanishi kerak.


Montaj oldidan kontakt vintlarini puxtalik bilan benzin yoki spirt bilan artiladi kontaktlar yuzalari, simlar uchlarini yupqa texnikaviy benzin artiladi sung o‘lchovchi mexanizmlarni SIATIM-201 bilan moylanadi.

4.3. AVM ruso‘mli avtomatlar montaji

AVM ruso‘mli avtomatlar ochiqqilib ishlab chiqariladi AVM-4, AVM-10, AVM-15 va AVM-20. AVM rusumli quyidagi belgilarga ega: AVM-4 avtomat o‘chirgich 400A gacha; AVM-10 1000A gacha; AVM-15 – u ham 1500A gacha; AVM-20 – u ham 2000A gacha. Keiyingi belgilari S, N, V, M, TV va S bildiradi: C- saralangan avtomatlar- qisqa to‘tashuv toklarida va o‘ta yuklamalarda vaqtni saqlash bilan (s выдержкой); T- saralanmagan avtomatlar qisqa to‘tashuv toklarida lahzali (oniy) va vaqtni saqlash bilan; V- so‘rib chiqariladigan qilib bajariladi; M- dengizda ishlatish uchun yaratilgan; T- issiq iqlimga (tropicheskogo) yaratilgan.

Avtomatning paneli shunday o‘rnatilishi kerakki, unda qiyshiq o‘rnatilishida bukiluvchi kuch sodir bo‘lmasin.

Avtomat kamerasi ustida tok o‘tkazuvchi va erga zaminlagich qismlar oralig‘i korxona qo‘llanmalarida ko‘rsatilganidan kam bo‘lmasligi kerak. Suriluvchi avtomatlar tashqi zanjir bilan kiruvchi kontaktlarda ulanadi.



4.7-rasm. So‘rib chiqariladigan qilib ishlatilishining AVM avtomatik o‘chirgich: 1 – asosiy zanjirdagi sug‘rib ajratiladigan kontaktlar; 2 – harakatlanuvchi asosiy kontaktlar; 3 – harakatsiz yoy sindirish kontakt; 4 – harakatlanuvchi yoy sindirish kontakt; 5 – yoy sindirish kamera; 6 – pulta plastinalar; 7 – holatni qayd qilgich; 8 – izolyasiyal to‘siq; 9 – shtepselli sug‘iriladigan boshqarish zanjiri; 10 – elektrdvigatelli dvigatel.

Avtomatni taqsimlovchi (yacheykaga) qurilmaga so‘rib kiritilayotganda kiruvchi va kirituvchi kontaktlar vertikal va gorizontal o‘qlar bo‘yicha simmetrik bo‘lishiga ishonch hosil qilinishi kerak. Mexanik blokirovka aniq ishlatilishi tekshirilishi zarur, u kiruvchi kontaktlarni ulangan holatda avtomatni o‘chirilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ta‘minoti manbadan kelayotgan shinalar, avtomatning yuqori tomoniga ulanadi, iste‘molchidan kelayotgani esa pastiga ulanadi. Ulanadigan kabel va shinalar, avtomatning pastki boltidan 400 mm dan ko‘p bo‘lmagan masofada ishonchli mahkamlanadi, bu mexanik va elektrdinamik kuch yuklamalardan avtomatga o‘tmasligi uchun zarur. 2.19-jadval[8] AVM ruso‘mli avtomatlarning asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

4.4. Kontaktorlar montaji


Kontaktor vertikal holatda o‘rnatilishi kerak, chunki uning o‘chirilishi harakatlanuvchi tizimlar og‘irligi hisobiga amalga oshadi; vertikal holatdan 5° burchakka xohlagan tomonga bo‘rishga ruhsat beriladi. Bolt va gaykalar tortilishi kerak, kontaktlarning mahkamlanadigan qismlari va erkin harakatlanuvchi tizimlari tekshirilishi zarur. Erga zaminlagich va boshqa tok keltiruvchi apparatning boshqa qismlari orasidagi masofa 4.2-jadvaldagidan kam bo‘lmasligi kerak.

Kontaktorlarning tok olib keluvchi va erga zaminlagich qismlarigacha bo‘lgan eng kam masofa 4.2-jadval

Kontaktorlar kattaligi	O‘lchamlari, mm (- rasm)	
	A	B
2	70	150
3	100	175
4	125	225
5	150	275

YOy sindirish kameralari deionli sindirish, kamera ichki mis qoplangan po‘lat yoy sindirish plastinkali panjaraga ega. Bu panjara plastinkalari o‘z joyida to‘rishi

kerak – ariqchalarda va bir-biriga tegmasligi zarur. Kamerada magnit sindirgich yoyni sindirishi g‘altagi va o‘zak qo‘llaniladi; bu yoy sindirish kameraning tashqi tomonini qamrab oladi. 4.8-rasm, kontaktor kontaktlari o‘rilishi momentida va ulanganida ham bir chiziqli o‘rnashish lozim; buerda ustma-ust o‘rnashishi, kontaktlar kengligining 75% dan kam bo‘lmasligi kerak. Bo‘tun yuza qoplanishga ega bo‘lishi shart emas. Ulanayotgan harakatlanuvchi kontakt harakatsiz kontakt bo‘yicha sirpanib o‘rnashishi kerak. O‘zluksiz (davom etuvchi) jarayonda ishlatiladigan KTB kontaktorlar kontaktlari kavsharlangan kumush qoplamali qilib tayyorlanadi.



4.8 -rasm. A) - KTV seriyali kontaktor dvigatelli sindirishli asosiy ajraluvchi kontakt tuguni: 1 – yoy sindirish deionliplastinali kamerasi; 2 – harakatsiz kontakt; 3 – harakatlanuvchi kontakt; 4 ulash prujina; 5 – kontakt prujiniasi; b) – KTV seriyali kontaktorkontakt jihozlar parametrlarini tekshirish, 1 – tasma o‘rnatiladigan joy; 2 – boshlang‘ich bosimini tekshirish uchun qog‘oz o‘rnatiladigan joy; A – kontakt oralig‘i; B – nazorat qiluvchi cho‘kish, oraliq.

Almashtirish imkoni yaratilishi uchun kontaktlar echib olinadigan qilib yaratilgan.

Kontaktlar oralig‘i A – harakatlanuvchi va harakatsiz kontaktlar orasidagi masofa, kontaktor o‘chirilgan holatida.

Kontakt cho‘kishi – harakatdagi kontakt harakatsiz kontaktga tekkanida, agar harakatsiz kontaktni olib qo‘yilganda joy o‘zgarishi. Chunki cho‘kishni amalda o‘lchash imkoni yo‘q, oraliq B ni shu usulda cho‘kishini o‘lchash mumkin, ya‘ni oraliq kronshteyn va harakatlanuvchi kontakt kontaktlar ulangan holatida, kontaktlar emirilishi natijasida oxirgacha bosish kamayib boradi, bu kontaktlar ortiqcha qizishiga olib keladi. Bu oraliq ikki barobar kamayganida, kontaktni almashtirish zarur.


Boshlang‘ich bosim – kuch, kontaktlari tyog‘ishi boshlang‘ich nuqtasida kontakt prujinasi tomonidan tashkil topadi. Boshlang‘ich bosim etishmasligi kontaktlarning erishiga olib keladi, boshlang‘ich bosimning ko‘pligi kontaktlarning noaniq ishlashiga va uning oraliqlarda siqilib qolishiga olib keladi. Boshlang‘ich bosimni tekshirish uchun: kontaktlar o‘chish chizig‘ini belgilab chiqish; kontaktlarni ajratish (yakorni ochish); kronshteyn va harakatlanuvchi kontakt orasiga papiros

qog'ozini qo'yish; uchrashish chizig'iga kipper tasma tuguni qo'yiladi va dinamometr ilgagiga ildirib, kontaktlar yuza tekkan tomonga perpendikulyar tortiladi, shu darajada oraliqqa o'rnatilgan qog'oz qo'zg'alish imkonini bo'lmaguncha. Bu holatda dinamometr ko'rsatgichi boshlang'ich bosim miqdorini ko'rsatadi.

Elektromagnit tizim, yakor, SH –ko'rinishdagi o'zakdan va tortish g'altakdan iborat. Yakor va o'zak oxirgi chizig'i bir-biriga jips yotishi kerak. 4.9-rasm.

O'zak yakorga yopishib to'rganida oraliqqa o'rnatilgan papiros qog'ozi chetki qutblar orasida siljimasligi kerak. Agaryuza 60-70% dan kamerga tekkan bo'lsa, uholatda o'zak kifti-kiftiga to'g'ri ketirilishi kerak bo'ladi.

To'g'rilashni shixtovka bo'ylamasini bo'ylab yo'niladi va ishlov holatida qalin qatlamni olmaslik kerak, chunki magnit o'tkazgichning o'rtada chiqib to'rgan erlaridagi oraliqlari kamayib qolishi mumkin.



4.9-rasm. a) – KTV seriyali kontaktor elektr magnit tizimi: 1 – elektr magnit o'zagi; 2 – qisqa to'tashgan o'ram; 3 – rostlanadigan gayka; 4 – o'chirish prujinasi; 5 – o'q; 6 – taqash prujinasi; 7 - tortuvchi g'altak; 8 – elektr magnit yakori, b – KTV seriyali kontaktor yakori va o'rta qutb o'zak oralig'i.

Yakor va qutblar o'zagi magnit tizim o'rtasi bilan yopishib qolishidan saqlanish uchun oraliq A ko'zda to'tilgan.

Kontaktlarni ishga tushirishdan oldin ishlab chiqargan konkamera magnit o'tkazgichlar yuzasiga zanglash va chirishdan asrash uchun so'rinlgan moydan tozalash kerak, chunki kontaktlar yuzasini va magnit o'tkazgich yuzasini ifloslantiradi. Blok kontaktlar cho'kishi 3-4 mm; ko'prikgacha prujinaning boshlang'ich bosimi 90 gs dan kam bo'lmasligi, oxiri esa 200 gs dan ko'p bo'lmasligi kerak.

4.5. Magnitli ishga tushirgichlar montaji

Umumiy ko'rsatmalar. Asosiy talablar kommutatsiyalovchi apparatlarni joylariga o'rnatishda, ishchi chizmalarida ko'rsatilganlariga va ishlab chiqarish korxona qo'lanmalariga ko'ra o'rnatiladi.

Tayanch konstruksiyalar yoki apparatlarga o'rnatilishi kerak bo'ladiganlarini qo'rilgan qurilish inshoot asoslariga ishchi chizmada ko'rsatilgandek (duyubellar, boltlarda, vintlarda va shtirlar yordamida tayanch ustunlar konstruksiyalariga qurilish asoslarigao'rnatib ketilgan bostirma elementlarga payvanlash yoki boshqa usullarda) mahkamlanadi. Qurilish asosiga mahkamlanayotgan apparatlar og'masligi va silkinish sodir bo'lmasligi ta'minlanishi zarur.

Kabellarni va o'tkazgichlarni (simlarni) yoki quvurga apparat ichiga kiritish apparat himoya qobiqlari himoya darajasini pasaytirmasligi va ularni shaklini


o'zgartiruvchi mexanik ta'sir tashkil qilmasligi kerak.

Bir necha apparatlarni bloklarda o'rnatilishda har biriga texnik xizmat ko'rsatish imkoni bo'lishi kerak.

Ishga tushirish–rostlovchi apparatlar mustahkam va vertikal o'rnatilgan bo'lishi kerak. Oxirgi talab, apparatlarni montajda o'lchov asboblari, avtomatik uchigirichlar, himoya asboblari va rele o'rnatilganlari qat'iy vertikal va og'ishmay o'rnatilishi shart, chunki ular faqat qat'iy vertikal o'rnatilgandagina ishonchli ishlaydi, shu sababli o'rnatilish talabiga qat'iy amal qilinishi zarur.

4.6. Tiristorli ishga tushirgichlar montaji

Tiristorli ishga tushirgichlar ko'chmas va harakatlanuvchi uch fazali elektr dvigatelli uskunalarni boshqarishga mo'ljallangan. 4.10-rasm. Ishga tushirgichlar vertikal holatda o'rnatiladi, lekin xoxlagan tarafga 45° og'ishgan holda o'rnatilishi mumkin. Ishga tushirgich muntazam yoki qayta-qisqa vaqt rejimda $QU = 60\%$ da ishlatishga, soatiga 6000 gacha chastotali ulashga ruhsat beriladi. Issiqdan himoyaga, o'ta yuklanishdan va ishlatilish chegaralovchi maksimal tok himoyasiga ega.



4.10-rasm. Tiristorli ishga tushirgich: a) – bo'yro'qni qayd qilmasdan tashqi boshqarish sxema; b) – bu ham bo'yro'qlar qayd qilingan; v – tashqi ko'rinishi; SFV – tiristorli ishga tushirgich; VT – tiristorlar; M – elektr dvigatel; SV1, SV2, SV3 – boshqarish tugmachalari “Pusk oldinga”, “Pusk orqaga” va “O'chirilgan” mos ravishda; L1, L2, L3, S1, S2, S3 – kuch qisqichlari; 1-4 – masofadan boshqarish qisqichlar zanjiri.

Ishga tushirgichni boshqarish tugmachali, bo'yro'qlarni qayd qiliadigan va qayd qilmaydigan. Boshqarish kontaktsiz logik elementlar orqali bajarilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Ayirgich va qayta zaminlagichlar vazifasi va turlari.
2. Ayirgich va qayta zaminlagichlar montaji.
3. Yig'ma uchirgichlar qo'llanilish sohalari.
4. Yig'ma uchirgichlar montaji.
5. Avtomatik uchirgichlar turlari va saqlagichlardan farqi.
6. Kontaktorlar turi va ularni montaj qilish.
7. Magnitli ishga tushirgichlar turlari va vazifalari.
8. Tiristorli kontaktsiz ishga tushirgichlar afzalik va kamchiliklari.

5- Ma'ruza

Elektr dvigatel va erga zaminlagichlar montaji

Reja:

1. Elektr dvigatellar turlari va ularni montajga tayyorlash.
2. 1000 kvv va undan yuqori quvvatli elektr dvigatellar montaji.
3. EYU larni salt va yuklama bilan yurgizish.
4. Erga ulash qurilmalar montaji.
5. Bino ichida o'rnatiladigan qurilmani erlash.
6. Elektr uskunalarni ishlatishga topshirish.

5.1. Elektr dvigatellar turlari va ularni montajga tayyorlash

Barcha elektrstansiyalarda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 60% ga yaqinini, elektr dvigatellar (EYU) yordamida mexanik energiyaga aylantiriladi. EYU lar eng yirik sig'imli elektr energiya iste'molchi, ishlab chiqarish suratinig oshishini, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini aniqlovchi hisoblanadi.

Oxirgi yillarda asosiy texnika-tejamkorligida o'zgaruvchan tokli EYU lar keng qo'llanilishi asosiy hisoblanadi. O'zgaruvchan tokli dvigatellardagi kollektor yo'qligi ortiqcha yuklanish imkoniyatini ko'taradi va dvigatelning quvvati bo'yicha cheklanish yo'qoladi. EYU lar quvvati cheksizligi amaliyotda rostlanuvchi elektr dvigatellar yaratilishi hayotiy bo'lib qolmoqda.

SHu sababli qisqa to'tashgan rotorli asinxron dvigatellarni yoppasiga qo'llanilishi EYU ning takomillashishi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ularning o'ziga samaradorligining yuksalishi nisbatan davlat miqyosida sezilarli natija beradi.

Ko'pchilik asinxron dvigatellar sezilarli darajada kam yuklama yoki uning sezilarli o'zgarishida foydalanilmoqda. Bu dvigatellarning energetik ko'rsatgichini sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Bu ko'rsatgichlarni ko'tarish elektr dvigatellarning kuchlanishini rostlash bilan amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi davrda asinxron dvigatellar ta'minoti manba kuchlanishining yuklamaga bog'liq holatda o'zgarishini, rostlovchilar yaratish ishlari olib borilmoqda.

Asosiy kamchiliklari past quvvat koeffitsienti va yuklama oshishi bilan aylanish davrining pasayib borishi.

EYU lar tuzilishi maxsus bajarilishi bo'yicha har xil ko'rinishga ega: a) ichiga kiritilgan; b) kam shovqinli; g) kiritilgan harorat himoyali; d) montajo'lchamiga yuqori aniqlikda bajariladigan.


Atrof muhit sharoitiga qarab EYU larni maxsus bajarilishi quyidagicha bo'ladi: a) namga-sovo'qqa chidamli; b) kimyoviy chidamli; v) jazirama iqlim uchun.

Tor maxsusliklarga bajarilishi uchun elektrdvigatellar: a) qishloq xo'jaligi uchun; b) dengiz floti va daryo kemalariga; v) shimoliy chegara sharoitlari uchun.

A2 va AO2 elektr dvigatellardan quyidagi ustunlikka ega: og'irligi kam (o'rtacha 18% ga) tashqi o'lchami, aylanish o'q balandligi va boshqa o'rnatgich o'lchamlari, havo shovqini va titrash sathi pasaytirilgan, ishga tushirish momenti katta, ishlatilishiga va montajga katta qo'laylikka ega; yuqori ishonchli. 4A ruso'mli elektr dvigatellar belgilanishni aytib berilishi quyidagicha: misol 4AH200LB8. 4-seriya tartibi; A-asinxronli; H-himoyalangan; 200-aylanish o'qi balandligi, mm; L(S,M)- qobiq uzunligi bo'yicha o'rnatilish o'lchamlari; B(A)- o'zak uzunligi (bir


montaj o'ldamda ikki xil quvvat ko'rsatilganida); 8(2,4,6)- qutblar soni.

-AI seriyali elektr dvigatellar. Elektr texnika sanoati asinxron dvigatellarning beshinchi birlikdagi seriyasini o'rganib chiqdi, AI- asinxron elektr dvigatellarni ishlab chiqarish amalga oshirildi.



5.1-rasm. Asinxron dvigatelning ichki ulanish sxemasi: a) – uchta uch chiqishlarida chulg'amlarni yuldo'z ulash; b) – uchta uch chiqishida uchburchak ulash; v) – oltita uch chiqishlarida yuldo'z ulash; g) – oltita uch chiqishlarida uchburchak ulash.

AI dvigatel seriyalarida bir necha tashkiliy tuzilishlar ko'zda to'atilgan, ularning yuqori ishonchliligi, bo'larga issiqdan himoyalovchi (pozistorning) ichiga o'rnatilib qo'llanilishi, lekin ishonchli ishlatilishida ularning faqat sifatli ishlab chiqarilishiga emas, balki birinchi o'rinda ularni ishlatilish darajasi hozirgi vaqtda ham pastligicha qolmoqda.



5.2-rasm. Asinxron dvigatellarning asosiy qismlari: a) – stator; b) – qisqa to'tashgan rotor; v) – faza chulg'amli rotor; 1 – stanina; 2 – po'lato'zak; 3, 6 – chulg'amlar; 4 – qisqa to'tashgan xalqalar; 5 – ventilyator parraklari; 7 – kontakt xalqalar.

5.1.2. 1000 kVt va undan yuqori quvvatli elektr dvigatellar montaji

Avto dvigatel yoki boshqa transport vositaalarida keltirilgan EYU larni kranlar, avtoyuk ko'targich yoki boshqalar yordamida tushiriladi. O'ramlardan ajratilgan EYU larni gorizontaal yuzaga ko'chirishda kran, elektrtallar, elektrkaralar, yuklagichlar, ular EYU larni ko'tarish, fundamentga montaj qo'llaniladi. EM larni montajdan oldin sexdagi maxsus ajratilgan kameradagi dastgohda qarab chiqiladi. Hamma aniqlangan nuqsonlar elektr o'rnatuvchi brigada ustasiga yoki montaj boshlig'iga aytib beriladi yoki yozma ravishda bildiradi.

Agar elektr dvigatel tashqi nuqsonlarsiz bo'lsa uning ichki qismlarini tozalash olib boriladi. Buning uchun siqilgan havodan foydalaniladi. Oldin quvuro'tkazgichdan havo uzatilishi va quro'qligi tekshiriladi, buning uchun oqimni birorta yuzaga yoki qo'l kaftiga yo'naltiriladi. Purkalganda rotor qo'l bilan

aylantiriladi va o'qning podshipniklarda engil aylanishi tekshiriladi.

EYU tashqi sirti kerosinda engil namlangan latta bilan artiladi.

Sirpanish zoldirlarini yuvish, buni montaj davrida quyidagicha bajariladi. Zoldirlardan to'kish tiqinini echib moy qoldiqlari to'kiladi. Tiqinni joyiga mahkamlab zoldirlarga kerosin quyiladi va yakor yoki rotor qo'l bilan aylantiriladi. Keyinchalik kerosin to'kilib kerosin qoldiqlari moy bilan yuvib tashlanadi. SHundan keyin zoldirlarni yangi moy bilan $\frac{1}{2}$ yoki $\frac{1}{3}$ hajmda vannasi to'ldiriladi. Zoldirlarni moy bilan to'ldirish mustaqil hajmining $\frac{2}{3}$ dan oshmasligi kerak.

EYU lar tekshirib bo'lingach, ishga tushirishga to'la tayyorlangandan keyin, montaj joyiga olib kelinadi va mahkamlanadi. Stendda tayyorlash tekshirish usullari (agar zaro'riyat bo'lsa taftish qilish, kerak bo'lsa qo'ritish) bu ishlar ob'ektda montajishlarini bir necha bor tezlanishiga va muddatning qisqarishiga olib keladi. bu usullarkatta quvvatli dvigatellarni montajida borgan sari keng qo'llanilmoqda.

Montaj va mahkamlash. Dvigatelni yig'ish va tekshirish ishlari tomom bo'lgandan keyin uni o'rnatishga kirishiladi. Katta bo'lmagan EYU larning yingillari (50 kg gacha) ularni past fundamentlarga va tizimlarga qo'lda, qiya qo'yilgan taxtalardan foydalanib maxsus tizimga va erga qo'lda qo'yiladi. Og'irligi 80 kg dan ortiq bo'lgan EYU oldindan tayyorlangan anker boltlar bilan poydevorga mahkamlangan asoslarga- payvandlanadigan romlarga cho'yan plitalarga yoki salazkalarga o'rnatiladi. dvigatellar mexanizimlar yordamida (tal, chig'ir va h.k.) ko'tarilib o'rnatiladi.

Ancha og'ir elektr dvigatellar montajida devorlarga, fundament ustiga, qavatlararo mahkamlangan qatlamga, EYU larni to'g'ridan-to'g'ri kranlar, tallar yoki polistpastlardan (bloklari bilan) va boshqa yuk ko'tarish mexanizmlarida ko'tarish ishlari bajariladi va mexanizmlarda ko'tarib o'rnatiladi.

O'rnatilish tugatilgach sinov ishlari olib borilishida tarqatilgan holatda kelganlari yoki tarqatilgan EM ning stator va rotor po'lati oraliqlari, sirpanish podshipniklari va titrash podshipniklari oralig'i, rotorning o'qi bo'ylab harakatlanishi ishlab chiqarish korxona texnikaviy hujjatlarida ko'rsatilganiga mos kelishi kerak.

1 kV dan yuqori kuchlanishli dvigatellarni qo'ritmasdan ishga tushirish ishlab chiqaruvchi korxona ko'rsatmalariga mos olib borilishi kerak. EM lar montajida ta'minoti kabelini dvigatel tizimi kiritgichlariga ulash masuliyatli operatsiya hisoblanadi. Bu tugunni to'g'ri va sifatli bajarilishi elektr dvigatellarning ishonchli ishlatilishini sezilarli darajada aniqlab beradi. Afsuski ishlab chiqaruvchi korxonalar EM larni yaratish tuzilishida kiritish to'zilmalari (KT) (VU) ta'minoti manba kabelini ulanishi montajdagi ruhsat berilgan kabel tolalarini egish radiuslari talab qilinganidan juda o'zoqda bo'ladi: kabelning eng kam egilishi, kabel muftalari va uchlari o'lchashlari hisobga olinmaydi. SHu sababli montajni loyihalash respublika ilmiy tekshirish instituti 1 kV gacha o'zgaruvchan tokli EYU lar uchun KT montaj texnik talablarni ishlab chiqardi, umumiy vazifa sifatida o'zgaruvchan tokli 6 va 10 kV kuchlanishlarga ham. Qabul qilishda va EYU larni attestatsiyalaganda bu hujjat KT tuzilishini yaratishimkonini beradi, hamma montaj texnik talablarni qoniqtiradigan, elektr jihozlarning to'xtovsiz ishlatilishini va sezilarli darajada ishonchliligini oshiradi.

Har xil usullarda to'g'rilash va ulash. Fundament ustiga, qavatlar oralig'iga

mahkamlangan qatlamga, maxsus tizimga va to'g'ridan-to'g'ri va erga o'rnatilgan elektrdvigatellarni, mexanizm bilan yoki stanokni aylantiruvchi dvigatel bilan, uni ulashda to'g'rilanadi. Ulashni to'g'ridan-to'g'ri mufta yoki boshqa o'zatgich orqali (tishli, tasmali) bajariladi. Hozirgi vaqtda pona ko'rinishidagi tasmalar qo'llaniladi (ponatasmali o'zatgich - ataluvchi).

5.1.3. EYU larni salt va yuklama bilan yurgizish

Dvigatelning mexanikqismi to'g'riligi aylanish yo'nalishining to'g'riligi, EYU poydevori mustahkamlanganligi va o'qlarning markazlanish sifatini tekshirish maqsadida dvigatel salt yurgizib ko'riladi. Bunda EYU va uni harakatga keltiradigan mexanizm, stanok yoki boshqa jihozdan ajratilgan bo'lishi kerak.

EYU elektr tarmog'igabirdaniga ulanadi va aylanish tezligi uncha katta bo'lmaganida aylanish chastotasi 20-30% ga etganida u tarmoqdan o'ziladi, o'z inersiyasi to'fayli ma'lum vaqtgacha aylanib turadigan rotorning aylanishidan chiqadigan shovqinni diqqat bilan eshitib ko'riladi.

Sinash uchun birinchi sinov yurgizilgandan va nuqsonlar aniqlangandan keyin, dvigatel ikkinchi marta salt yurgiziladi, bunda EYU to'la tezlikda kamida 1 soat davomida ishlab turadi. Bu vaqt davomida dvigatelni elektr montajchi kuzatib turadi, u har 10-15 minutda podshipniklarning qizish darajasini tekshirib turishi kerak. EYU ning eng yuqori qizish harorati 95° S dan oshmasligi lozim.

EYU yuklamasiz ishlatilishiganda podshipniklarning tebranish amplitudasi vibrometr bilan o'lchanadi.

Rotorning aylanish chastotasiga bog'liq bo'lgan dvigatel podshipniklari tebranishining amplitudasi qo'yidagi qiymatlardan katta bo'lmasligi kerak:

Sinxron aylanish chastotasi, ayl/min	Podshipniklar tebranishining yo'l qo'yiladigan amplitudasi, mkm
3000	50
1500	100
1000	130
750 va undan kam	160

EYU normal holda salt ishlab turganda uni yuklama bilan ishlatilishi sinab ko'riladi, bu jarayonda yana tebranish amplitudasi va podshipniklarning qizish harorati tekshiriladi. Dvigatel unga yuklangan mexanizm bilan ishlatilganda yomon muvozanatlanganligi yoki dvigatel harakatga keltiradigan texnologik mexanizm etarli darajada pishiq mahkamlanmaganligi sababli ko'pincha uning tebranshi va podshipniklarning qizishi ortishi ko'zatiladi, bo'nday tekshirish shuning uchun zarur.

Dvigatelning nominal qiymatiga yaqin bo'lgan yuklama bilan uzluksiz ishlatilishi kamida 3 soat davom etishi lozim. Ko'rsatilgan shu vaqt ichida har 30 minutda chulg'amlarning qizish harorati o'lchanadi, bu harorat ishlab chiqargan korxona ma'lumotlariga yaqin bo'lishi kerak.

YUqorida keltirilgan sionvlardan muvafaqiyatli o'tgan EYU, sinash va tekshirishlar natijalari bo'yicha maxsus protokol va aktlar to'zilib

EYU pasporti bilan buyurtmachiga barcha xujjatlar tag'dim etiladi.

5.2. Yerga ulash qurilmalar montaji

5.2.1. Yerga ulash zaruriyligi haqida umumiy ma'lumotlar

Aniqlash. Izolyasiya shikastlanganda odamlarni elektr tokidan himoya qilish uchun erga ulanish jihozlari yaratiladi.

Elektrtarmoqlar bir-biridan va erdan izolyasiyalangan tok o'tkazgichlarda tayorlanadi.

Lekin tarmoqlarda muntazam izolyasiya orqali uzilish xodisa toklari mavjud.

Bundan tashqari elektrtarmoqlari tizilgan kondensatordan iborat, uning qobiqlari sifatida tok uzatuvchi simlar va er hisoblanadi. Sig'imli tok er va o'tkazgichlar orasidano'tadi.

SHunga ko'ra er va izolyasiyalangan o'tkazgichlar orasida elektr zanjiri mavjud.

Tarmoq sig'imi va izolyasiya qarshiligi orasida muntazam berk zanjir mavjud.

Kuchlanish ostidagi uskunalarga izolyasiyalanmagan hatto izolyasiyali qismlarga tekkanda ham odam elektr zanjiriga rostakam ulanadi. Odam badanidan tok o'tishi paydo bo'ladi, bu tarmoqda kuchlanish qancha yuqori bo'lsa shuncha sig'im toki katta va uning izolyasiyalovchi qarshiligi shuncha past.

Izolyasiya shikastlanishi odamlarga yuqori havfli erga tok o'tkazuvchilarda shunday holat sodir bo'lsa elektr qurilmaning metalli tanalariga va konstruksiyaga tegib ketish etarli bo'lganda kabel va o'tkazgichlarni ushlab to'ruvchilar to'la kuchlanish ostida bo'ladi.

Qayd qilingan havflardan kishilarni himoya qilish maqsadida elektr qurilmalar metall tanalari (korpuslari) va boshqa metalli qismlari va izolyasiyalangan qismlari izolyasiyasi bo'zilganda kuchlanish ostida bo'lishi mumkin va kuchlanish ostida bo'lgan qismlari maqsadli ravishda erga zaminlagich o'tkazgichlar va erga zaminlagichlar yordamida erga ulanadi.

Erga zaminlagichni montaj qilish tartibi. Erga zaminlagich jihozlarini (EJ) montaj quyidagi operatsiyalardan iborat:

Er trassasini tayyorlash;

(vertikal va gorizontal) erga zaminlagichlarni joylashtirish va ularni o'zaro ulash;


Erga zaminlagich o'tkazgichlarni joylashtirish;

Erga zaminlagich o'tkazgichlarni erlovchilar bilan va qurilmalar erlanuvchi qismlariga ulash.

dumaloq diametrli kamida 16 mm;

quvurlar diametri kamida 32 mm;

burchaklar (uglovoy) ko'ndalang kesimi kamida 100m².



5.3-rasm.Erga zaminlagich jihozning prinsipial sxemasi: a)-vertikal erga zaminlagich; b)-bo'rab kiritishga tayyorlangan vertikal erga zaminlagich; 1-(elektrod) vertikal erga zaminlagich; 2-gorizontal erga zaminlagich; 3-erga zaminlagich o'tkazgich; 4-erlashga mo'ljallangan uskunaning metalli qismi; 5-payvandlash joyi; 6-erlovchi o'tkazgichlarni bino ichiga kiritish; 7-erga zaminlagich

Elektrodlarni erga kiritish zarbli yoki bo‘rash usullarida bajariladi. Bo‘rab kiritishda elektr kiritgich qo‘llaniladi-reduktorli drel aylanish tezligini 100 ob/min dan pasaytiradigan va elektrodni kiritishda aylanish momentini oshiradiganlari qo‘llaniladi. Elektrodlarning pastki uchiga buralish shakli beriladi (5.3,b –rasm).

Elektrolarning yuqori qismi erga kiritilib bo‘lgach elektrodlar uchlari kallagi 150-200 mm transheya tubidan chiqishlari, o‘zaro gorizontal erga zaminlagichlar bilan ulanadi. Gorizontal erga zaminlagichlar sifatida yassi odatda 100 mm² po‘lat tasmalar yoki 10 mm diametrli po‘lat simlar qo‘llaniladi. Ochiq TQ da qo‘shimcha bo‘ylama va ko‘ndalang gorizontal erga zaminlagichlar yotqiziladi, erga zaminlagichlar to‘rga o‘zaro birlashtirilgan. Bu TQ va YOTQ hududida qisqa to‘tashish toki erga oqqanda elektr potensialini to‘g‘rilash uchun zarur.

Barcha vertikal va gorizontal erga zaminlagichlar ulanishi payvamlash bilan bajariladi. Payvand joyi bitumli lakda qoplanadi. Erning, po‘lat chirishiga nisbatan yuqori aktivligida suniy erga zaminlagich sifatida sinklangan po‘lat prokat qo‘llaniladi.

5.2.2. Bino ichida o‘rnatilgan qurilmani erlash

Bino ichida o‘rnatilgan qurilmalarni erga zaminlagich o‘tkazgichlar yordamida erga zaminlagich shinalarga ulash bilan bajariladi. Bu shina tashqi erlash yopiq zanjirning kamida har xil ikki eriga erga zaminlagich o‘tkazgichlar bilan ulangan bo‘lishi kerak. Erga zaminlagich shina bevositaa bino va qurilish devoriga dubellarda va qurilish – montaj pistoletlar yordamida er sathidan 0.4-0.6 m da har 1.5 m da mahkamlash bajariladi.

Ayirim erga zaminlagich tasmalarni erga zaminlagich tasmalar shinalarini ustma-ust payvandlashda bajariladi.

Ustma-ust uzunligi shinalarning ikkilangani enidan kam bo‘lmasligi kerak.

Montaj tugatilgach YOTQ da ochiq yotqizilgan elementlari navbatma – navbat bo‘ylama buyaladi yoki ko‘ndalang tasmali sariq yoki yashil rangga buyaladi.

5.2.3. Elektr uskunalarni ishlatilishiga topshirish

Har bir qurilishi tugallangan korxona, o‘y-joy yoki umumiy bino ishlatilishiga davlat qabul komissiyasi tomonidan qabul qilinadi, komissiya tuzilishiga buyurtmachi vakili, pudratchi tashkilot tuman yoki shahar ijroya komitet xodimi kiradi. Xalq depo‘talar maslahatchilari, davlat sanitariya va o‘to‘chirish nazorati, kasaba soyuz qo‘mitasi va boshqa aloqador tashkilotlar.

Ob’ektni davlat komissiyasiga tag‘dim etishdan oldin (alohida sexni, binoni, inshootni) ular da o‘rnatilgan uskunalarni buyurtmachi tomonidan tayinlangan kommissiya, qurilish montaj ishlari tugatilgan alohida uskunalarni sinov va kompleksli ishlatilishini sinab ko‘rib ishchi kommissiya qabul qiladi. Sexlarda va boshqa binolarda o‘rnatilgan dvigatellar va elektr kuch uskunalarni bir vaqtning o‘zida qurilish ishlari va sanitariya-texnik va texnologik qurilmalarni qabul qilishga tavsiya qiladi.

Alohida sinov ishlarini o‘rnatilgan tartibda olib boriladi.

Qurilishi tugallangan binolarga, inshootlarga issiqlik -qurilish, suv elektr ta'minoti (shu jumladan NS (TP), HL va boshqa) sanitar-xo'jalik xonalari, qurilish-montaj tashkilotlari qurilish davomida foydalanib kelingan inshootlar.

Alohida sinov ishlari oxiriga etgach kommissiya aniqlangan kamchiliklarbo'yicha akt to'zilib muddat beriladi pudratchi tomondan davlat qabul kommissiyasi qabuligacha barcha nuqsonlarni bartaraf qiladi va qurilish inshooti davlat qabul kommissiyasiga tavsiya bildiradi. Barcha sinov tekshiruvlar natijalari haqida akt tuziladi. Kompleksli sinab ko'rish muvaffaqiyatli tugagach, ishchi kommissiya inshootda qurilish ishlari tugatilgani haqida to'zilgan aktga imzo chekadi, davlat qabul kommissiyasiga takdim etish uchun, davlat qabul kommissiyasi tuzilishi yuqorida kayt etilgan.

Ko'rsatilgan aktlarga imzo chekilgandan boshlab elektr uskunar buyurtmachi tomonidan qabulqilingan hisobilanadi va ob'ekt barcha narsalari bo'tun saqlanishiga javobgarlik masuliyati buyurtmachiga yuklanadi.

Nazorat savollari

1. Elektr dvigatellar turlari va qo'llanilish soxalari.
2. Elektr dvigatellarni montaj oldi tekshirish va sinash ishlari.
3. Elektr dvigatellarni salt va yuklamada tekshirish afzaliklari.
4. Qisqa tutashgan rotorli va faza rotorli elektr dvigatellar farqi va ishlash prinsipi.
5. Erga ulash zaruriylik shartlari.
6. Erga ulash haqidagi ma'lumotlar.
7. Qurilmalarni erlash shartlari va erlash qarshilik ko'rsatgich miqdori.
8. Elektr uskuna va obektlarni ishga qabul qilish shartlari.

6- Ma'ruza

Elektr ta'minoti tizim uskunalari va havo liniyalarni ishlatilishi

Reja:

1. Elektr uskunalarni ishlatishni tashkil qilish.
2. Elektr ta'minot uskunalari ishlatilishiga qo'yiladigan talablar.
3. Havo liniyalarni ishlatish.
4. Havo liniyalari ishlatilishida texnik xizmat ko'rsatish.
5. Havo liniyalarni o'ta kuchlanishdan himoyalash.

6.1. Elektr uskunalarni ishlatilishini tashkil qilish

Uskunalarini ishlatilishi haqida umumiy ma'lumotlar.

Montaj, sozlash va rostdash ishlari tugatilgach elektr uskunalarni vazifalanishi bo'yicha ishlatilishi va korxona texnologik jarayonlari talablariga oid elektr qurilmalaridan foydalanish olib boriladi.

Ishlatilishi deganda uskuna ishlatishga qobiliyati va o'ni amalga oshirilishi texnik tavsiflari me'yorli hujjatlarda va loyihada nazarda to'tilganidek tiklanishi va saqlab to'rilishi tusho'niladi.

Ishlatilish davrida elektr uskunaga texnik xizmat ko'rsatish, xizmat ko'rsatuvchilar quyidagicha ajratiladi:

administrativ-texnik xodim, uskunaga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil qiluvchi, uskunani –tezkor boshqarish va ta'mirlash ishlari;

tezkor ish bajaruvchi, texnik xizmat ko'rsatishni bajaruvchi va tezkor boshqarish (ko'rib chiqishni olibborish, tezkor qayta ulashlar, ish joyini tayyorlash, ish boshlashga ijozat berish, ishlatilishiyotganlarni nazorat qilish;

ta'mirlovchi, Elektr uskuna va uskunadagi barcha ta'mirlash vaboshqa ishlarni bajaruvchi.

Elektr uskunalarni ishlatuvchi mo'taxassis bajaradigan ishi bo'yicha etarli darajada tayyogarlikdan o'tgan kvalifikatsiyali va elektr xavfsizligi guruhiga ega bo'lishi kerak.

Elektr qurilmalarini ishlatilishi texnik va tashkiliy holatlari bo'yicha, iste'molchilar elektr uskunalarni ishlatilishi texnik qoidalarida batafsil ifodalangan, bu barcha xalq xo'jaliksohalari uchun asosiy qoida hisoblanadi. Har bir korxona uchun shu qoidadan kelib chiqqan holda aniq sharoit holatiga ko'ra, shu joydagi korxona qo'llanmasi ishlab chiqariladi va elektr xo'jaligi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Uskunalar navbatdan tashqari ko'zatuvlar uskuna rele himoyasidan uchganida, tabiiy ofatlardan so'ng, ish sharoitining keskin o'zgartirishlarda olib boriladi.

Elektr uskunalarni ta'mirlash bilan xizmat ko'rsatishlarda, texnik tashkiliy ishlar, ishlab chiqargan korxona tavsiyasiga mos ravishda aynan izolyasiyalarni tozalash, ishqalanuvchi bo'laklarini moylash va ko'zatishda aniqlangan uskunadagi mayda nuqsonlar va kamchiliklar aniqlanadi.

Uskunalarini ishlatilishi davomida emiriladigan qismlari va o'ning taxnik tavsifi o'zgarishi ko'zatiladi.

Ko'zatishlar har doim ham texnik holatni va maqsadga muvofiq ishlatilishini davom etirish mumkinligini aniqlab berolmaydi. Ko'pincha ko'z bilan ko'zatib baho


berib ham bo'lmaydi.

YUqori dalolatli, ko'zatislarga nisbatan texnik holatga baho berishva keyinchalik ishlatilishini davom ettirish mumkinligini aniqlash, oldini olish sinovlari (parametrlarini o'lchash) va uskuna holatini diagnostika qilish usuli bilan amalga oshiriladi.

Buzilish (halakat)oldini olish sinash ishlar sig'imi va me'yorlarini tartibga keltirish aniq muddatlari, korxona texnik uskunalar xo'jalikboshlig'i va ishlab chiqarish korxonasi tavsiya qilgan qo'llanmalarga va ishlatilayotgan mahalliy sharoit bilan aniqlanib belgilanadi.

Uskunalarining diagnostikasi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- uskunalarining texnikko'rinish holatini aniqlash;
- buzilgan yoki ishga yaroqsiz joyini qidirish;
- texnik holatini oldindan aytib berish.



6.1- rasm. Uskunalarni ishlatilishining asosiy bosqichlari.

Texnik ko'rinish holatini aniqlashda-tiklash mumkin yoki tiklab bo'lmashligi haqida xulosa qilinadi va uskunaning ishga yaroqligi texnik holatini bashorat qilishda uskunaning to'xtovsiz ma'lum vaqt oralig'ida ishlatilish holatining qoldiqzahira chegarasiga baho beriladi.

shuntlovchi rezistorlar o'rnashish joylarida barcha fazalarning yo'qorigi elementlarida bir xil qizish;

amaliy jihatdanrazryadnikning birfaza elementlarida bir xildaharorattaqsimlanish; harorat farqi $0,5\div 5^{\circ}\text{S}$ chegarasida bo'lishi kerak, va bu razryadnik elementlar soniga bog'liq.

Xulosa qilib shuni qayd qilish mumkin, qizish nazorati odatdagi usullarga nisbatan asosiy afzalligi uskunalar holatini baholash.

Qizish nazorati uskunaning ish holatida, ya'ni kuchlanish va yuklama ostidagida olib boriladi. Bunday holatda tekshirish natijalari yuklamasiz yoki kuchlanishsiz tekshirishga nisbatan yo'qori aniqlikka ega hisoblanadi. Misol uchun, izolyatorlar shodalari yuklamasi - faqat kuchlanishini emas, bundan tashqari simlar tortilish kuchlari ham kiradi. Qizish nazorati aniqlagan izolyator shodalaridagi nuqsonlar, shodalarni tayanchlardan echib olib tekshirilganda ham aniqlanmasligi mumkin.

Qizish nazorati xoxlagan paytda uskunalarni o'chirmasdan olib boriladi. SHu sababli qizish nazorati korxona uskunalari o'zining asosiy vazifasi bo'lgan elektr energiya'ni taqsimlash va uzatishiga xalaqit bermaydi. CHunki uskuna nuqsoni ishlatilishiyotgan uskunada aniqlanadi, ya'ni nuqsonli uskuna ta'mirga chiqrishga tayyorlash uchun zaxirali muddatga ega, elektr uskunani o'chirmasdan nazorat o'tkazish ta'mirlash muddatini eng kamiga qisqartirish imkonini yaratadi.

Boshqa zamonaviy diagnostikalar turlari kabi, qizish nazorati ayrim hollarda transformator moyi xromatografik taxlilini olib borish imkoniga ega:

- shikastlanish yuz berishidan ogoxlantiradi va elektr uskunalar ishonchligini oshiradi vashu bilan iste'molchilar elektr ta'minoti ishonchligini ortiradi;

- sezilarli darajada ta'mirlash harajatlarini kamaytiradi, chunki shikastlanish boshlanish bosqichlarida aniqlab beriladi;

- 15 yil va undan ko'p ishlatilishigan elektr uskunalarining haqiqiy holatini baholashi, uskunalar uchun uning zaxira imkonyatiniochib berishieng aktual masala hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Elektr qurilmalar qizishini masofadan o'lchash va aniqlash nazorati.
2. Ob'ektlar qizishining tabiatlari turi va sabablari.
3. Ob'ektlar har bir nuqta xaroratining farqi nimaga bog'liq?
4. NS uskunalarining nuqsonli qizish ko'rsatgichlari.
5. Uskunalar qizish nuqtalarini tariflab bering.
6. Elektr NS uskunalarini qizish nazoratidan o'tkazish sabablari va muddati.

14 - Ma'ruza

Nimstansiya uskunalarini ko'zatish va sinash


Reja:

1. O'lchov transformatorlarining nuqsonlarini aniqlash, sinash va bartaraf qilish.
2. O'lchov transformatorlarini nuqsonlarini aniqlash usullari.
3. Reaktorlarni turlari.
4. Reaktorlarni ta'minlash va sinov ishlari.

14.1. O'lchov transformatorlarining nuqsonlarini aniqlash, sinash va bartaraf qilish


Nuqsonni oldini olish va ta'mirlash ishlarini bajarishda tok transformatorlarining, kontaktlar birikish holatlari, izolyasiya holati, ikkilamchi chulg'amlar erlanishi, moy sath ko'rsatgichi pasayishi 10% kamligi va moy sizish yo'qligi moy to'ldirilgan TTlarda, magnitlanish holatini tavsiflash o'ramlarda to'tashish yo'qligi va izolyasiya qarshiligi aniqlanadi. Moy sathi ko'p tushganida TTquritishga chiqarilishi zarur. 10 kV gacha kuchlanishdagi TT birlamchiyuklama (yoki ikkilamchida) tokida bajariladi, me'yori tokdan taxminan 20% ga ko'pida. Payvandlash transformatoridan T foydalanib TTizolyasiyasini birlamchi yuklama tokida quritish 14.1,a- rasmda ko'rsatilgan. Quritish 15-18 soat davom etishi mumkin, agar 3... 4 soat oraliqda qarshilik izolyasiya bir xilda turib bersa quritish me'yoriga etgan hisoblanadi. Quritish ishlari tugatilgach TT ni ulash oldidan chulg'amlar qutbilanishi tekshiriladi. Ikkilamchi chulg'amga magnit elektr tizimli mV millivoltmetr o'lanadi (14.31,b-rasm). Birlamchi chulg'am ayirgich QS bilan o'zgaras tok manbasiga 3.... 12 V. kuchlanishga o'lanadi. Agar ayirgich o'lanishida millivoltmetr strelkasi -o'ng tomonga og'sa (o'chiririshda -chapga og'sa), demak manba musbat qutbi va millivoltmetr musbat qutbi birxil chiqishlarga o'langan (boshlanishiga yoki oxirgi uchlariga). Magnitlanish tavsifi olinib, 14.1 v – rasmda natijaviy ko'rsatgichlar shunday rusumli yoki shu turdagi tuzuk tok transformatorlar tavsifi bilan taqqoslanadi. Agar to'g'ri kelsa yoki yo'qori bo'lsa, demak tok transformatori yaroqli. Agar tavsifi shu rusumlidan 20% ga kam bo'lsa, u xolda tok transformatori ta'mirlashga chiqariladi.

Ta'mirlash ishlari tugatilgach, TIQ va TXQ da ko'rsatilganidek, tok transformatori sinov hajmi va qutblarni ikkilamchi chulg'amlar belgilanishlari va transformatsiya koeffitsientini tekshiriladi. Qutblarni aniqlash sxemasi 14.1-rasmda keltirilgan. Buerda manba sifatida o'zgaras tokli akkumlyatordan yoki 2÷6 V. quruq batareyadan foydalaniladi. Tekshirishda ikki tomonlama ko'rsatuvchi shkalali galvanometr (magnit elektrik) strelkasi o'ng tomonga burilsa, (o'chirganda chap tomonda), u holda o'langanda manbaning musbat qutbi va galvanometr musbat qisqichi tok transformatorining birlamchi va ikkilamchi chulg'amlarini ko'rsatadiki.



14.1-rasm. Tok transformatorlarini quritish sxemalari: a) – birlamchi tok bilan; b)–chulgʻamlar qtublarini aniqlash; v) – TT magnitdanish tavsifini olish.


Tok transformatorlarining transformatsiya koeffitsientini tekshirish 14.2-rasm. pasportdagi koʻrsatilgan parametrlari bilan bir xilligi aniqlanadi. 14.3-rasm. tok transformatorlarining transformatsiya koeffitsientini aniqlash keltirilgan. YUklovchi transformatori yordamida $0,2I_1$ meʼyoridan kam boʻlmagan tok uzatiladi va A orqali nazorat qilinadi. Ikkilamchi tok ampermetr A_2 orqali nazorat qilinadi. Transformatsiya koeffitsienti birlamchi tokning (transformatsiya koeffitsienti K_{T1} xisobga olgan holda) ikkilamchi nisbati bilan aniqlanadi. Hozirgi davrda yopiq 35 kV gacha boʻlgan taqsimlash jihozlarida NOK rusumli kam hajmli, engil, yongʻindan xavfsiz va ishlatilishida oddiy, quyma izolyasiyalı oʻlchov kuchlanish transformatorlari qoʻllanilmoqda. Ishlatilishida koʻpincha oʻramlararo toʻtashuv sababli nosozliklar uchraydi. Boʻlar, birlamchi va ikkilamchi chulgʻamlar kuchlanish, izolyasiyaning magnitoʻtkazgichga birikib qolishi va boshqalar. Nosozliklarni oldini olish uchun doimo kuzatish va kuchlanish transformatorlarini tekshirish ishlari olib boriladi.



14.2-rasm. Oʻchirgichga kiritilgan tok transformatorlari qtublarini tekshirish: a) – oʻchirgichga kiritilgan; b) –kuch transformatorlarga yoʻqori kuchlanishli kiritgichlar.

Davriy qarab chiqish va oldini olish sinovlari elektr xoʻjalik raxbari tomonidan belgilanadi.

Kuchlanish transformatorlarining ishlatilishida va ularni taʼmirlanishida sinov ishlari olib borilishida oʻlchovi va parametrlari tekshiriladi, bundan maqsad: oʻz vaqtida transformatorning ishlatilishida oʻzgarish, uni safdan chiqishga sabab boʻlish oldini olishdir.




14.3-rasm. Transformatsiya koefitsientini aniqlash sxemalari – a, b; va v – shahobilangan tok transformatorlar belgilanishi.

Agar moy ko'rsatgichida kamayib ketsa, o'lchov tok va kuchlanish transformatorlari izolyasiyasini quritish ishlari bajariladi. Transformator izolyasiyasini 10 kV gacha bo'lganlarini o'rnatilgan joyida payvandlash transformatori yordamida birlamchi chulg'amlarga ketma-ket ulab, ikkilamchi chulg'amni qisqa tutashtirib, yoki birlamchi chulg'amlar bilan qisqa to'tashgan birlamchi chulg'amlarga ketma-ket ulab bajariladi.

Sezilarli darajada moy sathi pasayganida TN izolyasiyasini quritish olib boriladi(yuklamalar tokida) quritish usuli 26.3- rasmda ko'rsatilgan.

Izolyasiyadan namni chiqarib yuborish qisqa to'tashgan ikkilamchi chulg'am ajratib chiqarayotgan issiqlik evaziga amalga oshadi.TN quvvatiga ko'ra ikkilamchi tok A orqali rostlanadi.Quritishda chulg'amlar harorati 85⁰S dan oshmasligi kerak. TN ning ish rejimi qisqa to'tashuvga yaqin bo'lganligi sababli ularda TTlarga nisbatan kam. Ish jarayonida asosan nisbatan ko'p uchraydigan shikastlanishlar ikkilamchi chulg'amlaro'ramlar qisqa to'tashuvi hisoblanadi. Bunday nuqsonlarni aniqlashda saltyurish tokini o'lchash bilan aniqlanadi. Buning uchun TNbirlamchi chulg'ami holatida ikkilamchi g'altagiga me'yorli kuchlanish uzatiladi va shu chulg'am toki o'lchanadi.



14.4-rasm. TN ni yuklama toklarida izolyasiyasini quritish.

O'lgangan salt yurish tok natijasi TN pasporti ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. O'lchov natijalari va TN pasporti ma'lumot ko'rsatgichlaridan 20% dan ko'piga farq qilsa o'ramlar qisqa to'tashuvi mavjudligidan dalolat beradi. Bunday holatlarda TN ni ta'mirlashga chiqariladi.

CHulg'amlarini almashtirish bilan bog'liq, ta'mirlash ishlari tugatilgach TN ning transformatsiya koefitsienti va chulg'amlar o'lanish guruhi tekshiriladi.

Transformatsiya koefitsientini aniqlashda TN birlamchi chulg'amiga 380/220 V, ikkilamchi chulg'am ochiq. Birlamchi va ikkilamchi chulg'amlar kuchlanishlari o'lganadi. Transformatsiya koefitsienti birlamchi va ikkilamchi chulg'amlardagi o'lgangan kuchlanishlar nisbatiga teng. CHulg'amlar o'lanish guruhini aniqlash xuddi kuch transformatorlardagi kabi bajariladi (3.7- jadvalga qarang) [12]. TN birlamchi chulg'amiga fazometr ishlatilishiga etarli past kuchlanish uzatiladi. Fazometr ko'rsatgichi keltirilgan kuchlanish faza va ikkilamchi chulg'am kuchlanishi oraliq vektorlari burchak siljishi mos keladi, shu orqali chulg'amlar o'lanish guruhini aniqlaydi.

CHulg'amlar guruh o'lanishini tekshirish 3.7- jadval, 125-bet, [12].

14.2. Reaktorlarni ta'mirlash va sinov ishlari

Ta'mirlashga keltirilgan har bir qurilma avvalo tashqi nazoratdan o'tkaziladi har bir aniqlangan shikastlanishlar va elementlar holati ta'mirlash ishlarini rejalashtirish kitobga qaydqlinadi. Izolyasiya qarshiliklari har bir fazaniki alohida tanasiga nisbatan o'lganadi va qat qilinib ishlab chiqarish korxona ko'rsatgichlari bilan taqqoslanadi. Barcha nuqsonlar ko'rinish holatiga ko'ra reja tuzilib zaruriy ta'mirlash materiallari jamlanadi. Umumiy ta'mirlash muddati belgilanib, son jihatidan va mo'taxassislik kvalifikatsiyasi to'g'ri keladigan birigadaga topshiriladi, ish bajaruvchi brigada boshlig'i har kuni ish kuni tugagach bajarilgan ishlar agar ta'mirlashga salbiy ta'sir etuvchi muammolar mavjud bo'lsa bo'lar haqida ma'lumot berishi va echimi nimalarga bog'liqligini bildirib turishi zarur. CHunki ta'mirlash o'z vaqtida va etarli sifatli bajarilishi kerak.

Ta'mirlash davrida shakli o'zgargan o'ramlar to'g'rilanadi, buzilgan lakqoplama va ustunlar holati tiklanadi. Lakqoplamani tabiiy olif yoki lak yordamida tiklanadi.

Reaktorlar ishlatilish davrida me'yorli tokdan quydagicha ortiqcha yuklanishda ishlatilishi mumkin:

Ortiqcha yuklanish%:20 30 40 50 60

YUklanish davom etish muddati min: ...60 45 32 18 5

Reaktorning qisqa vaqt o'tayuklanishda ishlatilish muddatini bundan oldin kam yuklamada ishlatilishgan bo'lsa, quyidagi formula orqali topish mumkin:

$$t = T_0 \ln \frac{K_{\text{nep}}^2 + K_{\text{g}}^2}{K_{\text{nep}}^2 - 1},$$

bu erda T_0 – reaktorning doimiy ish vaqti (15 – 45 min), K_{per} – o'tayuklanish tokining me'yorli tokka nisbati; K_{yu} – o'tayuklanishgacha tokning me'yorli tokka nisbati.

Qo'shaloq reaktorlar o'ta yuklama uzoq muddat bir o'ramni boshqasining

kamyuklamasi hisobiga davom etadi. O'tayuklama bir o'ramniki taxminan 5 – 7 metr boshqasidan kamyuklamada bo'ladi.

Agar atrof muhitharorati $\theta_1 + 35^\circ$ S dan kam bo'lsa, u holda chegaralangan o'tayuklamaga $\Delta I\%$ (20% dan bo'lmasin) quyidagi formuladan aniqlanadi:

bu erda – chulg'amlarda harakatning ruxsat etilgan chegarasi; I_n , I_p – me'yorli va o'tayuklama toklari.

Reaktor notekis so'tkali grafikka binoan uzliksiz o'tayuklanishda ishlatilishiyotgan bo'lishi mumkin. So'tkali grafik to'ldirish koeffitsientiga bog'liq holda va cho'qqili yuklanish davom etish vaqti t_{max} .

Nazorat savollari

1. O'lchov transformatorlarining nuqsonlari va ularning kelib chiqish sabablari.
2. Tok va kuchlanish transformatorlarida sodir bo'lgan nuqsonlarni bartaraf qilish usullari.
3. Reaktorlar ta'mirlash nimalardan iborat.
4. Reaktorlarni sinash.
5. Reaktorlarni liniyalardagi qisqa tutashuvdan so'ng kuzatishlar va sodir bo'ladigan nuqsonlar.
6. O'lchov transformatorlarining chiqish uchlari o'rnatib zanjirga ulanishiga qadar nima uchun qisqa tutashtiriladi.

15 - Ma'ruza


Elektr dvigatel va erga zaminlagichlarni tekshirish va sinash

Reja:


1. Elektr dvigatellar izolyasiyasini quritish uslublari.
2. Elektr dvigatellarni sinov ishlari.
3. Sinxron generator va kompressorlar sinov ishlari.
4. Erga ulash qurilmalarini ishlatish ishonchligini ta'minlash.

15.1. Elektr dvigatellar izolyasiyasini quritish uslublari

1. Tashqi qizitish bilan quritish. 15.1 – rasmda dvigatellarni tashqi qizitish bilan quritish sxemasi ko'rsatilgan.
2. O'zgarmas tok manbasi orqali quritish past kuchlanishga ega bo'lgan etarli quvvatli o'zgaruvchan yoki o'zgarmas tokda harakatsiz asinxron dvigatel chulg'amlarida misdagi isrof hisobiga quritiladi. O'zgarmas tokda quritganda stator va rotor chulg'amlari ketma-ket o'lanadi, agar oltita uch chiqqan bo'lsa, 15.2 – rasm, yoki aralash o'lansa, u holda davriy ravishda fazalarni qayta ulab turiladi va chulg'amlar harorati har bir fazada o'lchab turiladi. Quritish toki 40-70% me'yorli tok miqdorida ushlab turiladi. Qizitish harorati uzatilayotgan kuchlanishni rostlash hisobiga rostlanib turiladi.




15.1 – rasm. Tashqi isitish bilan dvigatellarni quritish.



15.2 – rasm. O‘zgaruvchan tokda uch fazali dvigatellarni quritish: a) – oltita uchlari chiqarilgan bo‘lsa o‘zgarmas tokda stator va rotor chulg‘amlarini ketma-ket ulab quritish; b) – chulg‘amlarni aralash ulab quritish.

3. Stator aktiv po‘latidagi isrof hisobiga quritish. Qayta magnitlanish va uyurma toklar hisobiga po‘latdagi quvvat yo‘qolishi hisobiga sodir bo‘ladi. Bir fazali manbaga o‘langan maxsus magnitlovchi chulg‘am statorda o‘zgaruvchan magnit maydonini tashkil qiladi. Haroratni rostlash uchun o‘ramlar sonini yoki uzatlayotgan kuchlanish o‘zgartiriladi. Qurituvchi ta‘minoti manbasi sifatida 1000A ga teng bo‘lgan payvandlash transformatori yoki 6000/400V kuch transformatorlari, yo‘qori kuchlanishli chulg‘amini 400Vga ulab ishlatiladi. 15.3 - rasmda, stator po‘latidagi aktiv isrof hisobiga quritish sxemasi.



15.3 – rasm. a) – Stator aktiv po‘latidagi yo‘qolish hisobiga quritish, b) – Stator tanasidagi yo‘qolish hisobiga quritish.

4. Stator qobig‘idagi isrof hisobiga quritish. Bu usul kichik va o‘rta quvvatli qalqonli (shchitli) podshipnikli dvigatellar uchun qo‘llaniladi. Magnitlovchi chulg‘am izolyasiyal o‘tkazgichlar qobiq sirtiga (joylashtiriladi) o‘raladi. Ta‘minoti manba sifatida yuklama ostida rostlovchi payvandlash transformatorlaridan foydalaniladi.

5. “Sudraluvchi tezlikli” o‘zgarmas tokli dvigatellarni quritish.

Bu usul salt yurishda ishlovchi tugunli chulg'am yakorli, ko'p qutbli dvigatellar uchun qo'llaniladi. YAkorga me'yoridan ancha kichik kuchlanish uzatiladi, uyg'otish oqimi dvigatelning aylanish tezligi sun'iy ravishda kamayadi va sinxron dvigatel (50-60% me'yorli toki) yakor tokini yaratishga etarli. Oldingilardagi kabi g'altakning bir bo'lagi aylanish momentini, boshqasi to'xtatgich momentni tashkil qiladi. Haroratni uzatilayotgan kuchlanishni rostlash orqali o'zgartiriladi.

15.2. Elektr dvigatellarni sinov ishlari

Ishga tushiriladigan o'zgaruvchan tok dvigatellarni quyidagi topshirish-qabo'l qilish sinovlari bajariladi:

1. 1 kV dan yo'qori kuchlanishli dvigatellarni quritmasdan ulash mumkinligini aniqlash. Bu asosan chulg'amlar qarshiliklarini o'lchov natijalari bilan belgilanadi.

2. Qarshilik izolyasiyasini o'lchash:

1 kV gacha bo'lgan elektr dvigatel stator chulg'amini 1 kV kuchlanish megaohmmetr yordamida olib boriladi (qarshilik izolyasiyasi me'yorlanmaydi).

Sinxron dvigatellar rotor chulg'amlari va faza rotorli 1kV gacha bo'lgan kuchlanishli dvigatellar (qarshilik izolyasiyasi me'yorlanmaydi).

1 kV dan yo'qori kuchlanishli sinxron dvigatellar podshipniklari (qarshilik izolyasiyasi me'yorlanmaydi).

3. Sanoatchastotasidayo'qorikuchlanishdasinash: sinov kuchlanishi me'yorli (4.17-jadval) [12] da keltirilgan.

4. Qarshilikni o'zgarmas tokda o'lchash:

1 kV dan yuqori dvigatellarning stator va rotor chulg'ami, quvvati 300 kVt va katta quvvatli; har xil fazalar chulg'amlari qarshiligi o'lchovlari bir biridan yoki ishlab chiqargan korxonalar raqamlaridan 20% dan ko'p bo'lmasligi kerak;

1 kV dan yo'qori kuchlanishli barcha ma'suliyatli dvigatellar reostatlar va ishga tushiruvchi qarshiliklar uchun.

Qolgan dvigatellarni umumiy qarshiligini o'lchaydi va ajralib chiqqan shoxachalar (otpayki) bo'tunligini tekshiradi. O'lchangan qarshilik va pasportidagi ma'lumotlardan 10% dan ortiq bo'lmasligi kerak.

5. 100 kVt va undan katta quvvatli dvigatellarda stator va rotor o'rtasidagi oraliqlarni o'lchash (agar tuzilish jihatdan imkoniyat bo'lsa).

O'zaro havo oralig'i diametri qarama-qarshi nuqtalar yoki 90° ga surilgan rotor o'qiga nisbatan nuqta va o'rtacha havo oralig'i 10% dan ko'pini tashkil qilmasligi kerak.

6. Sirpanish podshipniklar oralig'ini o'lchash.

Dvigatellarning sirpanish podshipniklarning chegaralangan oraliqlari 32.3 – jadval (4.5 va 4.6 –jadvalar) [12] da keltirilgan.

salt ishlatilish - (SI).

7. Dvigatelni SI da yoki yuklanmagan mexanizm bilan ishlatilishini tekshirish.

GOST 7217-79 ga asosan SI tajribada chiziqli tok va me'yorli kuchlanishdagi isrof o'lchanadi. Dvigatelning SI toki me'yorlanmaydi. Tekshirish davomiyligi 1

soat. P_0 SI yo'qolishi, SI tokidan po'latdagi P_{st} statordagi P_{OM} va mexanik P_{MEX} isrof. Stator chulg'amidagi isrof quyidagi formula orqali topiladi:

$$P_{om}=1,5I_{OL}^2r_{10L}/1000 \quad (1)$$

bu erda I_{OL} – SI chiziqli toki, A; r_{10L} – tajriba paytidagi ikki, uch orasidagi stator chulg'amlari qarshiligi, Om.

SHuni e'tibordan chiqarmaslik kerakki, sirpanish ortishi natijasida kuchlanish pasayadi, eng past kuchlanishlarda qarshilik oshadi.

5. Elektrdvigatel podshipniklarining titrashini o'lchash.

Eng yo'qori titrash quyida ko'rsatilgan qiymatdan yo'qori bo'lmasligi kerak:

Sinxron davriy

aylanish, ay/min 3000 1500 1000 750 va pasti

Ruxsat etilgan titrash

amplitudasi, mk 50 100 130 160

6. Sirpanish podshiniklariga ega bo'lgan dvigatellarda rotorning o'q yo'nalishidagi tezligini o'lchash. 2-4 mm dan ko'p bo'lmagan ruxsat etilgan tezlikni tashkil qiladi.

7. 5-10 mm oralig'ida 0,2-0,25 MPa bosim ostida havo sovo'tgichni gidravlik sinash.

8. Dvigatelni yuklama ostida tekshirishda, dvigatel ishi sinovi yana FIK ni aniqlash, quvvat koeffitsientini va sirpanishni aniqlash va boshqalar, ya'ni dvigatelning ishchi tavsifini tekshirish kiradi.

Ishchi tavsifi deganda iste'mol quvvatgabog'liqligi, tok, sirpanish, FIK va quvvat koeffitsienti, chastotaning barqaror paytidagi va kuchlanish o'langanda me'yorli o'zgarmas holatdagi foydali quvvatga nisbatan olinadi.

Ishchi tavsifni olayotganda liniyadagi kuchlanish va tok, iste'mol qilinayotgan quvvat va sirpanish o'lchanadi. Haqiqiy o'lchov qiymati sifatida ularning o'rtacha arifmetik qiymati qabo'l qilinadi.

Iste'mol qilinayotgan quvvat ikkita vattmetrlar sxemasi yoki uch fazali xisoblagichlar bilan o'lchanadi.

9. Dvigatelning sirpanishini quyidagi usullarning birortasi bilan aniqlanadi:

- Stroboskopik usul – o'q oxiriga qora sektorlarga bo'linganaylanuvchi halqa o'rnatiladi, ularning soni ikki qutb soniga teng. Halqani stroboskop lampa bilan, shu tarmoqdan iste'mol qilayotgan dvigatel tarmog'iga ulab yoritiladi, harakatsiz ko'rsatgichga nisbatan sektorlarning soni va vaqtda o'tishini o'lchaydi.

Sirpanishni % da formulada aniqlaydi:

$$S=\frac{100N}{fT} \quad (2)$$

Bu erda N – ko'rsatgich qarshisidan sektorlar son o'tishi; T – tajriba davomiyligi; f – ta'minoti manba chastotasi.

- Rotor davriy aylanish toki bo'yicha, rotor zanjiriga parallel qo'yilgan qarshilik (shunt) o'lanadi, o'nga magnit elektr tizimli o'rtasida nolli millivoltmetr o'lanadi. Sekundomer orqali ma'lum davr oraliq vaqtda strelkani chayqalishi N o'lchanadi. Sirpanish (2) bo'yicha hisobilanadi.

- Maxsus sirpanishni o'lganlar.

Aylanish davrini o'lganlar, bir aylanishga ko'p impuls beruvchi (datchiklarga) o'lgan o'zgartgichlarga asoslangan.

Solishtirma xatolik sirpanishni aniqlaganda keltirilgan usullarning har birida xatolik 5% dan oshmasligi lozim.

O'lgan natijalarini quyidagicha sayqallashtiriladi (obrabatyvayut). Quvvat koeffitsienti topiladi:

$$\cos \psi = P_1 / (\sqrt{3} U_N I), \quad (3)$$

bu erda P_1 – iste'mol qilinadigan quvvat, Vt ; U_N – me'yorli liniya kuchlanishi, V ; I – liniya toki, A .

Agar uning kafolatlangani 80% dan yo'qori bo'lsa, dvigatelning FIKialohida isrof usuli formulasidan topiladi:

$$\eta = 100(1 - \sum P / P_1). \quad (4)$$

Dvigatelning foydali quvvati P_2 topiladi, iste'mol qilinayotgan quvvat P_1 ning umumiy isrofga nisbati bilan:

$$P_2 = P_1 - \Delta P = P_1 - (P_{M1} + P_{ST} + P_{MEX} + P_{M2} + P_D), \quad (5)$$

bu erda P_{ST} , P_{MEX} – po'latdagi va mexanik isrof tajriba SI dan topilgan; P_{M1} – stator chulg'amidagi isrof, kVt .

$$P_{M1} = 1,5 I^2 r \cdot 10^{-3}; \quad (6)$$

bu erda I_1 – liniya toki, A ; r – stator chulg'amining ikki uchi orasidagi qarshilik, ishchi haroratiga kiritilgan holat uchun, Ωm ; R_{m2} – rotor berk zanjiridagi (konturidagi) isrof, kVt .

$$P_{M2} = (R_1 - R_{st} - R_{m1}) \cdot S / 100. \quad (7)$$

Qo'shimcha yo'qolish, kVt ,

$$R_D = 0,005 R_1 (I / I_n). \quad (8)$$

Bu usul orqali elektr dvigatellar chulg'amlarining to'g'ridan-to'g'ri o'rtacha haroratini hisoblash mumkin. Buning uchun chulg'amlarining boshlang'ich va qizigan holatdagi qarshiliklari aniqlanadi.

Harorat $75^\circ C$ dankam bo'lganda bu qarshiliklarni to'g'rilash koeffitsienti K_θ qiymatiga ko'paytiriladigan, ko'rsatgich quyida ko'rsatilgan:

$$\theta^\circ C \dots 7,5 \quad 60 \quad 70 \quad 50 \quad 40 \quad 30 \quad 20 \quad 10$$

$$K_\theta \dots 1,0 \quad 1,2 \quad 1,8 \quad 2,6 \quad 3,9 \quad 4,5 \quad 8,5 \quad 12$$

1. Qarshilik izolyasiyasini o'lgan. Sinxron generator va kompensatorning me'yorli kuchlanishi $1kV$ gacha bo'lsa, stator chulg'amlarining izolyasiyasi $10-30^\circ C$ haroratda $0,5 \text{ MOm}$ dankam bo'lmaganida ishga tushirishga ruxsat beriladi. Rotorning chulg'amlar qarshilik izolyasiyasi 20000 Omdan kam bo'lmazligi kerak.

Stator chulg'amlar qarshilik izolyasiyasi 2500 V megaommetrda, rotor ulg'ami 1000 V megaommetrda o'lganadi.

Generatorning uyg'otish zanjiri va uyg'otgichga o'lgan apparatlari bilan birgalikda qarshilik izolyasiyasi 1 Momdan kam bo'lmazligi kerak.

2. Sanoat chastotasida yo'qori kuchlanish orqali izolyasiyani sinash. (4.14- jadval) [12] da sinash kuchlanishi ko'rsatkichlari keltirilgan. 4.14 da keltirilgan kuchlanish miqdori ishlab chiqaruvchi korxona sinov kuchlanishining 80% ini tashkil qiladi.

Stator chulg'amlar qarshilik izolyasiyasini sinash, rotorni kiritmasdan sinash tavsiya etiladi va asosiy diqqat tirsak qismi (lobovyy chasti)chulg'am tojlanishiga qaratilishi kerak.

Rotor qarshilik izolyasiyasini rotorning me'yorli aylanishida sinaladi.

dvigatellarni ishga tushirishdan oldin stator chulg'amlar izolyasiyasini o'zgaruvchan me'yoriy kuchlanishga teng yoki to'g'rilangan $1,5U_N$ 1min davomida sinov nazorati olib boriladi.

3. O'zgarmas tok ostida qarshilikni o'lchash. Qarshilikni voltmeter-amper usulida yoki juft ko'prik (dvoynogo mosta) usulida o'lchanadi. dvigatellarning chulg'amlari yulduz yoki uchburchak o'langan bo'lib, tashqariga faqat uchta uch chiqarilganida, uchlar juft-juft o'zgarmas tok orqali qarshiligi o'lchanadi. Alohida fazalar qarshiligi ifodalardan aniqlanadi:

YUlduz o'langanlar uchun:

$$R_1=0,5(R_{12}+R_{13}+R_{23});$$

$$R_2=0,5(R_{12}+R_{23}+R_{13});$$

$$R_3=0,5(R_{13}+R_{23}+R_{12});$$

Birxilo'langanda:

$$R_1=R_2=R_3=0,5R_{12}$$

Uchburchak o'langanda va bir xil o'lchanganda:

$$R_1=R_2=R_3=1,5R_{12}.$$

O'lchov jarayonida chulg'amlar haroratini inobatga olish kerak.

Qarshiliklarni o'zgarmas tok ostida o'lchagandagi ruxsat etilgan og'ishi (4.15- jadval) [12] da keltirilgan.

4. Rotor chulg'amlar qarshiligini o'zgaruvchan tok ostida o'lchash.

O'ramlar to'tashganini aniqlashda faqat ayon qutbli (yavno polyusnyx) rotorlarda olib borilishi mumkin.

220V kuchlanishdan ko'p bo'lmagan ikki qutb birgalikda yoki alohida har bir qutbda o'lchov olib boriladi. Ishlab chiqargan korxonalar bergan (ma'lumot) raqamlardan yoki o'rtacha qutblar qarshiliklari o'lchov aniq chegarasida bo'lishi kerak.

5. Havo oraliqlarini o'lchash:

1) Generatorning rotor va stator oralig'i;

2) YAKor uyg'otgichi va qutblar oralig'i;

Diametr bo'yicha qarama-qarshi nuqtalarda oraliqlar bir-biridan $\pm 10\%$ dan ko'p farq qilmasligi kerak, o'rtacha kattaligi ularning yarmining yig'indisiga teng. Ayon qutbli dvigatellarning havo oralig'i hamma qutblar ostida o'lchnadi.

6. Generator tavsifini olish (sinxron kompensatorlar uchun tezlatuvchi dvigatellarga ega bo'lsa olib boriladi):

- 1) Uch fazali qisqa to‘tashuvda (QT);
- 2) Salt yurishda (SYU).


Uch fazali barqaror QT da generatorning ishlatilishiyotgan holatida uyg‘otish dvigatel tokidan stator chulg‘am zanjiridagi tokka bog‘liqligini QT tavsifi ko‘rsatadiki.

Bu tavsifni misdagi aktiv isrofini va generatorning ko‘rsatgichlarini hisoblashda foydalaniladi:

$$\Delta P_M = mI^2 R,$$

bu erdam-faza soni; I-stator toki; R-75⁰S dagi stator fazalar qarshiligi.

Uyg‘otish chulg‘ami tavsifini olishda rostlanadigan o‘zgarmas kuchlanish manbaga o‘lanadi. 15.4 - rasmda, uyg‘otish I toki va fazalarda toklar I_K o‘lchanadi. CHunki tavsif to‘g‘ri chiziqdan iborat, shu sababli uch-to‘rtta o‘lchov olish etarli. 15.4,b-rasmda, qoldiq magnitlanish yo‘q holatidagi sinxron generatorning QT tavsifi ko‘rsatilgan.



15.4 – rasm. a) - Asboblarni ulash sxemasi; b) - generatorning QT tavsifini olish uchun.

Olingan QT tavsif ishlab chiqargan korxonanikidan o‘lchov aniqlik chegarasida bo‘lishi kerak. Sezilarli darajada, mumkin bo‘lgan ko‘rsatgichdan oshib ketishi, rotor chulg‘amlarida o‘ramlar to‘tashuvi borligini bildiradi.

SYU tavsifini olishdan oldin sinxron kompensator va turbogenerator 130% U_N yoki gidrogenerator 150% U_N dan kam bo‘lmagan kuchlanishda o‘ram izolyasiyasini sinash uchun, uyg‘otishni silliq kerakli me‘yorli uyg‘otish tokigacha ko‘tariladi.

Eng katta kuchlanishni 5 min ushlab turiladi, shu davrda SYU tavsifi bilan birga kuchlanishlar bir tekisligi tekshiriladi va u quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\varepsilon = \frac{U_{max} - U_{min}}{U_{\text{yfp}}}$$

Kuchlanishni o‘lchashda o‘lchov kuchlanish transformatorlaridan foydalaniladi.

7. Uyg‘otgich tavsifini olish:
 - 1) Salt yurish;
 - 2) YUklanishli tavsiflari.

Ishlatilishi jarayonida erga zaminlagich qurilmalar ko‘rinadigan qismlarini davriy tashqi tekshirishlar olib boriladi: Qarab chiqishda, erga zaminlagich va erlanish elementlar orasidagi zanjir borligi (uzilishlar yo‘qligi va qoniqorsiz kontaktlar o‘tkazgichda yo‘qligi), va yana transformatorlar sizish saqlagichlari borligi, erga zaminlagich qurilma faza-nol tugining to‘la qarshiligi tekshiriladi; erga zaminlagichlar qarshiligi o‘lchanadi, “faza-nol” tugin to‘la qarshiligi, tabiiy erga zaminlagichlar o‘lanishining ishonchligi er ostida joylashtirilganlarini; ora-sira o‘tkaziladigan erga zaminlagich elementlarni sinov-tekshirish uchun ochiladi, erning

solishtirma qarshiligini 1 kV gacha kuchlanishli elektr uzatish liniya tayanchlari uchun o'lchanadi.

Aniqlangan nosozliklar va ularni bartaraf qilish uchun olib borilgan tashkiliy ishlar haqida qisqa va aniq tezkor (operativ) kitobga yoki mos keladigan navbatchilik kitobiga yozib quyiladi.

Nollash erga zaminlagich magistral oralig'ida va qurilma erlanishida zanjir borligi, va yana sizish saqlagichlar holati qurilmalarni har bir ta'mirlanishida yoki ularni joyi almashtirilganida zanjir tekshiriladi.

Har bir tabiiy va sun'iy erga zaminlagichlarni, har bir ta'mirlanish tugatilganidan keyin ularning o'lanishi ishonchligi tekshiriladi va ularning qarshiligi o'lchanadi. Eng yo'qori ruxsat etilgan erga zaminlagichlar qarshiliklarining ($0.5 \div 50$ Ohmni tashkil qiladi) aniq qiymati va yashindan himoya qurilmalar ko'rsatgichlari, 70-jadvalda [15] keltirilgan.

Nazorat savollari

1. Elektr dvigatellar izolyasini tekshirish va quritish usullari.
2. Elektr dvigatellarda sinov ishlari.
3. Sinxron generator va kompensatorni sinash ishlarining bajarilishi.
4. Erga ulash qurilmalarni ishlatish ishonchligini ta'minlash.
5. Erga zaminlagich qurilmalar konturi qarshiliklarini ulash va qarshilik ko'rsatgichlari miqdori.
6. Erga zaminlagich qurilmalar gorizontal va vortikal elektrozlari qanday materiallardan tayyorlanadi.

Adabiyotlar

1. Electric power System basics. Steven W.Blume. 2007 Canada 237.
2. Electrical Energy Systems. Muhamed E.El Hawary USA 2000. 369
3. Introduction to Electrical power systems. Muhamed E.El Hawary USA 2008. 397
4. Power system Analyses and Design. J.Duncan Glover. USA 2012. 853
5. High voltage Reactive. Alstom USA 2010 34.
6. Fundamentals of Electric Circuits. FIFTH EDITION Charles K. Alexander, Matthew N. O. Sadiku. USA 2013. 905.
7. Правила устройства электроустановок (ПУЭ) / Государственная инспекция “Узэнергонадзор”. Под общ. ред. Л.Д. Ниматуллаев, Б.Т. Ташпулатова, А.Н. Усманова /MChJ «Fan-Poligraf, 2011.
8. Правила технической эксплуатации электрических станций и сетей Республики Узбекистан. Ташкент, 2005.
9. Короткевич М.А. Основы эксплуатации электрических сетей:-Учеб. пособие.-Мн.: Выш. шк., 1999.
- 10.Сибикин Ю.Д., Сибикин М.Ю. Справочник по эксплуатации электроустановок промышленных предприятий: 5-е изд., испр. и доп.- М.: Выш. шк., 2002.
- 11.Быстрицкий Г.Ф., Кудрин Б.И. Выбор и эксплуатация силовых трансформаторов: Учеб. пособие для средн. проф. образования.-М.: Издательский центр «Академия», 2003.
- 12..Справочник по силовому и вспомогательному электрооборудованию на электростанциях и подстанциях./ С.Е. Коршунов, Н.М. Лернер, Г.П. Синцов; Под ред. Н.А. Иванова, С.Г. Н.Г. Этуса. - 3-е изд, перераб. И доп. - М.: Энергоатомиздат,1991.
- 13.Справочник электромонтажника.Бондаренко В.П.,Плетник М.И. / 3-е изд., перераб. и доп.- Киев: Бездельник, 1996.
- 14.Трунковский Л.Е. Обслуживание электрооборудования промышленных предприятий: Учебник для сред. проф. техн. училищ. – 2-е изд. –М.: Выш.школа, 1999.
- 15.Князевский Б.А., Трунковский Л.Е. Монтаж и эксплуатация промышленных электроустановок: Учеб.для вузов по спец. «Электроснабжение промышленных предприятий, городов и сельского хозяйства». - 2-е изд., перераб. и доп.-М.: Высш. шк., 1994.
- 16.Федоров А.А., Попов Ю.П. Эксплуатация электрооборудования промышленных предприятий: Учеб. пособие для вузов.-М.: Энергоатомиздат, 1996.
- 17.Коршунов С.Е. и др. Справочник по монтажу силового и вспомогательного электрооборудования на электростанциях и подстанциях /Под ред. Н.А. Иванова, Н.Г. Этуса- 3-е изд., перераб и доп-М.: Энергоатомиздат, 1991.
- 18.Атабеков В. Б. Электр тармоқлари ва куч электр қурилмаларини монтаж қилиш: Ўрта ҳунар техника билим юртлири учун дарслик.–4-нашри.-Т.: Ўқитувчи, 1995.

- 19.Рожкова Л.Д., Козулин В.С. Электрооборудование станций и подстанций: учебник для техникумов. 3-е изд., перераб. и доп. -М.: Энергоатомиздат, 1997.
20. Соколов Б. А., Соколова Н. Б. Монтаж электрических установок. 3-е изд., перераб. и доп. -М.: Энергоатомиздат, 1991.

LABORATORIYA ISHLAR MAVZULARI

1- LABORATORIYA ISHI

Absorbtsiya usulida Elektr qurilmalar izolyasiyasi qarshiligini o'lchash

Ishning maqsadi

Talabalarni elektr apparatlar, mashina, transformatorlar, kabellar, izolyatorlar va o'chirgichlar izolyasiya qarshiliklarini o'lchashini o'rgatish.

Ishni bajarish uchun mashina, asboblari va ularning texnik ma'lumotlari 1.1-jadval

Nomlari	Turi	Me'yoriy ko'rsatkichi	Soni, dona.
Megaohmmetr	M1101	100 V, 1000 MOhm	1
Transformator	TM 30/10	10/0,4 kV	1
Elektr yuritgich	AOL	380/220	1
Kabel	AAV, ASB, SB, AASHv	1-3 metrli bulaklar	Har xil ko'ndalang kesimli
Daqiqani o'lchagich			1
Simlar	PVG	2x2,5 va 2x4,0 mm²	2 + 2 metr
Izolyator	SHJB, SHF, SHD va boshqa	10, 35 kV	3-6

Ishning qisqacha mazmuni

Elektr uskunalarning me'yoriy ishlashi ularning ishga yaroqligi, elektr zanjirlari o'zaro va erga nisbatan (qurilma tanasi yoki) izolyasiyasining holatiga bog'liq. Izolyasiya ishlatilish davomida mexanik zo'rliqlar ta'siri va atrof muhit sharoitlari: haroratlar, namliklar, moy, kimyoviy moddalar, chang va boshqalar ta'sirida muntazam emiriladi (eskiradi).

Izolyasiyaning emirilishi materiallarining o'z tarkibi o'zgarishi, elektr va mexanik bardoshligi pasayishi, qattiqlashish, izolyasiya gilzasining va faza izolyasiyasining shishib ketishi, izolyasiyaning yorilish, lak qoplama qobig'ining shikastlanishi yoki lakning oqib ketishi, o'ta qizishdan izolyasiya materiallari rangi qorayib ketishi va boshqalar. SHu sababli ishlatish sharoitida va yana yangi ob'ektlarni ishga tushurishda, izolyasiya tuzukligi albatta nazorat qilinishi zarur hisoblanadi.

Ishni bajarish tartibi

1. Laboratoriya ishini o'rganish.

2. Elektr uskunalarni, simlarni va asboblarni tanlash va (o'rnatish) tayyorlab kuyish.
3. Rasm.1 1-8 sxemalardagi har xil holatlar uchun megaohmmetrni o'lash va o'lchashni o'rganish.
4. Absorbsiya usulida transformator va boshqa uskunalar izolyatsiyasi holatini tekshirish.
5. O'lchashda olingan barcha asosiy ma'lumotlarni hisobotga kiritish (yozish), 1.2-jadval bilan taqqoslash va absorbsiyaning pastki koeffitsienti chegaraviy qiymati ko'rsatgichi yoki ishlab chiqargan (yaratgan) korxona ma'lumotlari bilan taqqoslash, izolyatsiya holatiga (yakun yasash, xulosa chiqarish) baho berish.
6. Agar izolyatsiya qarshiligini o'lchash har xil haroratlarda olib borilsa, u holda izolyatsiya qarshiligini bir xil haroratga keltirish zarur, buning uchun jadvaldagi koeffitsientdan foydalanib, hisoblashda bir xil haroratga keltiriladi.

Absorbsiya usuli elektr uskuna izolyatsiyasi chulg'amiga kuchlanish o'rnatilgach, megaohmmetrninghar 15 va 60 daqiqada olinganko'rsatgichini taqqoslashga asoslangan:

$$K_a = \frac{R_{60}}{R_{15}}$$

bu erda K_a - absorbsiya koeffitsienti;

R_{60} - kuchlanish o'rnatilgandan keyin 60 daqiqadan keyin olinganizolyatsiya qarshiligi, Ohm;

R_{15} - 15 daqiqalik izolyatsiya qarshilik ko'rsatgichi, Ohm.

Absorbsiya pastki chegaraviy koeffitsienti (pastki ko'rsatgichi) sinxron mashinalar uchun, yirik asinxronli yuritgichlar va kuch transformatorlarga, quritish talab qilinmaydiganlariga, qabo'l qilinadi..


$$K_a = \frac{R_{60}}{R_{15}} \geq 1,3$$

CHulg'amlar harorati $t = 10 - 30^\circ\text{C}$, izolyatsiya quruq bo'lganida $K_a = 2 \div 3$ va undan yuqori, nam holatida K_a 1ga yaqinlashadi.


Haroratga bog'liq holda izolyatsiya qarshiligining minimal ruxsat etilgan chegaraviy ko'rsatgichi 1.2- jadval

CHulg'amlar ar ishchi kuchlanish i	Izolyatsiya holatini Baholash	Haroratlarda chulg'amlar izolyatsiya qarshiligi darajalarda, Mom								
		10	20	30	40	50	60	70	80	90
6-10 kV	Yaroqli	900	450	225	12	64	36	19	12	8
	To'liq kamc hiliksiz emas (yaroqsiz)	600	30	150	80	43	24	13	8	5


1-rasm. sxemalardagi har xil holatlar uchun megaommetrni o'lash va o'lchashni o'rganish: 1-sonli laboratoriya ishining elektr sxemasi:




1- yuqori va pastki kuchlanishli chulg'amlari (oralig'idagi) o'zaro izolyasiya qarshiligini o'lchash sxemasi;




2- erga nisbatan pastki kuchlanishli chulg'amlar izolyasiyasi qarshiligini o'lchash sxemasi;




3- yuritgich chulg'aming erga nisbatan izolyasiya qarshiligini o'lchash sxemasi;




4- yuqori kuchlanishli kabel tolalarining o'zaro izolyasiya qarshiligini o'lchash sxemasi;




5- kabel tolalari izolyasiya qarshiligini o'lchash sxemasi;



6-yuqori kuchlanishli chulg'amlarning erga nisbatan izolyasiya qarshiligini o'lchash sxemasi;



7- izolyatorning izolyasiya qarshiligini tekshirish sxemasi;



8- o'chirgichning harakatsiz va harakatlanuvchi kontaktlar o'zaro va ikkala kontaktlarning alohida erga nisbatan izolyasiyasini o'lchash sxemasi.

Agar o'chirgich yuqori kuchlanish chulg'amlari izolyasiya qarshiligi bakka

nisbatan korxona sinash ko'rsatgichlari harorat $t_2 = 60\text{ }^{\circ}\text{S}$ da bir minutdan keyin o'lchangani, $R_{60} = 400\text{ MOM}$. Montaj paytida $t_1 = 20\text{ }^{\circ}\text{S}$ haroratda, o'lchanganda $R_{60} = 2000\text{ MOM}$. Haroratlar farqi $60-20=40\text{ }^{\circ}\text{S}$, $K_a=5$ ga to'g'ri keladi (1.3-jadval).

Topilgan koeffitsientdan foydalanib, korxona o'lchovlari natijalarini $t_1 = 20\text{ }^{\circ}\text{S}$ ga keltiramiz va $R = 400 \times 5 = 2000\text{ MOM}$ ni qabo'l qilamiz. Montajda izolyasiya qarshiligini korxonanikiga nisbatan 70% gacha, pasayishiga ruxsat beriladi. SHunga ko'ra $t_1 = 20\text{ }^{\circ}\text{S}$ izolyasiya qarshiligining (ruxsat ettirgan) ko'rsatgichi $0,7 \times 2000 = 1400\text{ Mom}$ ga teng.

Har $10\text{ }^{\circ}\text{S}$ ga harorat tushishi bir minutli izolyasiya qarshiligi korxona protokolda ko'rsatilganidan, 1,5 martaga ortadi. Transformatorning qarshiligi 1.3 jadvalga muvofiq, K_2 ga ko'paytirib mos ravishda montaj davridagi haroratga keltiriladi.

Izolyasiya qarshiligini bir hil haroratga keltirish 1.3- jadval

Haroratlar farqit- $t_2, ^{\circ}\text{C}$	5	10	15	20	25	30	35	40
K_{20} lchash izolyasiya koeffitsienti	1.2	1.5	1.8	2.3	2.8	3.4	4,1	5

Eslatma, t_2 - korxona sinovidagi moy harorati, $^{\circ}\text{S}$; t_1 - montaj ishlari paytidagi moy harorati, $^{\circ}\text{S}$, 1.3 jadvalda.

O'lchov qiymatlarini va hisob-kitob natijalarini kiritish 1.4 - jadvali

№	Jixoz nomi	Sinashdagi harorat, $^{\circ}\text{S}$	Izolyasiya qarshiligi, MOM	Haroratlar farqi, $^{\circ}\text{S}$	Izolyasiya koeffitsienti, K_2	Bir hil haroratga keltirilgan izolyasiya qarshiligi, Mom
1.	Izolyator yuzasi – uskuna tanasi					
2.	Uchirgich VMPE–10 FA–tana FV–tana FS–tana FA–FV, FV–FS, FA–FS					
3.	Kondensator FA–T, FV–T, FS–T					
4.	Ajratgich FA–T, FV–T, FS–T, FA–FV, FV–FS, FA–FS					
5.	Kuch transformatori ICH–T, IICH–T, ICH–IICH					
6.	Elektr dvigatel					

FA-T, FV-T, FS-T, FA-FV, FA-FS, FV- FS, FA-Fa, FV-Fv, FS-Fs					
--	--	--	--	--	--

Eslatma: FA, FV, FS, A, V, S, a, v, s fazalar; T – tana; ICH, IICH – chulgʻamlar.

Texnika xavfsizlik qoidalar

1. Uskunaning barcha tomondan kuchlanishni oʻchirib, ajrating.
2. Uskunani sigʻimli tokdan zaryadsizlantiring.
3. Kabellar yoki havo liniyalarini ikki tomonlama taʼminot qaboʻl qilingandagi tadbirlar, izolyasiyasini oʻlchashda, qarama qarshi tomondan kuchlanish berilishini bartaraf qilsin.
4. Momaqalldiroq, yashin paytida va uning yaqinlashishda megaommetr bilan havo liniyalar izolyasiyalari qarshiligini oʻlchash taqiqlanadi.

Nazorat savollar

1. 1 kV gacha kuchlanishli uskunalar izolyasiyasi qarshiligini oʻlchashda ekranli qisqich qoʻllanilmasdan bajariladi.
2. Megaommetr dastakini qanday tezlikda aylantirish kerak?
3. Megaommetr yaroqliligi qanday tekshiriladi?
4. Absorbsiya koeffitsienti - nimaga aytiladi?

2 – LABORATORIYA ISHI

Saqlagich eruvchan oʻrnatmasining meʼyoriy tokini tekshirish va tanlash

Ishning maqsadi

Talabalarni saqlagichlarga eruvchan oʻrnatmalarni hisoblash yoʻli bilan tanlash qisqa toʻtashgan rotorli asinxron yuritgichlarni, yoritgichlarni va xonadon jihozlari yuklamalarini himoyalashga oʻrgatish. Sinash yoʻli bilan ortiqcha yuklanish vaqtida eruvchan oʻrnatma shunchalik qizib ketish vaqti koʻp ortiqcha yuklangan oʻtkazgichlar izolyasiya harorati kuchli isib ketishga ulgurishga ishonch xosil qilinadi. Har xil navli materiallardan eruvchan oʻrnatmalar tanlashni oʻrganish.

Uskuna asboblari va ularning texnik maʼlumotlari tartibi 2.1- jadval


Nomi	Turi	Meʼyoriy koʻrsatgichi	Soni, dona
Kuchlanishni rostlagich	LATR-2M,	9 A, 250 V	1
Transformator	TSB-3(OSO)	220/6 yoki 380/12	1
Ampermetrlar	E-8025	10, 20 A	2
Tok transformatori	E-8021	20/5 yoki 30/5	1

Reostat	TK-20	15 A	1
Eruvchan o'rnatmalarini o'lash uchun dasta(panelga mahkamlangan qisqichlar)	RPR-2		1
Shtangensirkul			1
Mis, qo'rg'oshindan sim va yassi plastinali eruvchan o'rnatmalar	Mis, qo'rg'oshin	0.1-1.5 mm ²	Har biridan 3-5 metr
Izolyasiyalangan simlar	PVG	2x2.5 va 2x4.0 mm ²	Har biridan 3-5 metr
SHtangensirkul	SKT	0 - 125 mm	1

Ishning qisqacha mazmuni

O'tkazgichda o'tayuklanish yoki qisqa to'tashuv yuzaga kelganida avtomatik ravishda o'chirilishi kerak, aks holda simlar izolyasiyasi yonib ketadi. SHu sababli elektr o'tkazgichlarni himoya qilish uchun saqlagichlar va avtomatli o'chirgichlar qo'llaniladi. Saqlagichlar ko'yish vaqti ulardan o'tayotgan tok kuchiga bog'liq. Qisqa to'tashuvda saqlagichlar tez kuyib ketadi, chunki tok juda yirik; bu holatda ular ishonchli himoyachi hisoblanadi, chunki o'tkazgichlar izolyasiyasi qizishga ulgurmaydi. O'ta yuklanishlarda, tok ko'p yirik bo'lmaganida saqlagichlar har doim etarlicha ishonchli (himoyalash imkoniyatga ega emas) himoyalay olmaydi. 50-70% li yuklamada (o'ta yuklamada) ham bir necha minutda saqlagichlar ko'ymaydi; sim esa bu vaqt oralig'ida izolyasiyasi kuchli qiziydi va ularning izolyasiyasi kuya boshlaydi. SHu sababli o'ta yuklanishdan ishonchli himoyalovchi, issiqlik rele hisoblanadi.

Eruvchan o'rnatmani uch hil tanlash sharti mavjud. Birinchi sharti- $I_{o'ratma} \geq I_{his.}$; uni qo'llash quyidagi hollarda mumkin:



2.1-rasm. 2-sonli laboratoriya ishining elektr sxemasi: 1-LATR- 2 M (orqali) yordamida sxema kuchlanishini rostlagich va transformator 220/6V; 2– RPR-2 reostat yordamida tokni rostlash sxemasi.

1) Faza rotorli yuritgichlarda;

- 2) Ishga tushirish toki 2,5 martadan kambo'lganida;
- 3) Hisoblangan tokka nisbatan ishga tushirish toki 2,5 dan kamligida;
- 4) O'y – ro'zg'or va yuritgichlar yuklamalarida.

Har bir xonadonda, maishiy hizmat va ishlab chiqarish xonalarida eruvchan o'rnatmalari $I_{\text{ўрнатма}} = 0,8 I_{\text{дав.рух.}}$ sharti qoniqtirishi kerak.

Bu erda $I_{\text{дав.рух.}}$ – simning tok (chegarasi) ruxsat etilgani.

Ikkinchi sharti: $I_{\text{ўрнатма}} = \frac{I_{\text{ии.муи.}}}{\alpha} = \frac{I_n \cdot K}{2,5}$; bu erda I_n – yuritgichning me'yoriy toki;

A; K- jadvaldan olinadi, ishga tushirish tokkarraligi ; α – yuritgich ishga tushirilish sharoitiga bog'liq koeffitsient (og'ir yuklama bilan ishga tushirish sharoitda, $\alpha = 1,6 \div 2$ oralig'ida chegaralangan bo'ladi).

Bu shart qo'yicha holda qo'llaniladi:

- 1) Ishga tushirish toki 2,5 martadan yuqori bo'lganida;
- 2) Liniya ta'minotida yuritgichlar 1-2 tadan ko'p bo'lmaganda.

Uchinchi sharti, qo'yidagidan iborat, eruvchan o'rnatma me'yoriy toklari, birin-ketin o'rnatilgan, o'zaro farqlanishi kerak, xech bo'lmaganda bitta bosqichga eruvchan o'rnatma toki 20A gacha bo'lganida; agar eruvchan o'rnatma toki 20A dan yuqori bo'lsa, unda ikki bosqichga. Iste'molchidan o'zoqdagi, saqlagich katta toklarga tanlanadi.

Standart eruvchan o'rnatmalar navbatma- navbat ketma- ketlik toki bo'yicha bosqichlari: 4, 6, 10, 15, 20, 25, 30, 40, 50, 60, 80, 100, 120, 150, 160, 200, 220, 225, 260, 300, 350, 400, 430, 500, 600, 700A va boshqalar.

Ishni bajarish tartibi

1. Texnika xavfsizligi bo'yicha ko'rsatma va ishini o'rganish.
2. Sxemani yig'ib o'qituvchiga tekshirishga tavsiya qilinadi.
3. Har hil materiallardan navbatma-navbat har biridan eruvchan o'rnatmasini tanlab ketma-ket eritiladi. Bir xil kesimli har bir metall erish toki qiymatini taqqoslang.
4. 2.3. jadvaldan o'z variantingizga oid, quvvati $R = 1,7 \text{ kVt}$, $\text{FIK} = 81\%$, $\cos \varphi = 0,8$, $\alpha = 2,0$ va ishga tushirish toki $k = 5,0$ karralikka tengini, hisoblash yo'li bilan eruvchan o'rnatmasini tanlab va uni vaqt bo'yicha erishini ishga tushirish toki karraligini hisobga olgan holda tekshirish.
5. Saqlagichlar 6, 10A li me'yoriy eruvchan o'rnatma toki uchun sinash tokini tekshiring, agar pastki sinash toki $1,5 I_n$ ga tengligi ma'lum bo'lsa, eruvchan o'rnatma erimasligi kerak, agar yuqorigisi $2 I_n$ ga teng bo'lsa, u bir soat ichida erishi lozim.
6. Sinash natijalarini hisobotga yozing va 2.2-jadval ma'lumotlari bilan taqqoslang.

Misli simdan eruvchan oʻrnatmasi 2.2- jadval

Erish toki	Simlar diametri, mm
0,5	0,02
1	0,05
1.5	0,07
2	0,09
3	0,11
4	0,14
10	0,25
15	0,33
20	0,40
25	0,46
30	0,52
50	0,73
60	0,83
80	1,00
100	1,16
120	1,32
140	1,45

Texnika xavfsizlik qoidalari

1. Laboratoriya ishi davomida umumiy texnika xavfsizlik qoidalari bilan tanishish.
2. Ishni bajarish davrida sxemani kuchlanish ostida oʻzgartirish; klemmalarga va ochiq qisqichlarga tegish; kuchlanish ostida asboblarni oʻlash va echib olish; reostat yordamida oʻzoq vaqt katta tok oʻzatish; tokni 30A dan oshirish taqiqlanadi.

2-laboratoriya boʻyicha har bir talabaga alohida topshiriq.

Variantlar reyting daftarchasini oxirgi ikki soni boʻyicha dastlabki maʼlumotlar olinadi: V1 va oxirgi sonda V2.

Hisoblash usulidan foydalanib elektr dvigatelni himoyalash uchun saqlagichga eruvchan urnatma tanlang va T boʻyicha tanlangan erish simining kundalang kesimi erish vaqtini aniqlang.

Variantlar 2.3-jadval

V1	Elektr dvigatel parametrlari					V2
	Quvvati, R_n kVt	FIK, η %	$\cos\varphi$	$k = I_{i.t.}/I_n$	A	
1	3	92	0.75	4.7	1.82	1
2	2.4	80	0.82	5.2	2.13	2
3	1.5	93	0.79	6.5	1.62	3
4	3.3	87	0.87	5.0	1.92	4
5	2.7	85	0.88	4.5	2.34	5
6	1.1	83	0.92	6.7	2.15	6
7	1.7	90	0.89	6.0	1.65	7

8	2.2	95	0.76	5.5	2.72	8
9	3.4	82	0.90	4.9	1.68	9
0	0.7	84	0.86	6.3	1.93	0

bunda $I_{i.t.}/I_n = k$ –karralik; α –uta yuklanish davomiyligini xisobga oluvchi koeffitsiet qiymati odatda 1-3 chegarada bo‘ladi.

Variant tanlashga misol: reyting daftarchasi tartib raqami 2798638

V1–3 bo‘yicha $R_n=1,5$ kVt

V2–8 bo‘yicha $\eta=81\%$; $\cos\varphi = 0,80$; $I_{i.t.}/I_n = k = 5,0$; $\alpha = 2,0$.

Misol. $R_n = 1,5$ kVt, $U_n = 380$ V, $\cos\varphi = 0,8$, $\eta = 81\%$, $k = 5,0$, $\alpha = 2,0$.

1. Dvigatelni nominal tokini aniqlaymiz

$$I_n = R_n / \sqrt{3} U_n \cdot \cos\varphi \cdot \eta. \quad I_n = 1500 / 1,73 \cdot 380 \cdot 0,8 \cdot 0,81 = 3,52 \text{ A.}$$

2. Himoyalangan zanjirni xisoblangan tokini aniqlaymiz.

$$I_h = I_n \cdot k. \quad I_h = 3,52 \cdot 5, = 17,6 \text{ A.}$$

3. Saqlagichning urnatma eritmasini aniqlaymiz

$$I_{h.ur.er.} = I_h / \alpha. \quad I_{h.ur.er.} = 17,6 / 2,0 = 8,8 \text{ A.}$$

4. 2.2. Jadvaldan saqlagichning eruvchan urnatmani standart diametrini tanlaymiz va kudalang kesimini hisoblab topamiz.

$$d=0,25 \text{ mm. } I_{st.ur.er.} = 10 \text{ A va } s = 0,7854 \cdot d^2 = 0,7854 \cdot 0,25^2 = 0,049 \text{ mm}^2.$$

Nazorat savollari

1. Ishga tushurishda rotori qisqa to‘tashtirilgan asinxron yuritgich qanday ko‘rsatgichli tok iste’mol qiladi?
2. Eruvchan o‘rnatmasi elektr yuritgichlarni o‘ta yuklanishdan himoya qiladimi?
3. 20A dan yuqori bo‘lganda birin- ketin elektr yuritgichni himoyalash uchun o‘rnatilgan eruvchan o‘rnatmalari o‘zaro qanday farqlanishi kerak?
4. Nima uchun xonadonlarda saqlagichlar fazaga va nolli simga ulanadi, lekin ko‘p qavatli binolarshitlarida esa faqat faza simlariga biriktiriladi?
5. Qaysi holatlarda eruvchan o‘rnatmasi ikkinchi shart bo‘yicha tanlanadi?

3 - LABORATORIYA ISHI

Magnitli ishga tushirgichni o'lash va uning ishlashini tadqiq qilish

Ishning maqsadi

Magnitli ishga tushirgich elementlarining o'zaro ta'siri, o'lash sxemasini va tuzilishini o'rganish. Qanday holatda o'zicha o'chishi, qanday kuchlanishda ulanmasligi, qaysi holatda nome'yorli, qanday kuchlanishda magnitli ishga tushirgich me'yorli ishlashini, amaliyotda tekshirish.

Asboblarning tartibi va ularning texnik ma'lumotlari 3.1- jadval

Nomlari	Turi	Me'yorli ko'rsatkichlari, V,A	Soni, dona
Magnitli ishga tushirgich	2xPME-211 1xPME-111	G'altaklari 220V	3
Laboratoriya avtotransformatori	LATR-2M	0-250 V	1
Ampermetr	E-8021	10 A	2
Boshqarish tugmacha	KM-2, KMZ-3	380 V	2
Issiqlik rele	TRN yoki TRP	10 A	3
Elektr yuritgich	AOL	380/220 V	1



Ishning qisqacha mazmuni


Rotori qisqa to'tashgan asinxron yuritgichlarni masofadan boshqarish uchun va yana ularni o'ta yuklanishdan himoya qilish uchun issiqlik relesi bo'lgan magnitli ishga tushirgichlar qo'llaniladi.

Issiqlik relening isish elementlari ikkala fazaga va uning ajratgich kontaktlari KK – KM ishga tushirgichning boshqarish zanjiriga ulanadi. Magnitli ishga tushirgichning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki tarmoq kuchlanishi me'yordan 40% ga pasayganida magnitli ishga tushirgich ajraladi va bu bilan elektr yuritgichlarni yoki boshqa iste'molchini past kuchlanishda ishlashdan himoya qiladi.

Ishni bajarilishi tartibi

1. Texnika xafvsizligi bo'yicha qo'llanmani va ishning mazmunini o'rganish.
2. 1, 2 va 3 sxemalarni navbatma-navbat yig'ish va o'qituvchiga tekshirishga berish. Birinchi sxema to'g'ri yig'ilganida va "Pusk" tugmasi bosilganda magnitli ishga tushirgich shovqinsiz va ushlanib qolmasdan ulanishi kerak.
3. 3. 2 - sxemani yig'ish va LATR-2M yordamida kuchlanishni silliq rostlab LATR ga o'rnatilgan voltmeter orqali qanday ko'rsatkichda magnitli ishga tushirgich ulanishini aniqlang, keyin kuchlanishni pasaytira borib, qanday kuchlanishda o'zi o'chishi va qanday kuchlanishda ishga tushirish mumkin ekanligini aniqlang.





3.1-rasm. 3 – sonli laboratoriya ishining elektr sxemalari: 1-Magnitli ishga tushirgichni ulanish sxemasi; 2- magnitli ishga tushirgichni LATR-2M orqali ulanish sxemasi; 3- reversli ishga tushirgich orqali elektr yuritgichni ulanish sxemasi.

4. 3 - sxemani yig'ing. Elektr yuritgichni 3 sxema bo'yicha o'lash uchun bir tomonga aylanishiga SBC1 tugmacha bosiladi va uning SBC1 kontakti KM1 kontaktor g'altagi zanjirida to'tashadi, kontakt SBC1-2 esa KM2 kontaktor g'altagi zanjiridan ajraladi. KM1 kontaktor ishlaganda uning yordamchi kontakti KM1.1, SBC1.1 kontakti to'tashtiradi SBC1 tugmalar ulanadi, buning natijasida bu tugmalarni bo'shatganda KM1 kontaktor va elektr yuritgich M ulangan holatda qoladi.

